

SCIENTIFIC JOURNAL

APRIL 2024

# INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES

*Social Sciences & Humanities*




[internationalsciences.org](http://internationalsciences.org)

VOLUME 1, ISSUE 6



VOLUME 1  
ISSUE 6  
APRIL 2024



<https://internationalsciences.org/>

INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES

VOLUME 1, ISSUE 6, APRIL, 2024

**EDITOR-IN-CHIEF**

**M. Kurbonov**

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD**

**J. Usarov**

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

**G. Karlibayeva**

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Nukus State Pedagogical Institute

**H. Jurayev**

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Bukhara State University

**A. Madaliev**

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

**Y. Maxmudov**

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Termez State University

**Sh. Sodikova**

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

**Sh. Pazilova**

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

**E. Xujanov**

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Pedagogical University

**H. Qurbanov**

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University

**U. Rashidova**

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

**M. Fayzullaev**

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

**Z. Koryogdiev**

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

**S. Nazarova**

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

**F. Khazratov**

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Bukhara State University

**M. Mansurova**

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047566>

## TIJORAT BANKLARINING KREDIT OPERATSIYALARI VA KREDIT PORTFELI TAHLILI

**Valikulova Aziza Voxid qizi**

Bank moliya akademiyasi BHAN 2207 tinglovchisi

**Annotatsiya:** Tijorat banklarining faoliyatida kredit operatsiyalari va kredit portfeli tahlili asosiy ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Kredit portfeli tahlilini samarali olib borish banklarning kredit faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Quyida kredit portfelining ahamiyati, uni boshqarish, qonuniy asoslari va statistik tahlili bo‘yicha fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kredit operatsiyalari, kredit portfeli, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, makroiqtisodiy siyosat.

**Abstract:** In the activity of commercial banks, the analysis of loan operations and loan portfolio is one of the main priorities. Effective analysis of the loan portfolio has a positive effect on the credit activity of banks. Below is an opinion on the importance of the loan portfolio, its management, legal basis and statistical analysis.

**Key words:** credit operations, credit portfolio, credit policy, financial stability, macroeconomic policy.

Kredit operatsiyalari tijorat banklarining eng muhim faoliyati hisoblanadi. Kredit jarayonlarini tashkillashtirish darajasi bankning asosiy ishi va uni boshqarish sifatining eng yuqori ko‘rsatkichidir. Banklar uchun kreditlar berish foyda keltiruvchi operatsiyadan tashqari asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lib ham xizmat qiladi. Ya’ni, har qanaqa iqtisodiy takomillashish bosqichida, hatto tashkilotlarning moliyaviy beqarorligi vaziyatida ham kredit berish to‘xtab qilmaydi. Aynan kredit operatsiyalarini va kredit portfelini bankda to‘g‘ri va oqilona kredit siyosati asosida yurgizish eng katta daromad olish imkoniyatini beradi. Kredit portfelini shakllantirish va portfel sifatini baholash bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Optimal, sifatli kredit portfeli bankning likvidligi va ishonchlilikiga katta ta’sir qiladi. Bankning ishonchliligi ko‘pchilik uchun, eng muhimi - omonatchilar bo‘lgan va bank xizmatlaridan foydalanadigan aksiyadorlar, korxonalar, aholi uchun muhimdir.

Bankning barqarorligini taminlashda asosiy vosita kredit portfeli sifatini boshqarish maqsadi maqbul holatga, ya’ni optimal kredit portfeliga erishish

hisoblanadi. Xatar va rentabellik darajasi nisbati optimal kombinatsiyasini amalgamoshiradigan kredit portfeli optimal kredit portfeli deb ataladi. Kredit portfeli sifati ya'ni tavakkalchilik darajasi va rentabellik holati bilan ajralib turadi. Ularning o'zaro munosabatlarining umumiy shakli quyidagicha: daromad qancha ko'p bo'lsa, xavf ham shuncha yuqori bo'ladi.

Kredit portfeli — barcha kreditlar bo'yicha balans hisobvaraqlari summasi (brutto), banklar tomonidan olinadigan ishlab chiqarish korxonalari negizida tashkil etiladigan kompaniyalar aktivlariga banklar tomonidan yo'naltiriladigan barcha mablag'lar, shuningdek uch yildan kam bo'limgan muddatga berilgan lizing xizmatlari summasi.<sup>1</sup> Yuqorida berilgan ta'rifdan bilish mumkinki, umumiy qilib aytganda, optimal kredit portfeli - boshqa barcha kredit maqsadlarini belgilaydigan kreditlash faoliyatining global maqsadi sifatida ko'rildi.

Siyosat bank kredit portfelini vaqtি-vaqtি bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim.

Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosati muvofiqligini ta'minlash va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tadbiri, moliyaviy tahlil, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilish.<sup>2</sup>

Statistik ma'lumotlarga asoslanib tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston bank tizimining kredit portfeli 2023-yil yakuniga ko'ra 471,4 trln. so'mni tashkil etdi, bu 2022 yilning shu davriga nisbatan 21 foizga ko'pdir.

Banklar 2023 yil oxirida 148,62 trln. so'mni jismoniy shaxslarga, bu 2022-yilga nisbatan 47 foizga ko'pdir. 2023-yilda yuridik shaxslarga berilgan kreditlar hajmi 2022-yilga nisbatan 12 foizga oshib, 322,78 trln. so'mni tashkil etadi.

Markaziy bank jismoniy shaxslarga 58,11 trln. so'm ipoteka kreditlari (o'sish 25%), 44,59 trln. so'm – iste'mol kreditlari (+92%) va 24,52 trln. so'm mikrokreditlar (+67%) ajratildi.

Ta'limga ajratilgan kreditlar 4,74 trln. so'm (+131%) va tadbirdorlik faoliyatini rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar – 16,39 trln. so'mni (+13) tashkil etdi. Kredit tashkilotlari hisoblanmaydigan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar 13 foizga oshib,

<sup>1</sup> <http://lex.uz//docs/-1529317> Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

<sup>2</sup> Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida NIZOM (Yangi tahrirda)

308,76 trln. so‘mga, sindikatlashtirilgan kreditlar - 17 foizga oshib, 5,54 trln. so‘m, lizing va faktoring – 30 foizga – 2,03 trln. so‘mni tashkil etadi.

Yuridik shaxslarga berilgan mikrokreditlar 42 foizga kamayib, 5,28 trln. so‘mni tashkil etadi. Sanoatga 140,15 trln. so‘m (umumi kredit portfelining 30 foizi), qishloq xo‘jaligi – 47,25 trln. so‘m (10%), transport va aloqa – 34,34 trln. so‘m (7 foiz), savdo va umumi ovqatlanish – 32,51 trln. so‘mni (7%) tashkil etdi.<sup>3</sup>

### **1-jadval. Bank tizimi kredit portfeli to‘g‘risida hududlar kesimida ma’lumot<sup>4</sup>**

№	Hudud nomi	01.12.2020	01.12.2021	O‘zgarishi	
				summa	foizda
<b>Jami</b>		<b>270 716</b>	<b>320 813</b>	<b>50 096</b>	<b>19%</b>
<b>1</b>	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7 933	8 479	546	7%
<b>2</b>	Andijon viloyati	12 032	14 074	2 042	17%
<b>3</b>	Buxoro viloyati	11 659	14 863	3 204	27%
<b>4</b>	Jizzax viloyati	9 606	11 128	1 523	16%
<b>5</b>	Qashqadaryo viloyati	10 847	12 285	1 438	13%
<b>6</b>	Navoiy viloyati	8 745	9 329	584	7%
<b>7</b>	Namangan viloyati	9 534	11 267	1 733	18%
<b>8</b>	Samarqand viloyati	14 711	15 995	1 284	9%
<b>9</b>	Surxondaryo viloyati	10 886	12 741	1 854	17%
<b>10</b>	Sirdaryo viloyati	7 864	9 691	1 827	23%
<b>11</b>	Toshkent shahri	128 211	156 747	28 536	22%
<b>12</b>	Toshkent viloyati	16 888	19 649	2 761	16%
<b>13</b>	Farg‘ona viloyati	12 426	13 961	1 535	12%
<b>14</b>	Xorazm viloyati	9 375	10 603	1 228	13%

O‘tgan 2020-2021-yillardagi bank tizimi kredit portfelining hududlar kesimi bo‘yicha berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, barcha hududlar kesimida 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 19% ga oshgan. Hududlar ichida eng katta ulushga ega bo‘lgan hududlar Toshkent shahri 156747, Toshkent viloyati 19649, Samarqand viloyati 15995 summa bilan boshqa hududlarga nisbatan katta kredit portfeli hajmiga ega bo‘lgan. Yillar kesmidagi eng katta o‘sish Buxoro viloyati 27%, Sirdaryo Viloyati 23% va Toshkent shahri 22% ga to‘g‘ri kelgan.

<sup>3</sup> <https://uzdaily.uz/ru/post/83625>

<sup>4</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/575089/>

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o‘sishining mo‘tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo‘lgan menejerlami jalg qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash bank tizimini isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Kredit portfelining sifat ko‘rsatkichlari asosida kredit berish tamoyillariga muvofiqligini va qarz berish operatsiyalari tavakkalchilik darjasini, berilgan likvidlilik istiqbollarini baholash mumkin. Yuqoridagi keltirilgan firklar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, har qanday bankda kredit portfelining holati va portfel sifatini baholash doimiy ravishda amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Коваленко Сергей Борисович, Швейкин Игорь Евгеньевич Кредитный портфель банка и его роль в предотвращении кредитного риска // Промышленность: экономика, управление, технологии. 2019. №1 (75). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kreditnyy-portfel-banka-i-ego-rol-v-predotvrascheniikreditnogo-riska>.
2. Омонов А.А., Қоралиев Т.М “Пул ва банклар” Дарслик. Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019 й. – 461 б.
3. <http://lex.uz//docs/-1529317> Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida
4. Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida NIZOM (Yangi tahrirda)
5. <https://uzdaily.uz/ru/post/83625>
6. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/575089/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047590>

## ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI LEKSIKASI

Karamatova Parvina Shuxrat qizi

Ismoilova Shahlo Baxtiyor qizi

TerDU, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada buyuk adabiyotshunos, turkiy til va o‘zbek adabiy tilining asoschisi, go‘zallik kuychisi hisoblanmish Alisher Navoiyning turk tili va adabiyotiga qo‘shgan hissasi, turk tilining rivojidagi mislsiz ahamiyati yoritib o‘tilgan. Shuningdek, uning turk tiliga bo‘lgan e’tibori, shu tilda yaratilgan asarlarining betakrorligini ham ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga Navoiy asarlarining til leksikasi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** Alisher Navoiy, turk tili, o‘zbek adabiy tili, “Xamsa”, leksika, taom nomlari, kiyim-kechak nomlari.

Alisher Navoiyning ijodi har bir davr uchun eng muhim ilmiy manba sifatida keng tadqiq etib kelinadi. Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi “Xamsa” asari (1483–1485)dir. Shoir birinchilardan bo‘lib turkiy tilda to‘liq “Xamsa” yaratdi va turkiy tilda shunday ko‘lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. “Xamsa” tarkibiga “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlar kiradi. Alisher Navoiy turkiy tillar tarixidagi beqiyos va tengsiz adabiyotshunosdir. Uning turkiy tillar rivojidagi mehnatlari mislsizdir. Barchaning diqqat-e’tibori fors tili va uning qanchalar jarangdorligiga qaratilgan bir vaqtida, Navoiy turk tilining nechog‘lik go‘zalligi, boyligini to‘la ochib bera oldi va ushbu tilda takrorlanmas dostonlar, g‘azallar yaratdi. Turk tiliga bo‘lgan e’tiborning kuchayishiga, bu tilning gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shdi. Navoiyning bu xizmatlari hanuzgacha avlodlar e’tibori va e’zozidadir.

Alisher Navoiy asarlari tili XV asr adabiy tilning nodir yodgorligi sifatida jahonda shuhrat qozonganligi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid katta leksika aks etgan, o‘zbek klassik adabiy tilining fonologik va grammatick tizimi uning asarlari tufayli muayyan me’yorlarga tushdi va klassik asarlar tili sifatida o‘zining mavqeini hozirgacha saqlab qolmoqda. Alisher Navoiy sa’y-harakatlari tufayli eski o‘zbek adabiy tili nomi bilan yuritilgan bu til barcha jabhada adabiy til talablariga javob bera olgan. Shu tufayli ham unga o‘zbek adabiy tilining asoschisi degan buyuk e’tirof manzur ko‘rildi. Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlarini o‘rganish masalasi

ham dolzarb masalalardan biri sifatida olimlarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Q.Muhiddinov, X.Doniyorov, U.Sanaqulov, I.Nosirov, Z.Hamidov kabi tilshunos olimlarimiz Navoiy asarlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Xususan, bulardan Xudoyberdi Doniyorov 1960-yillarning oxirida navoiyshunoslikning eng muhim qismlaridan biri hisoblangan Alisher Navoiy asarlarining tili va uslubi masalalarini keng ko‘lamda tadqiq etish ishlarini boshlab bergan.

X. Doniyorovning “Alisher Navoiy va o‘zbek adabiy tili” nomli ilmiy risolasida Markaziy Osiyo jug‘rofiyasida XI asrda shakllangan adabiy tilning XV asrda ulug‘ shoir tomonidan dunyoning eng rivojlangan adabiy tillari darajasiga olib chiqilgani, shu bois, eski o‘zbek adabiy tili tarixi XIX asrning ikkinchi yarmigacha nafaqat o‘zbek etnosi, balki boshqa qardosh turkiy xalqlar uchun ham birdek mushtarak adabiy til vazifasini bajarib kelganligi to‘g‘risidagi fikrlar keltirib o‘tilgan.

A. Navoiy asarlari til xususiyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, Navoiy o‘z asarlarida, albatta “**grammatika**” yoki “**fonetika**” so‘zini qo‘llagan emas. Lekin tilning grammatik va fonetik qonunlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o‘ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o‘zbekcha terminlar bilan atagan (amr, harf, harakat, hamza, voze’, voz’ - yasovchi yoki so‘z yasovchi, tajnis va ihom – ko‘p ma’noli so‘z: alam - ism, ot; almutakallim – so‘zlovchi; lafz, kalom, alfov kabi terminlar) hamda ular haqida o‘z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan. Jumladan, Navoiy turkiy (o‘zbek) tilining grammatik xususiyatlari haqida yetarli darajada fikr bildirgan. Turkiy tilda so‘z yasalishini xarakterlash jihatidan Navoiyning “-chi” affiksiga keltirgan misollari, ayniqsa, muhim va mufassaldir: “Yana biradolari borki, ba’zi alfovning so‘ngida “ch, i, ki, chi” lafzidur, ortturlar, yo mansabning, yo hunarning, yo peshananing izhori uchun: forsiyda yo‘qtur, balki alar ham turkcha ayturlar”.

Navoiy, shuningdek -vul, -l kabi qo‘srimchalar orqali o‘sha davrda keng qo‘llanilgan “xirovul, qarovul, chingdovul, yanqovul, so‘zovul, patavul, kitpovul va yasavul, bakovul, shig‘ovul; qahol, yasol, qabol, to‘sqol, sevarg‘ol” kabi otlar yasalganligini ham qayd qilib o‘tadi. Navoiy asarlarining tili o‘z davrida mavjud bo‘lgan turkiy sheva, lahja va dialektlarning deyarli hammasining vokalizmini qariyb to‘liq ravishda aks ettirgan. Chunki 9 sostavli unli tovushlar tizimi va singarmonizm qonuniyati eski o‘zbek adabiy tilining asosiy bazalari bo‘lgan qipchoq lahjalarini ham, o‘g‘uz lahjalarini ham, o‘rta (o‘zbek-qorluq-chigil-uyg‘ur) lahjalarini ham tovush tizimlarini to‘liq aks ettirishga imkon bergen. Navoiy tilidagi qisqa hamda cho‘ziq “i” unli tovushi o‘sha davrdagi o‘g‘uz-turkman lahjalarining tovush tizimini to‘liq aks ettirish uchun hamda arab, ayniqsa, fors-tojik tilining ta’siriga kuchli ravishda

uchragan Hirot, Samarqand, Buxoro singari shahar shevalari vaular tipidagi shevalarning tovush xususiyatlarini aks ettirish uchun xizmat qilgan. Navoiy asarlari tilida uchrovchi ochiq “o”(u) tovushi esa shu keyingi aytilgan til va dialektlarda fonema darajasiga ko‘tarilgan lablashgan “0” ni aks ettirish uchun qo‘llangan.

O‘zbek tilshunosligida leksik qatlamlar yuzasidan bir necha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biz ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi taom nomlari, kiyim-kechak nomlarining leksik xususiyatlari yuzasidan tahlil qilib o‘tamiz. Navoiy asarlari tilida taomga doir biz aniqlagan 56 leksema qo‘llanilgan bo‘lib, shundan 30 tasini turkiy so‘zlar, 19 tasini forsiy, 6 tasini arabiy, 1 tasini xitoycha 2 tasini hindcha o‘zlashmalar tashkil etadi. Demakki, taomga oid aniqlangan leksik birliklarning 53 % i turkiy so‘zlardan iborat. Masalan: 1. O‘tmak – non (ANATIL, 3 j. 612-bet). 2. Chalpak – chalpak (ANATIL, 3 j. 119-bet). 3. Ko‘moch / Kumoch – qo‘rga ko‘mib pishiriladigan non. 4. Kuloch - 1. Holvaga o‘xhash bir tur shirinlik. 2. Sharbat, bodom va qaymoq solib qilingan kulcha. (nabotiy kuloch birikmasi uchraydi). Alisher Navoiy asarlarida libos, kiyim-bosh so‘zlarining ma’nodoshi sifatida kisvat so‘zi ham ishlatilgan:

Bir qo‘y terisin chiqordi filhol,

Majnung‘a dediki: “Egningga sol.

Qo‘ydek bu terini xil’at ayla,

Boshdin ayog‘ingga kisvat ayla.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, O‘zbekiston ilm-fanini Navoiysiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Navoiy dahosining quadrati shundaki, u o‘zining amaliy faoliyati bilan turli til, lahja va shevalarga xos fonetik, leksik va grammatic xususiyatlarni umumlashtirdi, muayyan me’yorga soldi va sayqallashtirdi. Shu tariqa, yagona adabiy tilga asos soldi va bu tilni yuqori cho‘qqiga olib chiqdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T.: G‘ulom , 1979. –B.149.
2. Zohidov A. Ulug‘ shoir ijodining qalbi . –T.: O‘zbekiston , 1970. –B.12.
3. Olimov S. Navoiy va Naqshband . –T.: O‘qituvchi , 1996 . –B.146.
4. Abdug‘afurov A. Navoiy satirasi. –T.: Fan, 1966. –B.23.
5. Арипов М. Гуманизм Алишера Наваи. –Т.: Ўқитувчи, 1991. –Б.67.
6. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy tanqidiy qurilishlari .–T.: Fan, 1939,- b33
7. Abdurahmonov G., Rustamov A. “Qadimgi turkiy til”- T: O‘qituvchi 1982-yil
8. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. “O‘zbek tilining tarixiy grammaticasi” -T:O‘qituvchi 2008

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047636>

## OSIYO-TINCH OKEANI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTINI MODERNIZATSİYA QILISHNING O'ZİGA XOS XUSUSİYATLARI

**Shavkat Akilovich Sharifxo‘jaev**

iqtisodiyot fanlari doktori, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
“Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasи professori

**Ziyoda Abduraximovna Kamilova**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti magistranti

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari iqtisodiyotini modernizatsiya qilish xususiyatlari, jumladan, mintaqaning yetakchi iqtisodiy gigantlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi innovatsiyalar, norasmiy bandlik va ishchi kuchi tengsizligi muammolari, shuningdek, bank sektori, byudjet konsolidatsiyasi va moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq muammolar muhokama qilinadi. Maqolada mintaqaning iqtisodiy dinamikasi murakkabligi va zamon talablarini yengish uchun tizimli islohotlar zarurligi ta'kidlangan.*

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, iqtisodiy gigantlar, innovatsiyalar, norasmiy bandlik, tengsizlik, bank sektori, byudjet konsolidatsiyasi, moliyaviy barqarorlik, tizimli islohotlar.

### SPECIFIC CHARACTERISTICS OF MODERNIZATION OF THE ECONOMY OF ASIA-PACIFIC COUNTRIES

#### ABSTRACT

*The article discusses the features of the modernization of the economies of the countries of the Asia-Pacific region, including the leading economic giants of the region, innovations in information and communication technologies, problems of informal employment and labor inequality, as well as problems related to the banking sector, budget consolidation and financial stability. The article emphasizes the complexity of the economic dynamics of the region and the need for systemic reforms to overcome the demands of the times.*

**Keywords:** economic modernization, economic giants, innovation, informal employment, inequality, banking sector, budget consolidation, financial stability, structural reforms.

Bugungi kunda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi chegaralarini belgilashda turlicha yondashuvlar mavjud. Aksariyat tadqiqotchilar Osiyo-Tinch okeani mintaqasi deganda Bering bo‘g‘ozidan Myanmagacha bo‘lgan hududni nazarda tutadi. Unga Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Vietnam, Kambodja, Laos, Tayland, Singapur, Indoneziya, Malayziya, Bruney, Filippin, Myanma, Shimoliy Koreya va Mo‘g‘ulistonni kiritish mumkin. Shuningdek, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi jarayonlarni chuqur o‘rganish uchun AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada, Hindiston, Pokiston kabi davlatlarni kiritish muhim.

So‘nggi o‘n yilliklarda Osiyo-Tinch okeani mintaqasida jahon siyosati va iqtisodiyotining yangi markazini yaralish jarayonini kuzatish mumkin. Mintaqada iqtisodiy o‘sish bo‘yicha dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi. Mintaqaning iqtisodiy gigantlari qatoriga Xitoy va Yaponiya, shuningdek, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya va boshqalar kirdi.

Mintaqa juda qulay geosiyosiy mavqega ega. Janubiy-Xitoy va Sharqiy-Xitoy dengizlariga chiqish imkoniyati AQSh va Yevropaga muhim dengiz yo‘llarini ochadi. Mintaqa tinchlik va xavfsizlik nuqtai nazaridan ham nihoyatda muhim mavqega ega bo‘lib, jahon siyosatining yetakchi sub‘yektlari, xususan, mintaqaning eng faol davlatlari qatoridan joy olgan AQSh va Xitoy tomonidan katta qiziqish uyg‘otadi. Turli madaniyatlar, siyosiy va iqtisodiy yondashuvlardagi farq tufayli Osiyo-Tinch okeani mintaqasi o‘ziga xos "xilma-xillikdagi birlik" ni ifodalaydi, bu mintaqqa davlatlarining jahon iqtisodiyotidagi mavqeini yanada mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bugungi kunda ko‘plab ko‘rsatkichlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda. Uning maydoni butun dunyo hududining 40% ni egallaydi, bu yerda xomashyo resurslarining 65% qayd etilgan. Mintaqa mamlakatlari hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 60 foizi, xalqaro savdoning 47 foizdan ortig‘i, jahon to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmning 48 foizi, dengiz transportining 60 foizdan ortig‘i va havo transportining 25 foizi to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga mintaqada nisbatan arzon transport yo‘nalishlari va bozorlar ko‘p.

Mintaqa bugungi kunda yalpi ichki mahsulot va tashqi savdo aylanmasining o‘sishi bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinni egallab, sanoat ishlab chiqarishini jadal rivojlantirmoqda, fan-texnika taraqqiyoti samaralaridan tijorat maqsadlarida samarali foydalanish borasida katta yutuqlarni ko‘rsatmoqda. Osiyo-Tinch okeani davlatlarining umume’tirof etilgan iqtisodiy muvaffaqiyatlarining asosini nisbatan yuqori bo‘limgan ishchi kuchi qiymati, jamg‘armalarning yuqori darajasi, milliy iqtisodiyotlarning aniq ifodalangan eksportga yo‘naltirilganligi bilan ta’minlangan muhim raqobat afzalliklari tashkil etadi. Jahon bankining 2022-yil uchun ma’lumotlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyo mamlakatlari va hududlari reytingida Osiyo-Tinch okeani mintaqasining 3 ta yirik iqtisodi

yetaqchilik qilmoqda – AQSh 25,4 trillion dollar, Xitoy 18,0 trillion dollar va Yaponiya 4,2 trillion dollar.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi o‘zining geoiqtisodiy yuksalishiga ko‘p jihatdan sanoat tovarlari bo‘yicha dunyodagi eng yirik eksportchiga aylangan Xitoy sababli erishgan. Xitoy Bojxona Bosh boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020- yil oxirida Xitoyning eksporti pandemiyaga qaramay, 2019- yilga nisbatan 3,6 foizga oshib, 2,59 trillion dollarni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich o‘sishda davom etib, 2021- yilda 3,36 trillion dollarni, 2022- yilda esa 3,59 trillion dollarni tashkil etdi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari hozirgi vaqtida iqlim o‘zgarishi, raqamlashtirishning jadal sur’atlari va demografik siljishlar, xususan, aholining qarishi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu megatrendlarni to‘liq nazorat qilib bo‘lmaydi, lekin ularni yanada inklyuziv, teng huquqli va adolatli jamiyatni yaratishga qaratilgan izchil rivojlanish strategiyalari orqali hal qilish mumkin.

O‘nlab yillar davomida Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar tug‘ilish va o‘lim darajasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlardan past ko‘rsatkichlarga o‘tish, umr ko‘rish davomiyligi hamda ichki va xalqaro migratsiya ortib borishi bilan tavsiflanadigan demografik o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Natijada yoshlар va asosan qishloq aholisi qariroq va shahar aholisiga aylandi. Bu o‘zgarish insoniyatning muvaffaqiyatlarini ko‘rsatadi, chunki bu aholi salomatligini saqlashni takomillashtirish, tibbiyotdagi taraqqiyot va umumiyligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasidir. Ammo bu o‘zgarishlar juda tez sodir bo‘lganda va ko‘p sonli aholiga ta’sir qilganda, hamda mamlakatlarda o‘zgarishlarga mos choralarni amalga oshirish uchun vaqt kam bo‘lganda, yanada chuqurlashib borayotgan muammolarni keltirib chiqaradi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) rivojlantirish va joriy etishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar globallashuv sur’atlarini tezlashtirib, mehnat bozorlari va ijtimoiy tuzilmalarni o‘zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar rasmiy iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish va ish o‘rinlari sonini ko‘paytirishga yordam berishi mumkin, ammo raqamli texnologiyalardan barcha bir tekis foydalana olmasligi daromad va boylikda tengsizlikni oshishiga ham hissa qo‘sishi mumkin. Dalillar shuni ko‘rsatadiki, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi dunyodagi barcha mintaqalar orasida eng katta raqamli tafovutga ega. Mintaqalarning uchdan ikki qismidan kamroq‘i internetdan foydalanadi, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha 90 foizni tashkil qiladi.

AKTdan foydalanish raqamli ko‘nikmalarni talab qiladi va raqamlashtirish mehnat bozorlarini o‘zgartirish orqali imkoniyatlar va natijalar tengsizligini oshiradi. 2020-2022- yillar oralig‘ida bazaviy, standart va ilg‘or AKT malakalari darajalari

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarida sezilarli darajada farq qiladi. Hatto yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarda ham aholining 40 foizigacha bo‘lgan qismida AKT bo‘yicha bazaviy ko‘nikmalar mavjud emas. Ma’lumotlar taqdim etilgan barcha mamlakatlarda aholining 12 foizdan kamroq‘i AKT bo‘yicha ilg‘or ko‘nikmalarga ega.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi tabiiy resurslarga va qishloq xo‘jaligi sektoriga qaramlik, aholi zich joylashgan qirg‘oq hududlari, ijtimoiy himoyaning yo‘qligi va qashshoqlikning yuqori darjasini tufayli iqlim o‘zgarishi va u bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarga juda zaifdir. Mintaqada iqlim ta’siri ostida ob-havo hodisalari tez-tez, shiddatli va oldindan aytib bo‘lmaydigan bo‘lib bormoqda. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida dunyodagi tabiiy ofatlar eng ko‘p uchraydigan o‘nta davlatdan sakkiztasi joylashgan. Tabiiy ofatlarga moslashish va ularning ta’sirini yumshatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarning yo‘qligi tufayli mintaqasi dunyoning boshqa qismlariga qaraganda iqlim xavf-xatarlariga ko‘proq duchor bo‘lmoqda.

Ishchi kuchining taxminan 52 foizi yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlardan ta’sirlanishi mumkin bo‘lgan sektorlarda ishlaydi. Masalan, qishloq xo‘jaligida Janubiy va Janubi-G‘arbiy Osiyodagi ishchi kuchining 43 foizi ishlaydi. Qishloq xo‘jaligida yashil iqtisodiyotga o‘tish mintaqada 100 mln gacha ish o‘rni yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Mintaqadagi ishchilarning aksariyati munosib ish bilan ta’minlanish imkoniyatiga ega emas, bunda ayollar, yoshlar, nogironlar va keksalar nomutanosib ravishda zarar ko‘rmoqda. Mintaqasi aholisining yarmidan ko‘pi ijtimoiy himoyaga ega emas; har beshinchi odam tibbiy xizmatlar uchun shaxsiy mablag‘laridan qoplanadigan katta xarajatlarga duch kelishi xavfi mavjud; bundan tashqari, ko‘pchilik inklyuziv va adolatli sifatli ta’lim va umrbod ta’lim olish imkoniyatlaridan mahrum.

Ushbu tendensiyalarni bartaraf etish mehnatga layoqatli yoshdagagi odamlarning mehnat resurslarida to‘liq ishtirokini taqozo etadi. Ishchi kuchi iqtisodiy o‘sishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, u tovarlar va xizmatlar savdosini va soliq tushumlarini ta’minlaydi; oilalar va jamiyat farovonligiga hissa qo‘shadi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ishchi kuchining 68 foizi norasmiy sektorda ishlaydi, bu 1,4 mlrd kishini tashkil etadi, ulardan 600 mln kishi qishloq xo‘jaligi sohasida band. Norasmiy bandlik darjasini Janubiy va Janubi-G‘arbiy Osiyoda eng yuqori bo‘lib, u yerda ish joyiga ega bo‘lganlarning qariyb 80 foizi norasmiy ish bilan band.

Norasmiy bandlik bandlik turlari va shakllarining keng doirasini, jumladan, o‘z-o‘zini band qilish va bandlikning nostandard shakllarini, masalan, vaqtinchalik ish, uydan turib yoki raqamli platformalarda ishslashni qamrab oladi. Natijada, mintaqadagi ishchi kuchining yarmi kuniga 5,5 dollardan kam daromad bilan tirikchilik qiladi.

Ba'zi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlarning norasmiy sektorda band bo'lish ehtimoli ko'proq, masalan, ma'lumot darajasi past bo'lgan odamlar, ayollar, nogironlar, keksalar, migrantlar va qishloq aholisi. Norasmiy iqtisodiyotning o'sishi noaniq, samarasiz, noto'g'ri yoki xato amalga oshirilgan makroiqtisodiy va ijtimoiy siyosat bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yetarli bo'limgan ta'lim va kasbiy tayyorgarlik darajasi, kamsitish, huquqiy maqomning yo'qligi, litsenziyalash talablariga riosa qilmaslik, iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar - bularning barchasi norasmiy bandlikni keltirib chiqaradigan omillardir.

Mintaqadagi ishlagan soati davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan o'lchanadigan mehnat unumdorligi dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich va Afrikadan tashqari barcha boshqa rivojlanayotgan mintaqalar ko'rsatkichlaridan ortda qolmoqda. Ishchi kuchi salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun ish o'rinalining soni va sifatini oshirish, aholining ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatini ta'minlash zarur. Muntazam va barqaror daromadning yo'qligi ishchilarni qashshoqlik va zaiflikka olib keladi va ularning salohiyatini pasaytiradi. Ijtimoiy himoyadan foydalanish inson huquqlaridan biridir va ehtiyyotkorlik bilan boshqarilsa, mehnat bozorlarida samarali va munosib bandlikni yaratish imkonini beradi. Ijtimoiy himoya bolaning tug'ilishi, ishini yo'qotish yoki kasallik kabi hayotiy hodisalar tufayli ish va daromaddagi uzilishlarni yengishga yordam beradi. Bu, shuningdek, iqlim bilan bog'liq ofatlar, aholining qarishi va raqamlashtirish kabi iqtisodiy tanazzul va megatrendlarning oqibatlarini yumshatishga yordam beradi.

Mintaqaning ko'p qismida so'nggi paytlarda pul-kredit siyosatining keskinlashuvi va so'nggi ta'minot zarbalarini bartaraf etishni hisobga olgan holda, joriy siyosat bilan inflyatsiyani maqsadli darajaga qaytarish vazifasi tobora ko'proq amalga oshirilishi mumkin. Biroq, prognoz va cheklangan siyosat maydoni, davomli fiskal va moliyaviy siyosat bilan bog'liq muammolar bilan me'yorlashtirish inflyatsiyani qo'llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorlikni saqlash va fiskal buferlarni qayta tiklash uchun zarurdir. Bunga qo'shimcha, pandemiya asoratlari, global iqlim o'zgarishi va geoijtisodiy parchalanishning salbiy ta'sirini yumshatish uchun tizimli islohotlar zudlik bilan zarur.

Oxirgi ikki yil ichida inflyatsianing o'sishiga duch kelgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi markaziy banklari (Yaponiya banki va Xitoy Xalq bankidan tashqari) narx barqarorligi bo'yicha o'zlarining mandatlariga muvofiq pul-kredit siyosati pozitsiyalarini kuchaytirdilar. 2000-yildan boshlab rivojlangan va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida nominal siyosat stavkalarining o'sish sur'ati oldingi pul-kredit qattiqlashgan davrlari bilan solishtirganda tezroq bo'ldi. Tarixiy hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, bu keskinlashuv yaqinda inflyatsianing pasayishiga yordam berdi.

Kelgusida mintaqadagi markaziy banklar pul-kredit siyosatini muddatidan oldin yumshatishdan ehtiyyot bo‘lishlari kerak: qattiqlashuv sikliga qaramay, oldingi real siyosat foiz stavkalari faqat nolga yaqin, bu neytral darajaga yaqin yoki hali ham bir oz past. Moliyaviy sharoitlar, ayniqsa, rivojlanayotgan bozor iqtisodlari, avvalgi pul-kredit siyosatining keskinlashuv davrlariga qaraganda ancha qulay bo‘lib qolmoqda.

Mintaqaning bir necha ilg‘or iqtisodlari, jumladan, Avstraliya, Yaponiya va Yangi Zelandiyadagi bazaviy inflyatsiya hali ham maqsadli darajadan ancha yuqori. Oziq-ovqat (ayniqsa, guruch) va yoqilg‘i narxlari tufayli inflyatsiya xavfi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Asosiy inflyatsiyaning o‘zi oziq-ovqat, yoqilg‘i va transport xarajatlari zarbalariga, ayniqsa rivojlanayotgan bozor va rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’sirchan. Shuningdek, siyosiy choralarining kechikishi hamda talab va taklif zARBALARining nisbiy hajmi atrofida sezilarli noaniqlik mavjud.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining bank sektori kuchli kapital buferlari va o‘sib borayotgan rentabellik bilan mustahkam bo‘lib qoldi. Biroq, foiz stavkalari uzoq vaqt davomida yuqoriligicha qolishi bilan bog‘liq bo‘lgan aktivlar sifati xavfi ortishi va Osiyo-Tinch okeani mintaqasida moliyaviy sektorning stressiga olib kelishi mumkin. Siyosatchilar nazoratni kuchaytirish, shu jumladan Bazel III standartlarini joriy etish, sabr-toqat choralarini bosqichma-bosqich bekor qilish va tizimli xavflarni diqqat bilan kuzatish orqali javob berishlari kerak.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ko‘chmas mulk sektorlari uzoqroq muddatga qattiqroq sharoitda moliyaviy barqarorlik xatarlari manbaiga aylanishi mumkin. Xitoyda mulk sohasida davom etayotgan stress kichikroq banklar uchun moddiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Regulyatorlar xaridorlarning manfaatlarini himoya qilish va bozor ishonchini tiklash bilan birga, nochor ishlab chiqaruvchilarni qayta tashkil etish yoki bankrotlik jarayonlarini osonlashtirishi kerak. Xitoydan tashqarida yuqori kreditli mulk sektori segmentlari qiyin moliyalashtirish shartlari va likvidlik tanqisligiga duch kelishi mumkin. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi tijorat ko‘chmas mulk sektori nisbatan kichik bo‘lsa-da va pandemiyadan keyin narxlarning oshishi odatda oddiy bo‘lsa-da, Gonkong maxsus ma’muriy hududi va Singapur kabi mintaqaviy moliya markazlarida tijorat mulki narxi sezilarli darajada pasaydi. Bank sektorining tijorat ko‘chmas mulkini kreditlash darajasi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi iqtisodiyotida yuqori, ammo zaifliklar saqlanib qolmoqda. Makroprudensial choratadbirlar banklar va nobanklar, shu jumladan, yuqori darajada qarzdor korporativ qarz oluvchilar va tobora zaiflashib borayotgan ko‘chmas mulk sektorlari (masalan, kreditlar bo‘yicha cheklolvar) bilan bog‘liq yuzaga keladigan xavflarni bartaraf etish uchun (qiymat koeffitsiyentlari va qarzga xizmat ko‘rsatishning daromadga nisbati) oldindan qo‘llanilishi kerak. Moliyaviy sharoitlar qulayligicha qolayotgan iqtisodlar uchun banklarning kontrsiklik buferlari va zaiflik cho‘ntagiga ega bo‘lgan sektorlar

uchun zaxiralarini oshirish haddan tashqari tavakkalchilikni yumshatishi mumkin. Agar moliyaviy sektorda stress yuzaga kelsa, likvidlikni qo'llab-quvvatlashni zudlik bilan qo'llash va ma'naviy xavfni kamaytirish zararni cheklaydi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi byudjet konsolidatsiyasi deinflyatsiyani qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda, garchi bu sur'at 2024-yilda sekinlashishi kutilsa-da. Yuqori qarz darajalari va foiz stavkalari tufayli qarzga xizmat ko'rsatish yuklari pandemiyadan oldingiga qaraganda yuqoriroqdir, shuning uchun qarz barqarorligini ta'minlash uchun kuchli birlamchi balanslar zarur. Bu ustuvor sarf-xarajatlar uchun cheklangan fiskal maydonga ega bo'lgan yoki qarz muammosi xavfi ortgan mamlakatlar uchun ayniqsa tashvishlidir. Bozorga yo'naltirilgan tuzilmaviy islohotlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va davlat moliyasini mustahkamlash orqali savdoni yengillashtirishi mumkin. Tarkibiy islohotlardan olingan daromadlar soliq tushumlarining ko'payishi va suveren qarzlarning torroq tarqalishi orqali amalga oshiriladi va oxir-oqibat qarzning YaIMga nisbatan sezilarli va uzoq muddatli qisqarishiga olib keladi.

Mintaqadagi davlatlar daromadlari xalqaro tengdoshlarga nisbatan pastligicha qolmoqda. Daromadlarni oshirishga qaratilgan islohotlar, shu jumladan soliqqa tortish bazasini kengaytirish va daromadlarni boshqarishni kuchaytirish, rivojlanish ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Cheklangan moliyaviy maydonga ega mamlakatlarda davlat xarajatlari tegishli chora-tadbirlarga qaratilishi kerak. Bu eng zaif uy xo'jaliklarini himoya qiladi va kelajakdagi mahsuldarlikni oshiradi. Bunga subsidiyalar islohotiga ustuvor ahamiyat berish, zaif ijtimoiy himoya tarmoqlarini mustahkamlash va davlat investitsiyalarini ko'paytirish orqali erishish mumkin. Mintaqadagi yirik energiya subsidiyalarini qisqartirish, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish uchun moliyaviy maydonni yaratish orqali iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga yordam beradi. Bir nechta chegaraviy bozor iqtisodiyoti (masalan, Maldiv orollari, Mo'g'uliston va Papua-Yangi Gvineya) va past daromadli mamlakatlar (masalan, Laos PDR) yuqori qisqa muddatli tashqi moliyalashtirish ehtiyojlari yoki qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlariga duch keladi. Kuchli fiskal barqaror darajada qarz barqarorligiga erishish uchun ayrim hollarda tuzatish talab qilinishi mumkin. Aloqa va ishonchli o'rta muddatli moliyaviy tuzilmalarni amalga oshirish bunday tuzatishlarni osonlashtiradi. Strukturaviy siyosat samaradorligini oshirish hamda pandemiya va parchalanish asoratlarini yumshatish uchun mamlakatlar maqsadli va puxta ketma-ketlikdagi tarkibiy islohotlarni amalga oshirishi kerak. Eng muhim cheklowlarni yengillashtiradigan islohotlarga ustuvorlik berish faoliyat ishlab chiqarish daromadlarini oshirishga yordam beradi va ommaviy xaridni ta'minlaydi. Sog'liqni saqlashni kengaytirish kabi islohotlarni qamrab olish, erta bolalik va oliy ta'lim olish

imkoniyatini oshirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va raqamlashtirishni chuqurlashtirish o'rta muddatli ishlab chiqarishni oshiradi. Tuzilmaviy taqsimotning potensial salbiy ta'sirini yumshatish iqtisodiy guruhlar (jumladan, jins va yosh) bo'yicha islohotlar qo'shimcha siyosat choralarini talab qilishi mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga yordam beradi. So'nggi paytlarda butun Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo'ylab havo harorati o'nlab yillar davomida ortib borishi bilan birga tabiiy ofatlarning chastotasi ko'tarildi. Investitsiyalar iqlim o'zgarishiga moslashishni kengaytirish uchun kerak. Ham davlat, ham xususiy manbalardan, jumladan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmlari - ayniqsa, eng zaif hududlarda iqlim shoklari va global chiqindilarni kamaytirish orqali iqlim o'zgarishini yumshatish uchun zarur. Iqlim xavfi monitoringi tizimlari va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish va kuchliroq xavfsizlik tarmoqlari va sug'urta tizimini yaratish, shuningdek, iqlim barqarorligini oshirish uchun zarurdir. Nihoyat, Osiyo davlatlari Xitoyning o'rta muddatli o'sishi ta'sirini yumshatish uchun islohotlarni kuchaytirishi kerak. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi global ta'minot zanjirlariga yuqori darajada integratsiyalashganligi sababli, ko'p tomonlama va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va parchalanish oqibatlarini yumshatish daromadlarni saqlab qolishga yordam beradi. Bu mintaqalararo notarif savdo to'siqlarini kamaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni talab qiladi. Tarif bo'limgan savdo to'siqlari Osiyo-Tinch okeani mintaqasida yuqoriligidcha qolmoqda va tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ularning olib tashlanishi o'sishda foyda keltirishi mumkin. Bundan tashqari, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha islohotlar chora-tadbirlari xorijiy va mahalliy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish uchun me'yoriy-huquqiy baza muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalar va samaradorlikni oshirish uchun tadqiqot va ishlanmalarga, ta'limga va malaka oshirishga ko'proq sarmoya kiritilishi lozim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Плотников В.А. К определению пространственной конфигурации Азиатско-Тихоокеанского региона. / Евразийская интеграция: экономика, право, политика, – 2007. – №2.
2. Арин О.А. Азиатско-тихоокеанский регион: мифы, иллюзии и реальность.— М.:Флинта, Наука, 1997 — 435 с. (Электронная версия, исправленная), 2016 – Стр. 30-38.
3. Ланцова И. С. Азиатско-Тихоокеанский регион в современной мировой политике // Вестник Санкт-Петербургского университета. – 2006. – Сер. 6. – Вып.1.
4. Фролова Я. А. Проблемы безопасности в Азиатско-Тихоокеанском регионе: роль форума АТЭС. // – 2009. – №4.
5. The World Bank: Gross Domestic Product 2020 — [Электронный ресурс] — Режим доступа: <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>.
6. Китайский экспорт испытал вирусный рост — Газета "Коммерсантъ" №5 от 15.01.2021[Электронный ресурс]: www.kommersant.ru — Режим доступа: <https://www.kommersant.ru/doc/4642309>.
7. International Monetary Fund. Regional economic outlook. Asia and Pacific: challenges to sustaining growth and disinflation. Oct.2023.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047658>

## ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM DININING AHAMIYATI

**Sharifboyeva Fazilat Odilbek qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
magistratura talabasi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishda islam dinining ahamiyati yoritilib berilgan. Musulmon ziyoratchilar uchun qanday qulayliklar yaratish ularning ziyorat qilishlarida hech qanday to'siqlar bo'lmashligi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerakligi batafsil bayon e'tilgan. Maqolada yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda islam dining ahamiyati haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar:* ziyorat turizmi, diniy turizm, islomiy turizm, "halol" va "harom"

**Introduction:** O'zbekistonning ko'p asrlik tarixi hamda islam, xristian va budda dirlari bilan bog'liq madaniy meros obyektlari ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Vatanimiz hududida dunyoga mashhur qadamjo va ziyoratgohlar borki, ularni ziyorat qilish islam dinida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, ziyorat turizmini yanada rivojlantirish orqali yurtimizning turizm salohiyatini yuksaltirish imkonini beradi.

Bugungi kunda yurtimizda jami 7476 ta moddiy madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 4308 tasi arxeologiya, 2079 tasi arxitektura va 694 tasi monumental san'at yodgorligi, 395 tasi esa diqqatga sazovor joy sanaladi. Yodgorliklarning 75% dan ortig'i respublikaning markaziy turistik shaharlarida joylashgan. Turistik rekreatsion obyektlarning 114 tasi Toshkent shahrida, 118 tasi Samarcandda, 201 tasi Buxoroda va 310 tasi Xiva shahrida joylashgan bo'lib, hozirgi kunda bu turistik resurslarning 3/1 qismigina turizm sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, qolganlari esa turistik infratuzilmaning shakllanishi va yangi turmahsulotlar tayyorlashni talab etadi. Jumladan, 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham yurtimizda 8000 ga yaqin madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga uning atigi 500 nafari kiritilgani tanqidiy ta'kidlab o'tildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmoni hamda mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-fevraldagi 100-son Qarorining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu farmon va qarorlarda yurtimizda nafaqat islom dini bilan bog‘liq turizm obyektlari, balki turli xil dinlarga va madaniy, tarixiy, me’moriy, arxeologik ahamiyatga ega ziyorat maskanlariga xorijiy hamda mahalliy ziyoratchilarni jalb qilish nazarda tutilgan.

Dunyoning “Halol turizm” bo‘yicha ixtisoslashgan yetakchi tashkilotlaridan biri “Crescent Rating” 2015-yildan buyon 130 ta davlatlar orasida 40 dan ortiq mezon asosida musulmonlar sayohati indeksini tuzib kelmoqda. “Musulmon mehmono‘siti” reytingi natijalari esa sayohatchilarga jozibador hisoblangan davlatlarni to‘g‘ri tanlashiga yordam beradi.

**Methods:**

Hozirgi kunda ziyorat turizmiga katta e’tibor qaratilmoqda, chunki islom tarixiy jihatdan diniy ahamiyatga ega bo‘lgan sayohatlarning ayrim iqtisodiy va ijtimoiy vazifasini qamrab olgan. Islom dinida haj, umra va ziyorat tushunchalari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Jumladan, haj va umra diniy ibodat bo‘lib, ularni aniq, belgilangan tartibga rioya etgan holda amalga oshirish talab etiladi. Shu sababli haj va umra turizm yoki ziyorat tushunchasi hamda turizm obyekti maskanlarini ziyorat qilish bilan tenglashtirilmaydi. Haj ma’lum geografik doirada, ya’ni Saudiya Arabistoni qirolligidagi Makka va Madinaga qadar bo‘lgan hududda amalga oshiriladigan faoliyatdir. Haj – unga qodir bo‘lgan musulmonlar uchun farz amal bo‘lib, Zulhijja oyining 9- va 10- kunlarida (hijriy yilning oxirgi oyida) amalga oshiriladi. Umra esa butun yil davomida bajarilishi mumkin bo‘lgan ziyoratdir.

Mazkur safarlarda qatnashayotgan musulmonlar odob-axloq, muayyan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari darkor, chunki haj va umrada axloqsizlik harakatlari va tortishuvlar bo‘lmasligi lozim. Bu safarlar islom dinidagi eng sharaflı va ulug‘ amallar hisoblanadi.

Islom dinida ziyorat turizmi musulmonlar tomonidan amalga oshiriladigan sayyoqlik safarlarida, ularning diniy, ma’naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda xizmatlarni taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Mutaxassislarning fikrlariga ko‘ra, ziyorat turizmi bu diniy va dam olish turizmini birlashtiradigan sayohatning bir turidir. Musulmonlar dunyo bo‘ylab turli maqsadlarda tarixiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan turistik faoliyat turlarini amalga oshiradilar. Sayohat mobaynida musulmonlar kundalik turmush tarzining ajralmas bir qismi, ya’ni ularning e’tiqodiga mos keladigan xizmatlarni taqdim etish, ibodat qilish uchun sharoit yaratilganligi muhim ahamiyatga

egadir. Shubhasiz, musulmonlar ma'lum bir joylarga sayohat qilganlarida ularning diniy e'tiqodlari ushbu maskanlardagi xatti- harakatlari va munosabatlariga ta'sir qiladi.

Bugungi kunda ziyorat turizmi, diniy turizm, islomiy turizm kabi atamalar ilmiy adabiyotlar hamda kundalik hayotda keng qo'llanmoqda. Ziyorat turizmi, diniy turizm keng qamrovli tushunchalar bo'lib, turli xil din vakillarining diniy maqsadlardagi sayohatini anglatsa, islom turizmi aynan musulmonlarning sayohatini qamrab oluvchi tushuncha hisoblanadi. Jumladan, ilk bor islomiy turizm atamasi 2000-yilda Islom hamkorlik tashkilotining yig'ilishida muhokama qilingan. Ushbu yig'ilish ishtirokchilari islomiy mamlakatlar bo'ylab daromad olish va mamlakatlarni rivojlantirish maqsadida sayohat qilish g'oyasini taklif qilganlar.

Musulmonlar ziyorat turizmida asosan islom dini bilan bog'liq obyektlar bo'ylab sayohatlarni, turlarni amalga oshiradi. Ziyorat turizmi musulmon sayyoohlarning jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy qoniqishi hamda Allohga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladigan turistik faoliyatlardan biri hisoblanadi. Ziyorat turizmi sayohatchini buyuk va ezgu maqsadlar sari chorlaydi. Sayohatning maqsadi turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni sayohatni ibodat bilan bog'lash, dunyoqarashni kengaytirish, insonlarda Allohga va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlariga nisbatan hurmatni oshirish, shuningdek, Alloh yaratgan mo'jizalar haqida o'ylash va bu buyuk olam go'zalligidan sayohat orqali bahramand bo'lish hamda mavjud ne'matlar uchun shukronalik hissini ifoda etish, qadrlashdir.

Sayohat qilish inson qalbida Allohnинг yagonaligiga bo'lgan kuchli ishonchni shakkantirish uchun juda muhimdir. Sayohat qilish orqali musulmon sayyoohlar o'z salomatliklari va farovonliklarini yaxshilaydilar, ruhiy zo'riqishni kamaytiradilar va Allohnинг yaratganlari borasida tafakkur qilishdek buyuk ibodat uchun imkon topadilar. Ziyorat turizmining o'ziga xos talablaridan biri shundaki, sayohat davomida islomiy qadriyatlar doirasida zavq olish istagi amalga oshadi. Ziyorat turizmi xarid qilish, tibbiyot, sport, do'stlar va qarindoshlarning uylariga tashrif buyurish kabi tadbirlarni ham qamrab oladi.

Ziyorat turizmida turistik faoliyatning barcha turlari islom qonunchiligi, ya'ni "shariat" doirasidan chiqmasligi lozimdir. Shariaat qoidalariga zid bo'lgan faoliyatlar sirasiga turistlar va jamiyatga zarar yetkazadigan quyidagi odatlarni misol qilib keltirish mumkin:

- giyohvandlik;
- ichkilikbozlik;
- yengil hayot tarzini targ'ib qilish va olib borish.

Bundan tashqari, sayyohlar tashrif buyuradigan maskan, sarf- xarajatlarning miqdori, sayohat mobaynidagi sayyohning faoliyat turlari va unga hamrohlik qilish uchun munosib gid tanlash sayohatning sifatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Islom dinida ziyorat tushunchasi. "Tashrif buyurmoq", "borib ko'rmoq" degan ma'nolarni anglatuvchi ziyorat so'zining istilohiy ma'nosini Alloh aziz qilgan insonlarni va muqaddas qadamjolarni savob umidida borib ko'rishdir. Ziyorat – hurmat yuzasidan keksa tabarruk kishilar, hurmatli zotlar huzuriga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olish, ularni muborakbod etishdir. Islom dinida dastlab qabrlarni ziyorat qilish man qilingan edi. Negaki, johiliyat davrida arablar musibat yetganida Allohnинг taqdiridan norozi bo'lib g'azablanishar, qabr tepasiga borib oh-voh qilishardi. Shuning uchun ham Rasululloh (s.a.v.) sahabalarini fitnadan saqlash uchun qabr ziyoratidan qaytargan edilar. Keyinchalik sahabayi kiromlar qalblariga imon chuqur o'rashib, e'tiqodlari mustahkam bo'lgach, Rasululloh (s.a.v.) qabrlarni ziyorat qilishga buyurganlar.

Sulaymon ibn Burayda otasidan rivoyat qiladi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Sizni qabrlarni ziyorat qilishdan qaytargan edim. Batahqiq, Muhammadga onasini ziyorat qilishga izn bo'ldi. Bas, u (qabr)larni ziyorat qiling. Albatta, ular oxiratni eslatadi", dedilar [3].

**Results and discussion:** Shariah tomonidan ruxsat berilgan mahsulotlarni iste'mol qilish barcha musulmonlar uchun diniy burch hisoblanadi va bu shariat qoidalariga asoslanadi. Shu bilan birga, shariat talablariga javob beradigan turistik mahsulotlar odatda Qodir Alloh va Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning ko'rsatmalariga muvofiq bo'lgan barcha mahsulotlarni nazarda tutadi.

Shariat qonunlari turizm va mehmono'stlik sohasiga bevosita ta'sir qiladi. Mazkur islomiy mezonlar "halol" va "harom" kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Arab tilidagi "hall" o'zagidan olingan "halol" (حَالٌ) so'zi diniy tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan amallar ma'nosini anglatsa, fiqhiy yondashuvda esa Alloh tomonidan bajarilishiga ruxsat etilgan va uni amalga oshirish taqiqlanmagan, ya'ni shariat tomonidan ma'lum amallarni bajarishda erkinlik berilganligini anglatuvchi so'z hisoblanadi. "Harom" (حرام) so'zi arab tilidagi "hrm" o'zagidan olingan bo'lib, halolga nisbatan zid ma'noni anglatuvchi "harom" so'zi man etilgan, taqiqlangan, halol bo'lmanan narsa yoki amallar ma'nolarini ifodalaydi. Fiqhiy jihatdan harom Alloh tomonidan bevosita va bilvosita, amalga oshirilmasligi qat'iy talab qilingan, amalga oshirish gunoh bo'lgan, uni tark etish savob olib kelgan kabi ma'nolarni anglatadi. Shu sababli musulmon haloldan foydalanishi va haromdan saqlanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ziyorat turizmida musulmon sayyoh va xizmat ko'rsatuvchilar islam dini tamoyillarini inobatga olgan holda faoliyat yuritishlari muhimdir [4].

Ziyorat turizmi sohasining xizmat ko'rsatuvchilari sayohat davomida musulmonlarning gunohdan saqlanishlari uchun bir nechta shartlarni hisobga olishlari darkor, bular, jumladan:

1. Tanlangan ovqatlanish maskanlarida spirtli ichimlik iste'moliga ruxsat berilmasligi;
2. Islom nuqtai nazaridan noto'g'ri kiyinish holati mavjud bo'lmasligi;
3. Ko'ngilochar maskanlarda ayol va erkaklarning bir joyda aralash dam olishiga sharoit yaratilmasligi;
4. Islomiy qadriyatlarga zid bo'lgan musiqa va raqslar, ko'ngilochar dasturlar namoyish etilmasligidir.

Ya'ni, har qanday manzil turistik xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan sayyoh va ziyyoratchilar uchun islomiy xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olgan holda tahlil va muhokama qilinishi, so'ngra taklif etilishi lozim.

**Conclusion:**

O'zbekistonda islom dini o'zining boy tarixi va madaniy merosi tufayli ziyyorat turizmini rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi. O'zbekistonda ziyyorat turizmi uchun islom dinining muhimligining bir necha asosiy sabablari:

Tarixiy ahamiyati: O'zbekiston islom sivilizatsiyasining uzoq tarixiga ega, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar islom ta'limoti va madaniyatining ko'zga ko'ringan markazlari hisoblanadi. Bu shaharlarda muhtasham masjidlar, madrasalar va maqbaralar joylashgan bo'lib, ziyyoratchilar va sayyoohlarni o'ziga tortadi.

Diniy obidalar: O'zbekistonda ko'plab muhim islom diniy obidalari joylashgan, masalan, Samarqanddagi Registon maydoni, Bibixonim masjidi va Shoh-i-Zinda nekropoli joylashgan. Bu joylar musulmonlar uchun diniy ahamiyatga ega va butun dunyodan ziyyoratchilarni jalb qiladi.

Madaniy meros: Islom dini O'zbekistonning arxitekturasidan tortib oshxonasi gacha, musiqa va san'atiga bo'lgan madaniy merosiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu madaniy boylik O'zbekistonning islom tarixi va an'analariga sho'ng'ish istagida bo'lgan musulmonlar uchun ziyyoratgoh sifatidagi joziba bag'ishlaydi.

Ziyorat yo'llari: O'zbekiston Sharq va G'arbni bog'lagan qadimiy Ipak yo'li bo'ylab joylashgan. Bu tarixiy savdo yo'li tovarlar, g'oyalar va dinlar, jumladan, islom almashinuvini osonlashtirgan. Bugungi kunda Ipak yo'li bo'ylab ziyyorat yo'llari qadimgi sayohatchilarning izidan qaytishga va muhim diniy obidalarni ziyyorat qilishga qiziqqan musulmon ziyyoratchilarni jalb qilmoqda.

Turizm infratuzilmasi: O'zbekiston o'zining sayyoqlik infratuzilmasiga sarmoya kiritib, ziyyoratchilarning diniy joylarga borishi va diniy tadbirdorda ishtiroy etishini osonlashtirmoqda. Bunga diniy turistlar uchun mo'ljallangan turar joy, transport va qulayliklarni rivojlantirish kiradi.

Madaniy tajribalar: O‘zbekistondagi ziyyarat turizmi an’anaviy islomiy marosimlarda qatnashish, so‘fiylar musiqasi chiqishlarida qatnashish va islomiy ashyolar va hunarmandchilik buyumlari sotiladigan mahalliy bozorlarni o‘rganish kabi noyob madaniy tajribalarni taqdim etadi.

Umuman olganda, islom dini O‘zbekistonda ziyyarat turizmining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi va dindor musulmonlar va qiziquvchan sayohatchilarni mamlakatning boy islom merosi va ma’naviy ahamiyatini o‘rganishga jalg qiladi.

### References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-5611-son Farmoni. (2019). “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. www.lex.uz – <https://lex.uz/docs-4143188?ONDATE=06.01.2019>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-6165-son Farmoni. (2021). “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyyarat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. www.lex.uz – <https://lex.uz/docs-5283956>
3. Imom Muslim. Sahihi Muslim. Birinchi nashr. – Qohira, “Doru ihyo al-kutub al-arabiya”, 1374. 976-b. 1977-hadis.
4. <https://www.musulmonlar.com/halol-va-haromni-kim-belgilaydi/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047743>

## ON USING REMOTE LABS FOR ENGINEERING EDUCATION

**Kholmonov Shodiyor Karshiboyevich<sup>1</sup>,**  
**Nurmukhamedova Tursunoy Usmonovna<sup>2</sup>**

Senior teacher, Department of Electronics and Radio Engineering, Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Uzbekistan, Tashkent<sup>1</sup>,  
[shodiyor.8989@gmail.com](mailto:shodiyor.8989@gmail.com)

Assistant, Department of Electronics and Radio Engineering, Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Uzbekistan, Tashkent<sup>2</sup>

**Abstract:** *Distance learning is becoming increasingly popular in engineering education, especially in environments where the physical presence of students in laboratories or workshops is often limited. Incorporating distance laboratories into educational programs opens up new opportunities for learning and experimentation, making the educational process more flexible and accessible.*

*This abstract highlights the importance of integrating distance learning and laboratory work into engineering education, identifying this area as strategically important for the development of modern educational standards and the training of qualified specialists capable of working effectively in a changing technological landscape.*

**Keywords:** *remote experiment, distant engineering education, LabVIEW, new educational technologies, distance laboratories, measuring technologies, hardware systems.*

## I. INTRODUCTION

In recent years, distance education has become a significant part of curriculum in many fields, including engineering education. The evolution of information technology and telecommunications has opened new horizons for teaching methods that can radically change traditional approaches to engineering education. Access to remote laboratories allows students to conduct experiments and hands-on assignments from the comfort of their home or office, significantly expanding opportunities for learning and skill development. [1]

One of the key advantages of distance learning is its accessibility. Students anywhere in the world have the opportunity to receive quality education, access to which may previously have been limited due to geographic, financial or personal reasons. Distance laboratories offer unique opportunities for hands-on work that require specialized equipment and materials, thereby making engineering education more inclusive.

Integrating advanced technologies such as virtual and augmented reality, cloud, artificial intelligence, and the Internet of Things (IoT) into distance learning learning experiences helps create more effective and interactive learning environments. Such technologies make it possible to recreate complex engineering processes and experiments in a virtual format, giving students the opportunity for trial and error without risking equipment or safety.

Continuous evaluation and adaptation of curricula is necessary to ensure that distance engineering education meets both academic and professional standards. Teachers need to develop new techniques and approaches that can motivate and engage students and provide a deep understanding of the subject despite the lack of face-to-face contact.

Ultimately, distance learning and the introduction of distance laboratories in engineering education represent an innovative approach that can significantly improve the level and quality of engineering education. They offer both significant opportunities to expand access to education and challenges that require thoughtful solutions in pedagogy and technology.

Paper is organized as follows. Section II describes fundamental advantages of a distance learning laboratory. Section III describes the role of distance learning experiment in modern engineering education. Section IV presents experimental results showing results of structural diagrams. Finally, Section V presents conclusion.

## II. RELATED WORK

Also, virtual measuring technologies make it possible to combine measuring systems with telecommunication networks, thereby providing the possibility of remote access to measuring and control equipment. Such integration makes it possible to connect a large number of different measuring and control devices remote from each other into a single system.

It is very important to promote distance technologies in laboratory workshops and in a training experiment in order to increase efficiency and reduce material costs for training in the field of engineering education.

At the same time, the following fundamental advantages of a distance learning laboratory are achieved:

- round-the-clock automatic operation;
- individualization and improvement of the quality of education;
- availability of a remote laboratory from any geographical point.

## III. METHODOLOGY

The role of distance learning experiment in modern engineering education: The introduction of new information technologies is the most important factor in improving the efficiency and quality of the educational process. A special place in engineering education is occupied by laboratory and practical classes. In recent years, distance learning has been intensively developing in higher education. For a long time, the main obstacle to the use of distance learning in engineering and secondary technical specialties in technical universities and technical schools was the impossibility of conducting remote laboratory workshops based on traditional teaching technologies and obsolete instrumentation. The successful development of the technology of virtual measuring instruments and modern means of telecommunications make it possible to effectively carry out a remote experiment from almost any geographical point. [8]

## IV. EXPERIMENTAL RESULTS

### **Technology of remote automated experiment through local and global information networks:**

1. Improved Accessibility: Distance programs provide learning opportunities for a wider range of students, including those who are located in remote areas or are unable to study in a traditional setting due to personal circumstances.

2. Technology Integration: The use of advanced technologies such as virtual reality, Internet of Things, and cloud computing enables the creation of realistic and interactive learning environments that can significantly enhance the quality of engineering education.

3. Development of practical skills: Distance laboratories provide students with the opportunity to conduct experiments and apply theoretical knowledge in practice, which is critical to the preparation of qualified engineers.

4. Prepare for Future Challenges: Distance learning prepares students for future careers in a global and ever-changing technological environment. The main components of the above structural diagrams are:

- remote users;
- the Internet;
- main server;
- remote laboratories;
- LAN of the university;
- computer centers and computer classes of the university. [9]

## V. CONCLUSION

Distance learning and the use of distance laboratories in engineering education represent significant steps towards modernizing the educational environment and expanding its accessibility. These innovative approaches not only improve the flexibility and accessibility of education, but also develop students' critical thinking and practical skills.

Going forward, to maintain and expand the success of distance engineering education, institutions must focus on improving the quality of distance content, delivery methods, and student support systems. It is also important to continue to develop and implement innovative learning tools that can provide deep and effective learning.

In conclusion, distance learning and distance laboratories play a strategic role in the education of future engineers. This not only helps improve educational processes, but is also a response to modern challenges in the field of engineering education, opening up new perspectives and opportunities for learning.

## REFERENCES

- [1] Karshiboyevich, Kholmonov Shodiyor, and Nurmukhamedova Tursunoy Usmonovna. "REMOTE LABS IN HIGHER ENGINEERING EDUCATION: ENGAGING STUDENTS WITH ACTIVE LEARNING PEDAGOGY." Journal of new century innovations 43.3 (2023): 143-147.
- [2] Qarshiboyevich, Xolmonov Shodiyor, and Nurmuxamedova Tursunoy Usmonovna. "ZAMONAVIY ELEKTRON O'QUV USLUBIY TA'MINOTINI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH ORQALI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH." Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi 11.1 (2023): 77-80.
- [3] Aliane N., Pastor R., Mariscal G. (2012). Limitations of Remote Laboratories in Control Engineering Education. Proceedings of the International Journal of Online Engineering. Retrieved March 5, 2012 from <http://www.online-journals.org>
- [4] Pop D., Zutin D.G., Auer M.E., Henke K., Wuttke H.D. (2011). An Online Lab to Support a master Program in Remote Engineering. Proceedings of the 41st ASEE/IEEE Frontiers in Education Conference. Retrieved August 10, 2011 from <http://fie-conference.org/fie2011/>.
- [5] Restivo M.T., Silva M.G., (2009). Portuguese Universities Sharing Remote Laboratories. Proceedings from the International Journal of Online Engineering, 5. Retrieved March 23, 2012 from <http://www.online-journals.org/index.php/i-joe/article/view/1090>
- [6] Kirsanov A.Yu. Remote experiment based on the combination of telecommunication measuring and control systems: Diss. for the competition scientist step. cand. tech. Sciences, Kazan, 2007. - 186 p.
- [7] Abdulwahed, M., & Nagy Z. K. (2011). The TriLab, a novel ICT based triple access mode laboratory education model. Computers & Education, 56(1), 262–274
- [8] Саттаров Х. А. и др. СПУТНИКОВЫЙ МОНИТОРИНГ ЭЛЕКТРОСЕТЕЙ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРЕИМУЩЕСТВА: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 286-290.
- [9] Xolmonov S., Abdullayev A. TEHNIKA FANLARINI O 'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO 'LLASH //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 717-721.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047756>

## KURSANTLARNI JISMONIY SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA GIMNASTIKANING ROLI

O‘razov Sobir Saparbayevich

O‘R QK Akademiyasi O‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kursantlarning jismoniy sifatini rivojlanishda gimnastikani roli to‘g‘risida so‘z yuritilgan bo‘lib, gimnastikani rivojlanish shakl, metod va vostalarini amaliyotga keng joriy etish zarurati masalalariga bag‘ishlangan.

**Tayanch tushunchalar:** kursant, jismoniy, sifat, mashg‘ulot, rivojlanish, gimnastika, metod, sport.

**Аннотация:** Данная статья рассказывает о роли гимнастики в развитии физических качеств курсантов, а также посвящена вопросам необходимости широкого внедрения в практику форм, методов и средств развития гимнастики.

**Ключевые слова:** курсант, физическая сила, качество, тренировка, развитие, гимнастика, метод, спорт.

**Abstract:** This article talks about the role of gymnastics in the development of physical qualities of cadets, and also addresses the need for widespread introduction into practice of forms, methods and means of development of gymnastics.

**Key words:** cadet, physical strength, quality, training, development, gymnastics, method, sport.

Mamlakatni mudofaa qobiliyatiga, prezidentimiz - Qurolli Kuchlarimiz Oliy bosh Qo‘mondoni va butun o‘zbek xalqi qurolli kuchlarga juda katta g‘amxo‘rlik va e’tibor bilan qaramoqda. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari har doim tashqi agressiya kuchlarini qaytarishga shay xolda turibdi. Zamonaviy jangovar texnika va harbiy xizmatchilarning ishtirokisiz, ruhiy va jismoniy sifatlarsiz, jangda hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga katta e’tibor qaratilib, jangovar tayyorgarlikni takomillashtirish, xar doim izlanishda bo‘lish, kursant va tinglovchilarni yuqori ruhiy va jismoniy tayyorgarligini oshirish, qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini oshirish, zamonaviy jang sharoitiga moslashtirish asosiy vazifalardan biridir.

Gimnastika mashg‘ulotlari kursantlarning chaqqonlik, kuchlilik va kuch

ishlatiladigan chidamlilik, egiluvchanlik, makonda mo‘ljal ola bilish, dovyuraklik va qat’iyatlilik sifatlari, chayqalish va jismoniy yuklama ta’siriga bardosh berish qobiliyatları, harbiy-amaliy harakat ko‘nikmalari hamda gavda tuzilishi, saf qad rostliklari va xipchaliklarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Mashg‘ulotlar gimnastika maydoni, shaharchasi, sport zali, atayin jihozlangan xona, trenajyor kompleksi kabi ob’ektlar, gimnastika snaryadlari bilan jihozlangan ochiq tabiiy joylarda o‘tkaziladi. Gimnastika mashg‘ulotining tayyorlov qismi mazmuniga diqqat-e’tiborni bir yerga jamlash uchun xizmat qiladigan saf amallari va jismoniy mashqlar, yurish va yugurish davomida bajariladigan mashqlar, joyda turib bajariladigan umumiy rivojlantirish mashqlar, shu jumladan, tananing “sakrab chiqish” va “sakrab tushish” holatlarini takomillashtirish mashqlari, erkin mashqlar kompleksi, ikki kishilashib bajariladigan mashqlar, maxsus mashqlar va sakrash mashqlari kiritiladi. Mashg‘ulotning tayyorlov qismidagi umumiy rivojlantirish mashqlari gimnastika devori yoki kursisida, koptok, gimnastika tayog‘i yoki gantel vositasida musiqa sadosi ostida yoxud musiqasiz bajarilishi mumkin.

Gimnastik va maxsus snaryadlarda bajariladigan jismoniy mashqlar, akrobatika mashqlari va yuk ko‘tarish mashqlarining ijrosi yaxlit, qismlarga bo‘lib, tayyorlov mashqlari vositasida, erkin mashqlar kompleksi esa sanoq ostida o‘zlashtiriladi. Gimnastik mashqlar ijrosini mashq qilish mazmuni, ushbu mashqlarning ko‘p marotaba takror bajarilishidan iborat. Murakkab mashqlar ijrosi dastlab qismlarga bo‘linib, so‘ngra yaxlit bajarish yo‘li bilan takomillashtiriladi.

Beriladigan jismoniy yuklamaning jadalligini oshirib borish maqsadida gimnastik mashqlar barcha harbiy xizmatchilar tomonidan bir vaqtda, navbat bilan, sherenga, kolonna va bo‘linma tarkibida bir kishidan ketma-ket yoki bir necha kishilashib, yordam beruvchi juftliklar tarkibida va o‘quv joyini davra tarkibida almashlab borib bajarilishi mumkin. Mashq ijrosini o‘zlashtirish davomida mashg‘ulot yakka tartibda, guruhlarga bo‘linib va hamma baravar bajarish usullari qo‘llanilib, tashkillashtiriladi. Chaqqonlik sifati – kishining harakatlarni aniq bajarish, shuningdek yangi va kutilmagan vaziyatlarda yuzaga keladigan vazifalarni o‘z vaqtida va oqilona hal qila olish qobiliyatini anglatadi. Chaqqonlik sifatini rivojlantiruvchi asosiy vositalar quyidagilardan iborat: kon va kozeldan sakrash, turnik va bruslarda bajariladigan mashqlar. Bundan tashqari chaqqonlik sifati qo‘l jangi, to‘sqlilardan oshib o‘tish, tezkor harakatlanish, sport va harakatli o‘yinlar bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulatlarda ham rivojlantiriladi.

Kursantning maxsus sifatlari organizmning harbiy-professional faoliyat davomida yuzaga keladigan muayyan omillar ta’siriga bardosh bera olish xususiyatini anglatadi. Organizmning bunday xususiyatlariga asosan: chayqalish, gravitatsion yuklama, kislород yetishmasligi, tebranish, gipodinamiya ta’siriga bardosh berish qobiliyati

kiradi.

Chayqalish ta'siriga bardosh berish qobiliyati organizmning samolyot, vertolyot, jangovar mashina, transport vositasi kabi ob'ektlar tegishli makonda harakatlanayotganida yuzaga keladigan mexanik qo'zg'ovchilar ta'siri va tezlik o'zgarishiga chidamlilagini anglatadi.

Ushbu qobiliyat bosh va gavda muvozanatini idora qiladigan organga ta'sir o'tkazadigan jismoniy mashqlar, xususan: maxsus sport snaryadlarida bajariladigan mashqlar hamda akrobatika va gimnastika mashqlari vositasida rivojlantiriladi.

Muvozanat saqlash mashqlarining asosiy omili tananing umumiy og'irlilik markazi tayanch maydoni usdida bo'lishidadir. Tayanch maydoni qanchalik katta bo'ib og'irlilik markazi kichik bo'lsa shunchalik muvozanat turg'un bo'ladi.

Qomatni shakllantiruvchi muvozanat mashqlari katta ahamiyat kasb etib, ularni bajarish natijasida bel mushaklarining shu bilan birga butun tananing tonusi oshadi.

Muvozanat saqlash mashqlari yerda va ko'tarilgan tayanchda, joyda va harakatda bajariladi. Gimnastika mashg'ulotlarida maxsus muvozanat saqlash mashqlari ko'pincha ko'tarilgan tayanchda bajariladi

Turgan joyda muvozanat saqlash mashqlari oyoq uchida, tovonda, bir oyoqda turli-xil turishlar, kichik tayanchda qo'llar, oyoqlar, tana harakatlarida. Bu mashqlar yerda va ko'tarilgan tayanchda bajarilishi mumkin. Bunga tizzada tayanib turish holatida qo'llarni harakatlantirish, qo'l yordamida va yordamisiz o'tirish holatiga o'tishni misol qilib olish mumkin. Ko'tarilgan tayanchda bundan tashqari past holatdan yuqori holatga yoki uni aksida shu jumladan yotish, o'tirish holatlaridan turli-xil o'tishlarni bajarish.

Harakatda muvozanat mashqlari turli-xil yurishlar, yugurib harakatlanishlar kiradi. Bu guruhdagi ko'p mashqlar qo'llar va tana bilan qo'shimcha harakatlanib yurishlar, to'xtashlar bilan, egilishlar va burilishlar bilan bajariladi. To'siqlardan oshib o'tib yurish mashqlari katta ahamiyat kasb etadi. To'sin ustida muvozanatni saqlash mashqida tortilgan arqon, to'ldirilgan koptok yoki yog'och to'siq bo'lishi mumkin.

Gimnastika mashg'ulotlari jarayonida jarohatlanish holatlarining oldi olinishiga mashg'ulotlarning to'g'ri va puxta tashkillashtirilishi hamda gimnastik mashqlar o'zlashtirilishining uslubiyatiga so'zsiz amal qilinishi;

mashg'ulot jarayonida yuksak harbiy intizom saqlanishi, shaxsiy tarkib o'quv joylarida xulq-atvor qoidalariga amal qilishi;

tahsil ko'rayotganlarning yoshi, jismoniy rivojlanganlik darajasi va funksional holati inobatga olinishi;

shaxsiy tarkibning xavfsizlikni ta'minlash va o'zini ehtiyyot qilish usullari hamda jarohatlanish holatlarining oldini olishga doir talablarni puxta o'zlashtirganligi;

sakrash, akrobatika mashqlari, gimnastik snaryadlarda bajariladigan mashqlar

davomida yordam ko‘rsatilishi va xavfsizlik ta’minlanishi;

xavfsizlik qoidalariga amal qilinayotganligi ustidan mashg‘ulot rahbari tomonidan muntazam nazorat olib borilishi;

maxsus snaryadlarda bajariladigan mashqlar davomida qo‘l va oyoqlarning ishonchli mahkamlanganligi tekshirib borilishi;

gimnastik snaryadlar, trenajyorlar, jihozlarning texnik holati o‘z vaqtida tekshirib borilishi;

harbiy kiyim, sport kiyimi, poyafzal va anjom-aslahalar shaxsiy tarkib tanasiga to‘g‘ri keltirilishi bilan erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, kursantlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda gimnastikaning roli juda muhim bo‘lib, mashg‘ulotlarda maxsus mashqlarni bajartirish uslublarini qo‘llash, shu bilan birga gimnastik snaryadlarda bajariladigan mashqlarning bajarish texnikasi, o‘rgatish usullari va yo‘l qo‘yilgan hatolarni tuzatish usullari, kursant va tinglovchilarining “jismoniy tayyorgarlik” fanidan mashg‘ulot jarayonida va sport ishlari jarayonida shakllanadi. Shu bilan birga maxsus gimnastik snaryadlarda bajariladigan jismoniy mashqlar va mashg‘ulotlar jarayonida shikastlanish va jarohatlarni oldi olinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xaydarov A.A., Tuxtanazarov B.S. O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligi qo‘sishinlarida jismoniy tayyorgarlikni tashkillashtirish va olib borish buyicha qullanma O‘quv qo‘llanma/ Xaydarov A.A., Tuxtanazarov B.S. -Toshkent: 2020. - 191 b.

2. Avazmatov X.K. Gimnastika. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – T.: QK Akademiyasi. 2022. – 54 b

3. Azizova R. “Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma., / R. Azizova. – Toshkent: O‘R Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2010. - 107 b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047823>

## РОЛЬ ЛЕКСИКОЛОГИИ В ГРАММАТИКЕ РУССКОГО ЯЗЫКА

**Панжиева Курбоной Тожиддиновна**

ШАХРИСАБЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ, Студентка второго курса РТ 3-22 группа «Русский язык в группах  
иностранных языков».

**Тиллаева Муяссар Ербазаровна**

Старший преподаватель Шахрисабзского государственного  
педагогического института

**Аннотация:** В статье рассматривается роль лексикологии в науке, которая считается основной отраслью лингвистики, а также все ее положения и функции грамматического права. Указываются положения о слове и его свойствах, однозначных и многозначных словах, прямом и переносном значении слов, о видах слов по форме и значению.

**Ключевые слова:** слово, лексические значение, однозначность, многозначность, омоним, синоним, антоним, пароним, общеупотребительные слова, устаревшие слова.

**Annotation:** the article examines the role of lexicology in science, which is considered the main branch of linguistics, as well as all its provisions and functions of grammatical law, the provisions on the word and its properties, unambiguous and ambiguous words, figurative and direct meaning of words, types of words in form and meaning are indicated.

**Keywords:** word, lexical meaning, unambiguity, ambiguity, homonym, synonym, antonym, paronym, commonly used words, obsolete words.

Лексикология (от греч. *lexis* - слово, *logos* - учение) - раздел науки и языке, изучающий лексику в ее современном состоянии и историческом развитии.

Лексика (от греч. *Lexikos* - словесный, словарный) словарный состав языка. Лексика - это совокупность слов, входящих в состав того или иного естественного языка. В раздел "Лексика" включены следующие понятия: слово,

лексическое и грамматическое значения слова, многозначность, омонимы, синонимы, антонимы, паронимы, общеупотребительные слова. Теперь рассмотрим грамматические закономерности этих терминов.

Лексическим значением слова называется закрепления в сознании говорящих соотнесенность звукового комплекса языковой единицы с тем или иным явлением действительности. Слово- основная единица языка. Из слов состоят словосочетания и предложения. Слова отличаются друг от друга прежде всего звуковым составом и значением. Возьмём слова *стол, небо, картина*. Каждое из них имеет своё звучание и собственное (индивидуальное) лексическое значения. Слово называют предметы, людей, животных, птиц (*книга, писатель, волк, ласточка*), явления природы (*ветер, дождь*), различные действия (*бегать, писать*), различные признаки (*синий, точный*) и многое другое.

Лексические значения слов типа *дом, ручка, кукла* можно представить наглядно и показать рисунками. Однако в языке много слов и с таким лексическим значением, которое нельзя представить наглядно, например: *грамматика, искусство, и т. д.*

Однозначные и многозначные слова. Однозначный слова- это слова с одним лексическим значением, например: *герб* - отличительный знак государства или города, которой изображается на флагах, на монетах, печатах (*герба, гербу, мн. гербы, гербов*). Многозначные слова- это слова, имеющие двух или более лексических значений. Многозначных слов в языке больше, чем однозначных. В многозначных словах различают основное значение и вторичное. Так, прямое значение слова *павлин* - "птица из семейства фазановых с нарядным определением"; переносное - "человек, который пытается казаться важнее, чем есть на самом деле, и потому смешон".

Омонимы. Слово, одинаково звучащие, относящиеся к одной и той же части речи, но не имеющие ничего общего в своем лексическом значении, называются омонимами: *ручка- рука, ручка- письменная принадлежность*. Все омонимы подразделяются на группы по полному или неполному совпадению:

- звукового состава (*курится- курица*);
- графического изображения (*замок- замок*);
- грамматической нормы (*лечу людей- лечу высоко*).

Слова, совпадающие по звучанию, но не совпадающие по написанию, называются омофонами: *кот- код, лесть- лезть*.

Слова, одинаковые по написанию, но разные по звучанию, называются омографами: *мука- мука*.

Слова, совпадающие по написанию и звучанию только в некоторых грамматических формах, называются омоформами: *лайка- имя существительное*,

женский род, в им. п., ед. ч. - *лай-ка* -глагол в повелительном наклонении, ед. ч., с частицей *-ка*;

Синонимы- слова, близкие или одинаковые по значению и относящиеся к одной части речи, но различные по своему звучанию: *ярко-светло-красочно, красивая-симпатичная-приятная-ослепительная*. Группа слов состоящая из нескольких синонимов, называется *синонимическим рядом (или гнездом)*. Синонимические ряды могут состоять как из разнокорневых, так и из однокорневых, так и из синонимов: *лицо-лик, рыбак-рыболов, рыбарь*.

Антонимы- слова, противоположные по значению и относящиеся к одной и той же части речи: *плюс-минус, хорошо- плохо*.

Антонимы заключают в себе противоположные оттенки смысла, поэтому встречаются у слов, значения которых соотносительны:

- по качеству: *умный-глупый*;
- по количеству: *много-мало*;
- по чувству: *любить-ненавидеть*;
- по размеру: *широко- узко*;
- по возрасту: *старше - младше*;
- по направлению: *войти-выйти*;
- по времени: *поздно-рано*;
- по природным явлениям: *восход- закат*.

Не имеют антонимов имена существительные с конкретным значением: *стул, дерево*; имена существительные, обозначающие термины: *ромб, тычинка*; большинство имен прилагательных, обозначающих цвета: *фиолетовый, бурый*; имена числительные: *семьсот тридцать два*; большинство местоимений: *я, она, никто*.

Паронимы- это однокорневые слова, близкие по звучанию, но не совпадающие в значениях: *подпись- роспись, одеть- надеть, главный-заглавный*. Паронимы, как правило, относятся к одной части речи и выполняют в предложении аналогичные синтаксические функции. Учитывая особенности словообразования паронимов, можно выделить следующие группы.

1. Паронимы, различающиеся приставками: *опечатки- отпечатки*;
2. Паронимы, различающиеся суффиксами: *безответный-безответственный*;
3. Паронимы, различающиеся характером основы: один имеет непроизводную основу, другой- производную. При этом в паре могут быть:
  - а) слова с непроизводной основой и приставочные образования: *рост-взрасть*;
  - б) слова с непроизводной основой и бесприставочные слова с суффиксами: *тормоз- торможение*;

в) слова с непроизводной основой и слова с приставкой и суффиксом: *груз-нагрузка*.

Лексика с точки зрения ее употребления. К общеупотребительным (или нейтральным) словам относят известную большинству людей и употребляемую всем населением лексику, а к не общеупотребительным словам - ту лексику, которая известна не всем людям, говорящим на данном языке: это диалектизмы, профессионализмы, жаргонизмы, устаревшие слова, неологизмы, поэтизмы, варваризмы, интернационализмы, экзотизмы, арготизмы.

Устаревшие слова делятся на историзмы и архаизмы. Историзмы- это слова, обозначающие предметы или явления действительности, которые ушли из современной жизни. Вместе с уходом предмета или отмиранием явления из нашего употребления выпадают называвшие их слова: *лакей, поручик*. Они используются в учебниках истории, в исторических романах для создания колорита эпохи и в активном словаре синонимов не имеют. Архаизмы- это слова, обозначающие предметы или явления, которые существуют в современной жизни, но имеют другие названия. Например: *сей-этот, давеча-недавно*.

Неологизмы, то есть новые слова, появляются в языке, чтобы обозначить какое-то новое явление в жизни. Неологизмы являются еще не ставшими привычными наименованиями соответствующих понятий. Примерами неологизмов нашего времени могут служить слова: *хемис, кредит-модуль, блогер, тиктокер*.

Короче говоря, наиболее изменяющимся и обогащающим слоем среди языковых слоев является лексический слой. Обогащение лексического пластика происходит за счет неологизмов и литературизации диалектных слов. Широкое использование неологизмов и их правильное применение – одна из важных задач молодых лингвистов.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Д. Э. Розенталь, И. Б. Голуб, М. А. Теленкова. Современный русский язык. – 11-е изд. –М.: Айрис-пресс, 2010.;
2. М.В. Панов. Изучение состава слова в национальной школе. Учебное пособие. Москва. 2001.;
3. Е. С. Антонова, Т. М. Воителева. Русский язык и культура речи. Учебник. Москва Издательский центр «Академия» 2007.;
4. А. А. Реформатский. Введение в языковедение. Издательство «Аспект Пресс» Москва.
5. Книга " Русский язык " учебное пособие -( Т. Кельдиев ). Ташкент-2019 г.
6. ;2. Книга " Современный русский язык " -( Л. Раҳматуллаева, Ш. Махкамов ). Ташкент -2007 г.;
7. Книга " Русский язык " универсальное пособие ( Абдурахманова Шоҳсанам ). Ташкент -2021 г.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047886>

## TA'LIM VA TARBIYA BERISH JARAYONIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASHDA MOTIVATSİYASINING O'RNI

O.E.Azizov

JizPI, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.

[obidazizov8515@gmail.com](mailto:obidazizov8515@gmail.com)

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada ta'lif jarayonining samaradorligiga affiliatsiya motivatsiyasini ta'siri, keljakda o'quvchi yoshlar kommunikativ muvaffaqiyati hamda kasbiy kompetenligini belgilab beruvchi affiliatsiya motivni shakllantirish bo'yicha nazariy tavsiyalar berilgan.

Maqoladan pedagogik jarayonida kasbiy o'z-o'zini anglashining tarkib toptirish bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

*Kalit so'zlar:* Affiliatsiya, muloqot, his-tuyg'u, muloqot, avtoritar usul ehtiyoj, ijtimoiy muhit, pedagok, qobiliyat, individual, o'spirin, kommunikativ qobiliyat, kognitiv, hissiy-emotsional jihatlar.

Biz bilamiz-ki, ta'lif jarayoni ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchini bir umumiy maqsad yo'lida birlashtirib, ularni ta'limda yuksak ko'rsatkichlarga erishishni rejalashtirib faoliyat yuritish ifodasidir. Bunday jarayonda ta'lif oluvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini mukammal tarkib toptirish ushbu sohaning dolzarb muammolaridandir.

Psixologiya fanidan ma'lumki, odam o'zi istagan, ko'ngli tortgan ishni qilsa, doim kayfiyati zo'r, mehnat unumdarligi yuqori, yon-atrofdagilar bilan yaxshi muomalada bo'ladi. Ijtimoiy psixologiyada bu mavzu ko'plab izlanishlarda o'z isbotini topgan.

Bu borada ko'plab tadqiqot ishlarini olib borgan X.Xekxauzen affiliatsiyani muloqotga ehtiyoj doirasida o'rgangan bo'lib, uning ta'kidlashicha, affiliatsiya har kunlik, lekin shuning bilan birgalikda fundamental xarakterga egadir. U o'zidan psixik hodisa, motiv, mayl, xohish, boshqa odamlarga intilishni namoyon etadi. Uning asosida muloqotni amalga oshiruvchi inson emotsiyal va ishonchli aloqalarga bo'lgan ichki ehtiyoj namoyon etadi. Odatda, u yaqin munosabatlar o'rnatishga intilish, har ikkala tomonga qoniqish olib kelish maqsadidagi muloqot jarayoni, birgalikdagi harakatlar majmui ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu ehtiyojning maqsadi turlicha

bo‘lishi mumkin va hatto bir-birini rad etuvchi (yaqin munosabatlarga erishish yoki suhbatdoshdan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanish) ko‘rinishda ham kelishi mumkin<sup>1</sup>.

Affiliatsiya (ingliz tilidan. affiliation – muloqat, qo‘silish) - shaxsning boshqa odamlar bilan hissiy aloqasi, o‘zaro qabul qilish va moyillik bilan tavsiflanadi; ba’zi hollarda bu atama aloqaga bo‘lgan ehtiyojni, qabul qilishni va o‘zaro bog‘lanish istagini bildirish uchun ishlataladi. Psixologiyada bu atama insonning jamiyatga qo‘silishi, do‘stona munosabatlarni o‘rnatalishi va shu kabi boshqa ma’nolarda qo‘llaniladi. Agarda bu ehtiyoj bloklangan bo‘lsa, begonalashish, yolg‘izlik seziladi, umidsizlik paydo bo‘ladi. Affilyatsiyaga misol qilib: Odamlar ko‘pincha haqiqiy histuyg‘ularini yashiradi. Ular ishda, kundalik hayotida niqob kiyib, o‘z tashvishlarini sheriklaridan yashiradi. Buning barchasi zaif muloqotga, keyin esa yolg‘izlikka olib keladi. Ochiqroq bo‘lishi uchun siz o‘zingizning his-tuyg‘ularingizni tushuntirishingiz, ularni qanday boshqarishni o‘rganishingiz, o‘zingizga bo‘lgan ishonchingizni oshirishingiz kerak. Bunday fazilatlarning rivojlanishi jamiyatda qabul qilinishga, ijtimoiy hayotda martabangiz oshishiga sabab bo‘ladi.

A.Megrabyan affiliatsiya motivini ikkiga ajratadi: affilyatsiya ehtiyoji va rad etilishdan qo‘rqish-muloqot o‘rnatmaslik. Affilyatsiya ehtiyoji yuqori bo‘lgan insonlar muloqotga tez kirishib ketadi. Ko‘plab tadqiqotlarda shu ma’lum bo‘ldiki jamiyatimizda rad etilishdan qo‘raqadiga insonlarning ham soni kam emas ekan. Bu toifaga kiradigan insonlar shunday fikirlashadi: “Men insonlar doirasiga qo‘silsam ular meni nazarlaridan chetta qoldirishadi, shu sababli mening o‘zim chetga chiqishim kerak”. Bunday insonlar muloqat o‘rnatmaslikni yoki rasmiy muloqat qilishni afzal ko‘rishadi. Affiliatsiya ehtiyoji erta bolalik davrida ota-onasi va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabatda shakillana boshlaydi. Ota-onalarning har doim birinchi ustozini hisoblanadi. Shu sababli ota-onalarning yoshligidan u bilan doimo muloqatda bo‘lsa, bolada affiliatsiya kuchli rivojlanadi va begona insonlar davrasida ham o‘z fikirlarini bemalol bayon eta oladi.

Bog‘cha va maktabdagagi tarbiyachi va o‘qituvchilar bolada affiliatsion munosabatlarni shakillantirish uchun ularni ko‘proq jamoa bilan ishlashga jalg qilishi kerak. Bilamizki bola bo‘gchaga 3 yoshdan boshlab boradi. Bola bog‘chaga kelganida uning ijtimoiy muhit o‘zgarishi natijasida ba’zi bolalarda ijobiy, ba’zilarida salbiy o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Salbiy o‘zgarishlar bolada yangi tengdoshlarining davrasiga qo‘sila olmasligi va shu kabi boshqa holatlar kiradi. Bunday holatni bartaraf etish uchun tarbiyachi bolani jamoaga qo‘suvchi ko‘plab o‘yin mashg‘ulotlarini

<sup>1</sup> Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность, т.1. – СПб.: «Питер», 2003. -С. 347-370; Buunk B. Affiliation and helping interactions within organizations: a critical analysis of the role social support with regard to occupation stress. // InStroebe W., Hewstone M. European Review of Social Psychology. – Chichester: John Wiley, 1990, 1. P. 293-322.

amalga oshirishi kerak. Maktab davrida esa bolalar o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga o‘tadi. Bu esa o‘quvchilarda qiyin kechadi. Shu sababli pedagog o‘qituvchi bolalarga yordam berishi va ular bilan ko‘proq affiliatsiya qilishi kerak.

Affiliatsiya - biz foydali deb baholaydigan va o‘zaro munosabatlardan foyda oladigan, o‘z navbatida bizdan foydalangan holda ular foyda oladigan vaziyatlarda o‘rnatiladi. Ya’ni bunday munosabatdan o‘qituvchi ham o‘quvchi ham manfaat ko‘rishi kerak. Misol uchun: O‘qituvchi biror o‘quvchini shogirtlikka olsa, o‘quvchisiga bergen bilimlarining mahsulini ko‘rishi kerak. Bu yerda o‘quvchining olayotgan yutug‘i bilim hisoblanadi.

5. Худайбергенова, П. Т. "ЎЗБЕКОНА ТУРМУШ ТАРЗИДА БЎШ ВАҚТДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 2.11 (2023): 51-55.
6. Мухамедова, Замира Мухамеджановна, and Патма Ташпулатовна Худайбергенова. "ОТНОШЕНИЯ ВРАЧ-ПАЦИЕНТ В МЕДИЦИНСКОЙ ЭТИКЕ АЛ РУХАВИ И АЛ РАЗИ." *Гуманитарный трактат* 21 (2018): 35-37.
7. Khudaybergenova, R. T. "UZBEKISTAN: ETHNO CULTURAL IDENTITY AND TOLERANCE UNDER CONDITIONS OF GLOBALIZATION." *Социосфера* 4-2 (2013): 52-54.
8. Худайбергенова, П. Т. "БУГУНГИ КУНДА ЁШЛАРНИНГ ОНГИ ВА ҚАЛБИНИ ЭГАЛЛАШДА ИНТЕРНЕТ ОРҚАЛИ КИЛИНАЁТГАН МАФКУРАВИЙ ХУРУЖЛАР." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.2 (2023): 683-687.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049126>

## ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР БИЛАН СИЁСИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИ

Доцент, **Худойбергенова Патма Тошполатовна**

Тошкент давлат стоматология институти

Ижтимоий фанлар биоэтика курси билан кафедраси

фалсафа фанлар номзоди,

E-mail .fotima.1964@gmail

**Махмудалиев Самандар Сирожиддин ўғли**

Тошкент Давлат стамотология институти талабаси

**Ключ сузлари:** сиёсий, иқтисодий, давлатлараро, автомобилсозлик, халқ. Инвестиция, тинчлик, барқарорлик, хавфсизлик.

Ўзбекистон Республикаси биринчи навбатда Яқин ва Ўрта Шарқ хамда араб мамлакатлари билан давлатлараро муносабатларни ўртаниш ва ривожлантиришга киришди.

1991 йил 16-19 декабр кунлари Ўзбекистон делегацияси Туркияда бўлди. 1992 йил 28 апрелда Ўзбекистонда Туркия элчихонаси очилди. Ўзбекистонда Туркия сармоядорлари иштирокида 200 дан ортиқ қўшма корхоналар барпо этилди. 1996 йил июн ойида Ўзбекистон автомобилсозлик корхоналари асоссияцияси – “Ўзбексаноат”, “Туркияning “Кочхолдинг” концерини билан Самарқанд шаҳрида “Самкочавто” ўзбек-турк қўшма корхонасини барпо этиш тўғрисида шартнома туздилар.

1992-йил 27-28 июн кунлари Покистон Ислом Республикаси бош вазири Ўзбекистонга расмий ташрифи икки давлат ўртасидаги алоқаларга асос солди. Хозирги кунга қадар Ўзбекистонда Покистон сармоядорлари иштирокида 120 та қўшма корхона тузилган Табаний, Меркурий, Метро, Лаксан Табако каби 19 та йирик фирма ва крмпаниялар фаолият кўрсатмоқдалар. Ўзбекистондан Покистонга пилла шойи матолар, шиша, виллур эксперт қилинмоқда. Покистон эса тайёр кийимлар пояфзал, чарм буюмлар какао ва шакар келтирмоқда.

1992 йил 24-25- ноябр кунлари Президентимиз Эрон Ислом Жумхуриятига расмий давлат ташрифи Ўзбекистон ва Эрон ўртасида давлатлараро алоқаларга асос солди.

Ўзбекистон Хитой халқ Республикаси билан ҳам иқтисодий маданий алоқалар олиб бормоқда 1992 йил январ ойида Тошкентда Хитой элчихонаси очилди. 2004 йилга келиб ўзаро савдо ҳажми 134 минг АҚШ доллирига етди.

1992-1996-йилларда «ЎзДЕУ авто» Ўзбекистон-Жанубий Корея қўшма автомобил заводини лойиҳалаштириш, қуриш ишлари амалга оширилди. Завод 1996-йил 25-март куни автомобиллар ишлаб чиқаришни бошлаб юборилди. Шундай қилиб, Ўзбекистоннинг Корея республикаси билан ҳамкорлиги кенгайиб бормоқда. 1999-йилга қадар Ўзбекистоннга Кореядан 1,2 млд. АҚШ доллари ҳажмида сармоя кириб келди ва ўзлаштирилди. Ўзбекистонда 70 дан ортиқ Корея ҳамкорлигига барпо этилган қўшма корхоналар фаолият кўрсатмоқда. Икки мамлакат ўртасидаги товар айирбошлиш ҳажми 1997-йилдаёқ 1 млрд. АҚШ долларидан ошди. Япония Ўзбекистоннинг АҚШ билан савдо айланмаси 300 млн. АҚШ доллардан ошди. Ўзбекистоннинг Европа иттифоқи мамлакатлари билан сиёсий, иқтисодий, илмий-техник ва маданий-гуманитар алоқалари йилдан-йилга ривожланиб, чуқурлашиб бормоқда. Республикамизда Европа Иттифоқига аъзо малакатларнинг 145 фирма ва компанияси ваколотхоналари аккредитация қилинди. Европалик сармоядорлар иштирокида ташкил этилган 491 та корхона ишлайти, улардан 111 таси 100% лик Европа капиталига эга. 1995-2002-йилларда Европа Иттифоқи мамлакатларнинг фирма ва компаниялари республикамизда умумий қиймати қарийб 8 млрд. АҚШ долларига тенг йирик сармоявий лойиҳаларни амалга оширишда қатнашди. 2002-йилда Ўзбекистоннинг Европа Иттифоқ мамлакатлари билан маҳсулот айирбошлиш ҳажми 1 млрд. 65,8 млн. АҚШ долларини, 2003-йил январ-октябр якунлари бўйича эса 910, 6 млн. АҚШ долларини ташкил этди.

2003-йилда республикамизда хорижий сармоя иштирокида барпо этилган 2087 та қўшма корхона жаҳондаги 80 мамлакатдан келган шериклари билан биргалиқда фаолият кўрсатди. Улар 386,7 млрд. сўм ҳажмда истеъмол моллари, экспорт учун сифатли товарлар ишлаб чиқарди, аҳолига хизмат кўрсатди. Жаҳондаги 80 дан ортиқ хорижий банк билан ўзаро муносабатлар ўрнатилган. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон га киритилган чет эл инвестициялари 14 млрд. АҚШ долларидан ошди. Бир йилда таҳминан 1 млрд. АҚШ доллари ўзлаштирилмоқда. Ўзбекистон жаҳондаги 140 мамлакат билан савдо-сотик қилмоқда. Ҳар йилги товар айирбошлиш ҳажми 6-8 млрд. АҚШ долларини ташкил этмоқда. Илғор мамлакатлар кадрлар тайёрлаш, банк соҳасида ва бошқарувда, ахборот тармоқларини йўлга қўйишда, етакчи

биржалар билан алоқалар ўрнатишида қонунчилик тажрибасини ўрнатишида республикамизга кўмаклашмоқдалар.

Сўнгти йилларда Ўзбекистон ички сиёсатида кузатилаётган кенг қамровли ислоҳотлар, очиқлик ва янгиланишлар, мамлакатнинг ташқи сиёсатида ҳам яққол намоён бўлмоқда.

Жаҳон бўйлаб тарқалган коронавирус инфекцияси ва глобал даражадаги инқирозли хавф-хатарлар даврида ҳам Ўзбекистон мамлакатда ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлаб, минтақа давлатлари ва жаҳон ҳамжамияти билан ҳамкорлик алоқаларини давом эттиришга алоҳида этибор қаратди.

Маълумки, Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг асосий вазифаларидан бири – ўз худуди атрофида тинчлик, барқарорлик ва хавфсизлик муҳитини шакллантириш ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, Президент Шавкат Мирзиёев қўшниларимиз – Марказий Осиё давлатлари билан дўстона, яқин қўшничилик ва ўзаро манфаатли алоқаларни ривожлантириш ва мустаҳкамлашни асосий устувор ташқи сиёсий йўналиш сифатида белгилаб берди. 2020 йил – “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” Давлат дастури доирасида Ўзбекистон очик ва прагматик ташқи сиёсий фаолиятини, жумладан, Марзий Осиё йўналишида ҳам изчил давом эттируди.

Марказий Осиё минтақасидаги мамлакатлар билан барча соҳаларда ўзаро дўстлик, яхши қўшничилик ва стратегик шериклик руҳидаги муносабатларни сифат ва мазмун жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиши борасида 2020 йил давомида ташқи сиёсий ва иқтисодий фаолият бўйича давлат идораларитомонидан 23 та олий даражада ва 12 та юқори даражада ташриф ва турли тадбирлар амалга оширилди. Бу жараёнда “халқ дипломатияси” амалда жуда фаол бўлгани кузатилди. Хусусан, халқ вакиллари – олимлар ва рассомлар, маданият ва дин арбоблари, ишбилиармонлар ва ёшлар, туризм ва спорт ташкилотлари, жамоат бирлашмалари ва нодавлат ташкилотлар иштироқида 90 дан ортиқ турли учрашувлар, анжуманлар, видеоконференциялар ва бошқа шу каби тадбирлар ўтказилди. Қайд этиш жоизки, сўнгти йилларда Президент Шавкат Мирзиёев ташаббусларини қўшни давлатлар раҳбарлари томонидан қўллаб-қувватланиши натижасида Марказий Осиёда сиёсий мулоқот ва ўзаро ишонч мустаҳкамланди, давлат раҳбарларининг маслаҳатлашув учрашувлари йўлга қўйилди.

Натижада минтақадаги икки ва қўп томонлама ҳамкорлик даражаси янги босқичга кўтарилди. Хусусан, 2017-2019 йиллар давомида Марказий Осиё мамлакатлари билан савдо айланмаси йиллик ўртacha 50 фоиздан кўпроққа ўсиб, 5,2 млрд. долларга етган. 2020 йил натижаларига кўра эса, глобал

пандемия шароитига қарамай, Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари билан савдо айланмасининг умумий ҳажми 5 млрд. долларни ташкил этди. Жумладан, Ўзбекистоннинг умумий ташқи савдо айланмасида Марказий Осиё давлатларининг улуши 2019 йилдаги 12,4% дан, 2020 йилда 13,6 % га ошган. Ўзбекистоннинг минтақадаги умумий ташқи савдо айланмасида эса Қозоғистоннинг улуши 61%, Қирғизистон – 18,2%, Туркманистон – 10,6% ва Тожикистоннинг улуши 10,2% ни ташкил этди. Мавжуд “Марказий Осиё – АҚШ”, “Марказий Осиё – Европа иттифоқи”, “Марказий Осиё – Корея Республикаси”, “Марказий Осиё – Япония” каби муроқот форматлари қаторига охирги йилларда “Марказий Осиё – Ҳиндистон”, “Марказий Осиё – Хитой” ва “Марказий Осиё – Россия Федерацияси” сингари янги форматлар қўшилди. Мазкур ҳолат, биринчидан, минтақадаги ижобий ўзгаришлар натижасида юзага келган мутлақо янги муҳит дунёнинг етакчи давлатлари томонидан Марказий Осиёга нисбатан эътиборнинг ошганини кўрсатса, иккинчидан, чет эл давлатлари минтақа мамлакатлари билан нафақат икки томонлама ҳамкорлик доирасида, балки ягона минтақавий кўп томонлама муносабатларни ривожлантиришга аҳамият қаратаётганидан далолатdir.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Gapparovna, Sattorova Dildor, and Xudaybergenova Patma Toshpulatovna. "IMPROVING THE QUALITY OF MEDICAL SERVICES IN IMPROVING THE GENE POOL OF THE POPULATION IN OUR COUNTRY." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 9.10 (2021): 138-141.
2. Худойбергенова, Патма Тошпулатовна. "КАЧЕСТВА НЕОБХОДИМЫЕ ДЛЯ ВРАЧЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДОВЕРИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ ПАЦИЕНТА К ВРАЧУ." *Новости образования: исследование в XXI веке* 1.5 (2022): 646-648.
3. Худайбергенова, Патма Ташпулатовна. "ОБРАЗ МАВЛОНО ДЖАЛОЛИДДИНА РУМИ В КОНТЕКСТЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ ВОСТОКА И МУСУЛЬМАНСКОЙ БИОЭТИКИ." *Гуманитарный трактат* 33 (2018): 28-30.
4. Умарова, Дилорам Арифовна, and Патма Ташпулатовна Худайбергенова. "РОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В РЕШЕНИИ ПРОБЛЕМ ГУМАНИЗАЦИИ МЕДИЦИНЫ." *Гуманитарный трактат* 97 (2020): 25-28.

5. Худойбергенова, П. Т. "ЎЗБЕКОНА ТУРМУШ ТАРЗИДА БЎШ ВАҚТДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 2.11 (2023): 51-55.
6. Мухамедова, Замира Мухамеджановна, and Патма Ташпулатовна Худайбергенова. "ОТНОШЕНИЯ ВРАЧ-ПАЦИЕНТ В МЕДИЦИНСКОЙ ЭТИКЕ АЛ РУХАВИ И АЛ РАЗИ." *Гуманитарный трактат* 21 (2018): 35-37.
7. Khudaybergenova, P. T. "UZBEKISTAN: ETHNO CULTURAL IDENTITY AND TOLERANCE UNDER CONDITIONS OF GLOBALIZATION." *Социосфера* 4-2 (2013): 52-54.
8. Худойбергенова, П. Т. "БУГУНГИ КУНДА ЁШЛАРНИНГ ОНГИ ВА ҚАЛБИНИ ЭГАЛЛАШДА ИНТЕРНЕТ ОРҚАЛИ КИЛИНАЁТГАН МАФКУРАВИЙ ХУРУЖЛАР." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.2 (2023): 683-687.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049450>

## СКЛОНЕНИЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В НАРОДНОЙ ЛАТЫНИ И В ПЕРВЫЙ ПЕРИОД СТАРОФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА (ДО 1100 Г.)

Турсунова Мадина

магистрант ФерГУ

2-курс лингвистики французского языка

### ***АННОТАЦИЯ***

*В этой научной статье выражено изучение истории склонения существительных в народной латыни и в первый период старофранцузского языка (до 1100 г.). В статье представлено эволюция и изменения французских существительных в течении веков истории французского языка с примерами.*

**Ключевые слова:** имя существительное, род, склонение, падеж, народный латынь.

### ***ABSTRACT***

*This scientific article expresses the study of the history of noun declension in folk Latin and in the first period of Old French (before 1100). The article presents the evolution and changes of French nouns over the centuries of the history of the French language with examples.*

**Key words:** noun, gender, declension, case, folk Latin.

### **ВВЕДЕНИЕ**

В старофранцузском языке, за некоторыми исключениями, различаются только существительные мужского и женского рода; что касается среднего рода, то они широко распространены в этих двух категориях. Это явление восходит по своим истокам далеко во времена латыни. Оно основано на аналогии и обусловлено, прежде всего, внешней формой и, кроме того, значением слов и

словоформ, которые мы собираемся изучать. Явление, которое мы наблюдаем в первую очередь, представляет собой прогрессивный переход многочисленных существительных среднего рода из второго латинского склонения на -um (лат. vulg. -u) в соответствующие мужские существительные, различающиеся только существительным. петь., и во имя. и соотв. пл.

## ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Немногие слова среднего рода четвертого латинского склонения присоединяются к словам среднего рода второго латинского склонения. К этой категории принадлежит лат. vulg. cornus (рога ПВР).

1) Значительно позже мужской род взяли средние рода третьего склонения, такие как пепер (кл. piper), cor, fel, flume (кл. flumen), ном (кл. nomen), pectus, tempus.

Примечание. Для радикалов среднего рода в s. Маре стала женственной, несомненно, под влиянием Терры.

2) Определенное количество множественных чисел среднего рода, часто употребляемых с часто собираемым значением, таких как folia, Vela, Animalia, Battalia, Festa, Labra, Poma, Pera ensegna, corna, принимаемые за единственное число, присоединяются к женскому роду в -a, который согласен с ними по окончанию имени. петь, а также тем акк. петь, после приглушения финального m. Так folia, листва, вела, парус, лабра, губы приобрели значение листа, вуали, губы, и это затем образовалось, согласно формам в -a, принятом за единственное число, новое множественное число в -ак.

## РЕЗУЛЬТАТЫ

3) Во многих случаях форма единственного числа и форма множественного числа латинского среднего рода привели к образованию двух самостоятельных слов, одно из которых вошло в класс мужского рода, а другое — в класс женского рода, р. бывший. велу — вуаль рядом с вела — вуаль, брахиу — браз рядом с бракией — скобка, корну — кукуруза рядом с корной — рог, грану — зерно рядом с грana — семя, прату — готово рядом с прата — пред; и, кроме того, слова вфр. fueille рядом с feuille, dei рядом с deie, cervel рядом с cervelle и т. д.

4) Языковая трансформация, намеченная ранее от 1) до 3), обычно завершается в самый ранний период литературного периода французского языка. Однако мы можем отметить в старофранцузских текстах, как остатки более

раннего употребления, некоторые образования множественного числа, происходящие непосредственно от латинского среднего множественного числа: *cinque carre* (*carra*) и даже, в более поздний период, *deus doie*, цент-пара. *tuit aumaille* и т. д.

## ОБСУЖДЕНИЕ

Число склонений в народной латыни постепенно сократилось до трех, что примерно соответствует первому, второму и третьему склонениям литературной латыни. Два других включены: четвертое склонение, за немногими исключениями, во второе, пятое в первое и третье. Иногда при смене склонения образовывались и другие комбинации.

Первое склонение народной латыни включает только формы женского рода, за исключением нескольких заимствованных слов мужского рода в -а, обозначающих людей (*propheta*, *eremita* и др.) и вошедших во французский язык как научные слова. Они соответствуют:

- а) женской лат. кл. первого склонения, например, *corona*, *filia*, *causa*, *femina*;
- б) в некоторых случаях; к нейтрам. пл. лат. кл. принадлежащий второй вариант, с. бывший. *фолия*, *гауя* (кл. *gaudia*), *лабра*;
- в) к лат. женскому роду. кл. четвертого склонения *сокра* (кл. *socrus*), *нора* (кл. *nuras*);

## ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В популярной латыни эту трансформацию ускорило фонетическое падение передаваемых падежных форм.

Латинские падежи, кроме именительного и винительного, еще можно отметить во французском языке, в существительном, некоторые редкие обломки в стереотипных выражениях и в некоторых словоформах.

## ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Турсунова, М. (2024). ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ФРАНЦУЗСКОГО АКЦЕНТА И ЕГО ИЗМЕНЕНИЯ. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 88-91.
2. Турсунова, М. (2024). НАПИСАНИЕ И ПРАВОПИСАНИЕ В СТАРОФРАНЦУЗКОМ ЯЗЫКЕ. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 84-87.
3. Турсунова, М. (2024). ОРФОГРАФИЧЕСКИЕ И ЛЕКСИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ НАРЕЧИЙ В СТАРОФРАНЦУЗКАХ ПИСЬМЕННАХ ИСТОЧНИКАХ. *GOLDEN BRAIN*, 2(2), 136-139.
4. Турсунова, М. (2024). НАРЕЧИЕ И ЕГО ЛЕКСИЧЕСКО-СИНТАКТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В СТАРОФРАНЦУЗКОМ ЯЗЫКЕ. *GOLDEN BRAIN*, 2(2), 140-143.
5. Турсунова, М. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ НАРЕЧИЙ TEL И TOUT В СТАРОФРАНЦУЗКАХ ПИСЬМЕННАХ ИСТОЧНИКАХ XII И XIII ВЕКОВ. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 190-192.
6. Турсунова, М. (2024). ИСТОРИЯ ОРФОГРАФИИ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА И РЕФОРМЫ В ПРАВОПИСАНИИ ДО НАШЕГО ВЕКА. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 193-195.
7. Aebischer Verena & Forel Claire, Parlers masculins, parlers féminins?, Neuchâtel-Paris, Delachaux et Niestlé, 1983.
8. Armstrong Nigel, Bauvois Cécile, Beeching Kate & Bruynincks Marielle, La langue française au féminin. Le sexe et le genre affectent-ils la variation linguistique ?, Paris, L'Harmattan, 2003.
9. Claudio Galderisi et Jean-Jacques Vincensini. *De l'ancien français au français moderne. Théories, pratiques et impasses de la traduction intralinguale*. 2015, Brepols Publishers n.v., Turnhout, Belgium.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049579>

## BOBUR ASARLARIDAGI SOF TURKIY SO‘ZLARNING LEKSIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Shamsudinova Iqbol**

Ilmiy rahbar

**Fozilova Gulnora**

**Abdullayeva Shahnoza**

TerDu, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan turkiy so‘zlarning leksik va morfologik tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Boburnoma”, turkiy so‘z, forsiy so‘z, leksik, morfologik.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida mumtoz matnlar asosida ko‘plab tilga va badiiy adabiyotga oid qimmatli ma’lumotlar aniqlanganligi bilan muhim ahamiyatga egadir. “Boburnoma” asarida turli o‘lkalarining el – ulusi, ularning tarixi, etnografiyasi, tili singari behisob sohalarda ma’lumotlar jamlagan. Asarda qo‘llanilgan so‘zlarning ko‘pgina qismi arab va forsiy tildan o‘zlahsgan, sof turkiy so‘zlar nisbatan kamroq. Siz tanlash va ularni qo‘llash Bobur uslubida alohida o‘rin tutadi. Adib ba’zi o‘rirlarda shunday siz va iboralarni qo‘llaydiki, uning ma’nosini ijodkorning o‘sha damdagi kayfiyatidan yoki uning ayrim odamlar va hodisalarga bo‘lgan munosabatidan qidirishga to‘g‘ri keladi. “Boburnona” asari Boburni faqatgina turkiy tilni emas fors tilini ham xuddi shunday mukammal bilishini ko‘rsatib beradi.

1. Xo‘jand bila Konibodom orasida bir dasht tushubtur. Hamisha bu dashtga el borur.

{dasht} – biyobon, birlik shaklidagi ot.

{el} – bir joyning odamlari, aholisi, xalqi, umuman, ko‘pchilik odam, xaloyiq. O‘z lug‘aviy ma’nosidan ko‘plik ekanligi anglashilib turadi, ot so‘z turkumi.

2. Burunlar ko‘p ichar edi, so‘ngralar haftada bir – ikki qatla suhbat tutar edi.

{Burunlar} – ravishdosh, ilgari, ilgarigi, o‘tgan vaqtarda. Bu so‘z hozirgi adabiy tilda unchalik ham faol emas.

{qatla} – kam qo‘llaniladi. Marta, karra ma’nosida ishlataladi. (10 – bet)

3. Xon yurtida ekanda qo‘rg‘ondag‘ilar firib bila kishi yuborib, dedilarkim, kecha bila G‘ozi Oshiqon tarafiga kelingkim, qo‘rg‘onni berurbiz. (39 – bet)  
{xon} – tarixiy so‘z. Turkiy va mo‘g‘ul xalqlari hukmdori unvoni. Bu so‘z dastlab qan tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik so‘z boshlanishidagi q undoshi x undoshiga almashgan.  
qan – xan.  
{yurt} – ma’lum xalq, aholi yashab turgan joy.  
Sinonimlari: yurt, mamlakat, vatan.  
XIV asr oxiri XV asr boshlarida yu deb xon qarorgohidagi zodagonning joyi yoki xonning qarorgohi joylashgan yerga aytilgan. “Yu” atamasining uy, turar joy, manzilni anglatuvchi ahamiyati kuchaygan.
4. Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, Farzonai mo‘g‘ul tila bila qarshi derlar. (46 – bet).  
{ot} – ot qo‘ymoq, nom bermoq, atamoq.  
Sinonimlari: unvon, mansab, nom.  
- Zot, urug‘, shuhrat, dong, nomus, g‘urur ma’nolarida ham qo‘llaniladi.
5. Ul fursatga bir martaba behuzur bo‘lib, yaxshi bo‘lub edim. (50 – bet)  
{ul} – ko‘rsatish olmoshi, badiiy adabiyotda ko‘proq ul shaklida qo‘llaniladi.  
{behuzur} – (be+huzur) bezovta, halovatsiz, behuzur bo‘l fe’li tarkibida ishlatiladigan bu kesimlik “yo‘q” ma’nosini ifodalaydigan tojikcha “be” old qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan.  
{yaxshi} – ijobiy sifatga ega, kishiga yoqadigan, ma’qul bo‘ladigan. Bu sifat qadimgi turkiy tilda ham didga, xohishga mos, ma’qul bo‘l ma’nosini anglatgan “yaq” fe’lining “biroz” ma’nosini ifodalovchi -(i)sh qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan shaklidan -i qo‘shimchasi qo‘shilgandan keyin ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘yan, -sh undoshi ta’sirida uning oldidagi -q undoshi -x undoshiga almashgan.  
(DLT III) o‘zbek tilida -a unlisi -ä unlisiga almashgan, -i unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan:  
(yaq+ish= yaqish) + i = yaqishi – yaqshi – yaxshi – yäxshi.
6. Boysung‘ur mirzoning bu voqeasidan so‘ng Sulton Ahmad qorovul Kuchbekning otasi, og‘a – inisi, ko‘ch va mutaaliqlari bila Qorategin viloyatidin chiqib bizni deb keldi. (64 – bet)  
{qorovul} – (qo – ro – vul) biror ob’ yektni qo‘riqlovchi qurolli shaxs.  
Sinonimlari: pospon, soqchi.  
{ota} – farzandli, bola – chaqali er kishi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z “ata” tarzida talaffuz qilingan, o‘zbek tilida bu so‘z boshlanishidagi -a unlisi -â unlisiga, oxirdagi -a unlisi – ä unlisiga almashgan.  
ata – âtä

{og‘a} – eng katta aka. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “uzoq yasha” ma’nosini anglatgan -aq fe’lidan -a qo‘shimchasi bilan yasalgan. Aq + a = aqa keyinchalik ikki unli oralig‘idagi -q undoshi - g‘ undoshiga almashgan. O‘zbek tilida so‘z boshlanishidagi -a unlisi -â unlisiga, so‘z oxiridagi -a unlisi -ä unlisiga almashgan: aqa - ag‘a – âg‘ä.

{ini} – uka, o‘zidan yosh er kishiga, uni o‘ziga yaqin ko‘rib murojaat etish shakli.

7. Bu jihattin xazrat xotirig‘a nima kelmish. Mullo bobo mening sari boqib ishorat qiladur.

{bobo} – otaning yoki onaning otasi “buva”. Qadimgi turkiy tilda ba – ba tarzida talaffuz qilingan bu so‘z asli onaning otasi ma’nosini anglatgan, keyinchalik ma’noda kengayish voqe bo‘lib, otaning otasi ma’nosini ham anglata boshlagan. Qadimgi turkiy tildayoq – a unlisining cho‘ziqlilik belgisini yo‘qotgan. O‘zbek tilida -a unlilari -â unlilariga almashgan: ba:ba – baba – bâbâ.

So‘zlashuv nutqida bu so‘z “büva” tarzida aytildi.

8. O‘zbakning urushta bir ulug‘ hunari ushbu to‘lg‘amadur, xech urushi to‘lg‘amasiz bo‘lmas. (81 – bet)

{urusht} – qabilalar, davlatlar yoki ijtimoiy guruhlar o‘rtasida uyushgan qurolli kurash.

Paronimi: urish.

{ulug‘} – egallagan o‘rni, hajmi g‘oyat yirik, juda katta, ulkan, buyuk.

Antonimi: beqadr.

Sinonimi: qudratli, buyuk.

9. Bu mahalda Shayboqxon sulh so‘zini oraga soldi. Agar bir tarafdin umidvorlik bo‘lsa, yo zahira bo‘lsa, sulh so‘ziga kim quloq solur edi. (85 – bet)

{sulh} – kelishuv

Antonimi: kelishmovchilik, ziddiyat, tafovut.

Sinonimi: bitim, kelishuv.

{umidvorlik} – umidvor holat, umidli holatda bo‘lish.

10. O‘lim dag‘dag‘asi xotirdin rof bo‘lib, ochlik shiddati eldin daf bo‘ldi.

Umrumizda muncha farog‘at qilmaydur edik. (86 – bet)

{dag‘dag‘a} – hayajon, qo‘rqinch.

dag‘ + da + g‘a

Vahima yoki shovqin solib qilingan do‘q, po‘pisa.

{ochlik} – biror yeguliksiz och – nahor qolish.

Och + lik

Ot so‘z turkumi.

Sinonimi: to‘qlik.

{muncha} – bu qadar, bunchalik.

mun + cha

-b undoshining fonetik o‘zgarishi natijasida -m undoshiga aylanishi.

11. Xonning bu yurushi befoydarоq yurush edi, qo‘rg‘on olmoq va yog‘iy bosmoq yo‘q. (92 – bet)

{befoyda} – (be + foyda) manfaati, nafi yo‘q, foyda daromad keltirmaydigan, foydasiz.

be + foy + da – sifat

Antonimi: kerakli, foydali.

{yog‘iy} – dushman, qadimgi davrda asosan, Bobur zamonida dushmanga nisbatan “yog‘iy” so‘zi ishlatalilgan.

yo + g‘iy – ot

Antonimi: birodar, do‘st – yor

12. Kichik xon dadam ham yigirma to‘rt, yigirma besh yildurkim, muloqot qilmaydurlar, men ham ularni ko‘rgan emasman. (92 – bet)

{dada} – ota, padar.

da + da – ot

Dada kelib chiqishi da + adadan ma’nosи katta ada, ya’ni buva. Ushbu so‘zda – da uzvi bo‘lmasada, unda “katta, ulug“ ma’nosи ham ifodalanmaydi. Demak kattalik ma’nosи ayni uzvi orqali anglashilayotgani tabiiy. Ba’ zi aqrobolik otlaridagi -da uzvida ham “katta, ulug“ ma’nosи mujassam.

13. Bu ayyomda bovujudkim mundoq sho‘r va fitna qoyim bo‘ldi, Tanbal hanuz o‘ziga kelturmay. (95 – bet)

{ayyom} – kun, biror kun nishonlanadigan bayram.

ay + yom = ot

Sinonimi: bayram.

{mundoq} – ko‘rsatish olmoshi.

Varianti: bunday

{sho‘r} – 1. tuzli, tuzi ko‘p. 2. Iztirob, g‘alayon, azob – uqubat.

14. Xoqon arig‘i ulug‘ shoxjo‘ydir va chuqur oqar, har yeridan kechib bo‘lmas, tengru rost kelturdi, bu ariqning bir guzarig‘a to‘ppa – to‘g‘ri o‘q kelduk.

{xoqon} – qadimgi turkiy xalqlar va mo‘g‘ullar hukumatida yirik davlat boshliqlarining eng oliy unvoni va shu unvонни olgan shaxs.

Xo + qon = ot

{ariq} – sug‘orish shaxobchalarining Turkistonda ishlataladigan mahalliy nomi. Ariq so‘zi “ayiriq” so‘zidan olingan.

A + riq = ot

{oqar} – oqmoq, oqadigan.

O + qar = sifat

15. Ibrohimbekning oti zaif edimu yo yaraluqmu edi, manga dedikim, otim xarobdur. ( 102 – bet)

{zaif} – kamquvvat, kasal, jismonan quvvati kam, nimjon, kuchsiz.

Za + if = sifat

Antonimi: baquvvat, kuchli.

Sinonimi: nimjon, bequvvat, darmonsiz.

{xarob} – vayron bo‘lish, halokat, moddiy va ma’naviy jihatdan ahvoli tang.

Xa + rob = sifat

16. Biz puli ravondan o‘tub edukkim, puli ravnning shaxr tarfig‘a yog‘iy kishisi yetti, Qosimbekning o‘g‘li Hamzaning onasining otasi Banda Alibek Ibrohimbekka qichqirib aytadurkim doim taassuf va lofing bor erdi. (103 – bet)  
{ona} – xotin kishi o‘z tuqqan bolasiga nisbatan. Qadimgi turkiy tilda ham bunday ma’noni anglatgan bu so‘z “ana” tarzida talaffuz qilingan. O‘zbek tilida bu so‘z boshlanishidagi -a unlisi – â unlisiga, so‘z oxiridagi -a unlisi -ä unlisiga almashgan.

ana – ânä. O + na = ot

{qichqiriq} – juda kuchli, jarangli ovoz chiqarmoq, baqirmoq.

Sinonimi: baqirmoq, hayqirmoq, shang‘illamoq.

Qich + qir + moq = fe’l

17. O‘zumni o‘lumga qaror berdim. O‘shal bog‘da bir suv oqib keladur edi, vizu qildim, ikki rakat namoz o‘qudum, boshimni munojotqa qo‘yub, tilak tiladim edimkim ko‘zum uyquga boribtur. (107 – bet)  
{o‘zum} – o‘zlik olmoshi.

Qadimgi turkiy tilda o‘zlik olmoshlari ikkita öz va kentü-kendü. Öz aslida “jon” degani. U “kishi, shaxs, odam” ma’nosini ham bildiradi.

{tilak} – biror istak, niyat bilan, nimanidir tilab aytilgan duo.

Ti + lak = ot

{uyqu} – tirik organizmda fiziologik sokinlik holatida bo‘l ma’nosini anglatgan -uyu fe’lidan -qu qo‘shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik bu so‘zning ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan.

Uyu + qu = uyuqu – uyqu

Hozirgi o‘zbek abbiy tilida bu so‘zni qadimgi uyqu shaklida yozish saqlangan, lekin talaffuzda so‘z oxiridagi -u unlisi -i unlisiga almashadi.

Uyqu – uyqi

18. Chun mening sha’nimda bu emas edikim, og‘a – ini va uruq- qayoshdin har necha izoylik voqe bo‘lsa, mendin mutanoffir bo‘lg‘aylar. (110 – bet)

{sha’n} – insonga, shaxsga tegishli bo‘lgan qadr – e’tibor.

Sinonimi: sharaf, shuhrat, obro‘.

{urug‘} – bir ota – onadan tarqalgan bir necha gurih uyushmasi, etnik birlik.

U + rug‘ = ot

19. Xisravshoh mo‘g‘ul ulusining bizg‘a qo‘shulg‘anini eshitib, heyli bepoy bo‘lib, chorasi topmay, kuyovi Yaqub Ayyubni elchilikka yuborib, qulluq va davlatxohlik izhor qilib, istido qilibturkim, agar ahd qilsalar, qulluqqa kelgumdur. (112 – bet)

{ulus} – el, xalq, xaloyiq.

U + lus = ot

Tarkibidan ko‘plik ma’nosi anglashilib turadi.

{kuyov} – qizning eri ( ota – onaga va uning qarindoshlariga nisbatan)

Ku + yov = ot

Bu ot qadimgi turkiy tildagi qizining eri ma’nosini anglatgan va künd//küz otidan -ä qo‘shimchasi bilan yasalgan fe'lga ish oti shaklini yasovchi -gü qo‘shimchasi qo‘shib hosil qilingan. Keyinchalik d//z undoshi -y undoshiga almashgan, so‘ngra so‘z oxiridagi -ü unlisi talaffuz qilinmay qo‘ygan, shuning oqibatida so‘z oxiridagi -g undoshi – v undoshiga almashgan, o‘zbek tilda -v undoshi ta’siri bilan -ä unlisi -â unlisiga almashgan, - o‘ unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan.

Künd//küz + ä = küzä + gü = küzägü – küyägü – küyäg – küyäv – küyâv – kuyâv.

{elchi} – bir davlatdan boshqa bir davlatda faoliyat ko‘rsatuvchi yuqori martabali rasmiy vakil.

El + chi = ot

{qulluq} – minnatdorlik ifodalovchi so‘z

Qul + luq = ot

Sinonimi: muborak, qutlug‘.

{ahd} – o‘ziga yoki o‘zgaga berilgan qat’iy so‘z, ishontirish so‘zi, qaror.

Sinonimlari: jazm, shartnama, kelishuv, bitim, qaror.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. X. Nazarova. “Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. Toshkent. 1980.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” . Toshkent. Yulduzcha, 1989.
3. H. Qudratullayev. “Boburning adabiy estetik qarashlari”. Toshkent. Fan, 1983.
4. N. Rahmonov. “O‘zbek tili tarixi”. Toshkent. 2009.
5. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 2006 – 2008.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049641>

## KOREYA TA'LIM USULINING RIVOJLANISHI

Sultonova Mavjuda Saydazim qizi

Toshkent shahridagi Bucheon universiteti professional ta'lif markazi  
Magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola Koreyaning ta'lif tizimidagi o'qitish uslublarini yoritib beradi. Bu usullarga an'anaviy o'qitish usullari va hozirda qo'llanilib kelayotgan usullarni ko'rib chiqiladi. Bu bilan biz koreyaning avvalgi va hozirgi zamondagi ta'lif usulini bilibgina qolmay uning qay tarzda rivojlanganligini ham bilib olishimiz mumkin.*

**Kalit so'zlari:** Ta'lif usuli, ta'lif va tarbiya, an'anaviy o'qitish usuli, Joseon sulolasi, xattotlik.

### ABSTRACT

*This article sheds light on teaching methods in the Korean education system. These methods include traditional teaching methods and currently used methods. With this, we can not only learn about the education method of Korea in the past and present, but also how it has developed.*

**Key words:** Educational method, education and upbringing, traditional teaching method, Joseon dynasty, calligraphy.

### KIRISH

O'qitish usullari ilgari o'qituvchilar uchun bilimlarni o'quvchilarga etkazish va singdirish usuli sifatida qaralgan bo'lsa, so'nggi paytlarda ular talabalar faoliyatiga qaratilgan ta'lif mazmunini etkazish usuli sifatida tushuniladi. O'qitish usullari turli yo'llar bilan tadqiq qilinib, ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, yagona o'quv tizimi tashkil etilmagan, insonning jismoniy va ruhiy tuzilmalari murakkab bo'lgani uchun o'qitish usullarini ma'lum bir tushuncha bilan belgilab bo'lmaydi. Chunki zavodda mahsulot ishlab chiqarish yoki fermer xo'jaligida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish kabi izchil, mexanik usul bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, bugungi kundagi o'qitish metodikasi ta'lif va tarbiya predmetining o'qituvchidan talabaga o'tishini taqozo etadi, chunki o'qituvchi o'quvchilarning o'quv faoliyatini bir tomonlama

rejalashtirish, darslarni nazorat qilish va o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdan ko‘ra ularning bilish faoliyatida yordam beradi. Shu bois an’anaviy o‘qitish usullarida bo‘lgani kabi bir tomonlama mazmunni bir tomonlama singdirish usulidan qochish muqarrar.

O‘qitish usullarining ma’nosini xilma-xil bo‘lsa-da, o‘qitish tomonidan u o‘qitish funktsiyasi, o‘rganish tomonidan esa o‘rganish funktsiyasidir. Demak, ta’lim usulining ma’nosini ta’lim va tarbiya usuli deb tushunish mumkin.

### ASOSIY QISM

O‘qitish va o‘qitish jarayonida qaysi fan ishtirok etishiga qarab o‘qitish usullarini uch turga bo‘lish mumkin.

1. O‘qituvchiga yo‘naltirilganlik: O‘qituvchiga yo‘naltirilgan o‘qitish usulining o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘qitish va o‘qitish jarayoni o‘qituvchi atrofida yo‘naltiriladi. O‘qituvchilar fan mutaxassisni sifatida ta’lim mazmunini tanlash va ta’lim usullarini qo‘llash vakolatiga ega. O‘quvchilar asosan faol ishtirokchilar emas, balki passiv qabul qiluvchilarga aylanadilar, ular faqat o‘qituvchi nima qilayotganiga amal qilishlari va moslashishi kerak. Shuning uchun o‘qitish usuli asosan o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan bir tomonlama ma’ruzalardir.

2. O‘quvchiga yo‘naltirilganlik: Bu yerda ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchining qiziqishlari, istaklari va qobiliyatlariga urg‘u beriladi. Ta’lim va ta’lim mazmuni, usullari va tartiblarini tanlash o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikda rejalashtirish orqali aniqlanadi. Ushbu o‘qitish usulida o‘quvchilarning ixtiyoriy ishtiroki o‘qitish va o‘qitish jarayonining muhim elementiga aylanadi.

3. Kontentga asoslangan ta’lim turi: Kontentga yo‘naltirilgan o‘qitish usulining o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘quv predmeti tuzilishi qat’iy belgilangan va o‘qituvchi yoki o‘quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va shartlariga muvofiq o‘zgartirilishi yoki tuzatilishi mumkin emas. Mavzu akademik tizimda tashkil etilgan va o‘qitish va o‘qitish oldindan tayyorlangan qat’iy o‘quv rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu erda o‘qitish usuli odatda o‘qituvchining mazmunini ma’ruza qilishini o‘z ichiga oladi.

An’anaviy o‘qitish usullari:

Koreya ta’lim tizimida azaldan o‘tib kelayotgan an’anaviy o‘qitish usuli o‘qish, yozishga qaratilgan. Ma’ruza - o‘rgangan matnni ovoz chiqarib o‘qish va uning mazmuni va mantig‘i haqida savollar berish usuli. Bu vaqtida yod olgan narsalarni oddiy aytib berish emas, balki adabiyot tamoyillarini puxta egallash muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, ovoz chiqarib o‘qilgandan so‘ng yuzaga keladigan savol-javob esdalikdan xalos bo‘lishga va o‘quvchilarga matn mantiqini to‘g‘ri tushunishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ma’ruzalar individual ravishda o‘qilganligi sababli, qobiliyatga asoslangan darslar va shaxsiy almashinuvlar mumkin.

Chizma yozish - bu yozish va dastlabki bosqichlarda u harflarni o‘rganish usuli sifatida ishlataladi. Asta-sekin turli shriftlar orqali odamning o‘ziga xos qo‘lyozmasi shakllanadi. Jesul - o‘qish va yozishga asoslangan she’r yozish yoki yozish amaliyotidir. Bu mavjud ta’limni oddiy qo‘llashdan tortib chuqur darajagacha bo‘lgan turli darajalarda ifodalanadi va ayniqsa, davlat xizmati imtihonida muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim muassasasi yoki davrga qarab ba’zi farqlar mavjud bo‘lsa-da, an’anaviy davrda odatda individual yo‘l-yo‘riq usullari qo‘llanilgan va talabalarning baholari har kuni yoki davriy ravishda bugungi imtihonlarga tenglashtirilgan ma’ruzalarni qo‘yish va keyin shunga mos ravishda javob berish orqali baholanardi. Shu tariqa, mamlakatimizning uzoq tarixi davomida shakllangan an’anaviy o‘qitish uslublari, asosan, kitob o‘qish va qiroat qilish, yozish texnikasi, qalamkashlikdan iborat bo‘lsa, o‘qitish jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublaridan aslo qolishmaydigan oqilona va samarali ta’lim usullaridan iborat.

Hozirgi zamondagi o‘qitish usullari:

Zamonaviy o‘qitish usullarining kelib chiqishini Gerbart maktabining rasmiy bosqich nazariyasidan topish mumkin. Gerbart ta’limning maqsadini axloqiy xarakterni tarbiyalashni belgilab bergen va bunga erishish uchun o‘qitish jarayonini to‘rt bosqichga bo‘lgan: aniqlik, assotsiatsiya, tizim va metod. Keyinchalik, Ziller T. aniqlik bosqichini ikki, besh bosqichga ajratdi: tahlil, sintez, assotsiatsiya, tizim va usul, Rein, V. ularni yana dastlabki, taqdimot, taqqoslash va umumlashtirish deb atagan. Bu besh bosqichli o‘qitish metodi tasviriy dinamika nazariyasiga asoslanganligi uchun u bilimlarni etkazishga o‘rgatish uchun mos edi, lekin musiqa, san’at, jismoniy tarbiya kabi fanlar uchun ham mos emas edi. Keyinchalik Vundtning (V.M.) asosiy psixologik nazariyasi Gerbartning intellektual psixologiya nazariyasi o‘rnini egalladi va bolalarga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyalari paydo bo‘lishi bilan Gerbartning o‘qitish bosqichi nazariyasiga qiziqish asta-sekin so‘na boshladi. Keyingi o‘qitish usuli o‘qitishning rivojlantiruvchi vazifa sifatidagi rolini ta’kidlaydi, tilshunoslikdan qochadi va ilm-fan, texnika va san’atning tugallangan natijalarini singdirish natijasida bilim emas, balki bilim jarayonini baholash usulini ta’kidlaydi. Koreyada ma’rifatparvarlik davrida yangi ta’lim tizimining joriy etilishi maktab ta’limining mazmuni va usullarida katta o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Xalq ta’limining amalga oshirilishi bilan turli xil yangi maktablar tashkil etildi, sinf va sinf darajasida darslar olib borildi, doska va daftarlар paydo bo‘ldi. O‘qituvchi darslarni doska va bo‘rdan foydalangan holda samarali o‘tkazdi, o‘qitish va o‘qitish ma’ruza va konspektlarga qaratildi, talabalar daftarlariga kerakli yozuvlarni oldilar. Ozodlikdan so‘ng demokratik ta’lim tizimi barpo etilib, demokratik ta’lim tamoyillari joriy etilib, G‘arbning zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim usullarini

demokratlashtirishning nazariy va amaliy tamoyillarini tizimlashtirishga ham harakat qilindi.

Boshqacha qilib aytganda, ta'limning an'anaviy avtokratik va singdiruvchi usullaridan ko'ra, bolalarning individualligini hurmat qiladigan, erkin va ijodiy faoliyat orqali o'rganishga urg'u beradigan demokratik ta'lim tamoyillarini joriy etish va rivojlantirish ko'zda tutilgan. "Yangi ta'lim" nomi ostida joriy etilgan ushbu ta'lim tamoyili an'anaviy yagona, zolim va siquvchi ta'lim usullaridan voz kechish hamda 19-20-asrlarda G'arbda ishlab chiqilgan bolalarga yo'naltirilgan ta'lim mafkurasini hayotga tatbiq etishga qaratilgan edi.

"Yangi ta'lim" ta'lim usulining o'ziga xos xususiyatlari: 1. O'qituvchiga yo'naltirilgan o'qitish usullaridan voz kechish va o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim yo'l-yo'riqlariga o'tish, 2. O'qitishning siqilish usullaridan qochish va o'quvchilarning individualligini hurmat qilish, 3. O'quvchilar uchun avtonom bo'lingan sinflarning paydo bo'lishi va hokazolarni qayd etish mumkin. Bolalarga yo'naltirilgan ta'lim mafkurasiga asoslangan bu yangi ta'lim usuli katta natijalarga erisha olmadi, chunki u tizimli izlanishlar orqali tanqidga uchramadi va oldingi o'qitish uslubidan uzoqlasha olmadi, lekin yangi o'qitish usullarini izlash va rivojlantirish uchun katalizator bo'lib xizmat qildi. 1948-yilda hukumat o'rnatilgandan keyin ham o'qitish uslublarini yangilash bo'yicha ishlar davom ettirildi, butun mamlakat bo'ylab qayta tarbiyalash darslari va tadqiqot taqdimotlari faol o'tkazildi. Bu davrda o'quvchilarning individualligini hurmat qiladigan va ijodkorlikni rag'batlantiradigan avtonom ta'lim yo'l-yo'riqlarini qo'llash bilan birga, o'quvchilar tadqiqot va tadqiqot olib borishda hamkorlik qiladigan qo'shma ta'lim shakli faol amalga oshirildi. Shuning uchun ham o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'limdan talabaga yo'naltirilgan ta'limga bosqichma-bosqich o'tildi. 1950-1960 yillar davomida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashuvchi ta'lim va ta'lim yondashuvi asosida birlik o'rganish va muammoli ta'limga yo'naltirilgan o'qitish usullarini takomillashtirishga urinishlar bo'lgan, biroq bu borada aniq muvaffaqiyatlar kuzatilmagan.

15 avgust kuni ozodlikka chiqqandan so'ng yangi ta'lim harakati Koreya ta'limiga yangi shamol olib keldi, ammo Koreya urushigacha bo'lgan Yangi ta'lim harakatining o'ziga xos xususiyati shundaki, u asosan o'qitish usullarini o'zgartirishga qaratilgan edi. O'qitish uslublarini bunday isloh qilish ijtimoiy hayotga kirishi bilan yanada tezlashdi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy hayot bilan bog'liq yangi ta'lim harakati o'qitish usullarida katta o'zgarishlarga olib keldi. Bu an'anaviy o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'lim usulidan bolaga yo'naltirilgan o'qitish uslubiga, siqilishdan ixtiyoriy ta'limga, yagona ta'limdan shaxsga moslashtirilgan ta'limga, darslik asosidagi ta'limdan tajribaga yo'naltirilgan ta'limga va xotiradan yo'nalishdir. - hayotga yo'naltirilgan yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Koreya urushidan keyingi yangi ta'lim harakati 1949 yil dekabr oyida ta'lim to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishidan keyin sodir bo‘ldi va o‘quv dasturini qayta tashkil etish zarurati ham o‘qituvchilarga qaratilgan edi . Yangi ta'lim harakatini ishlab chiqqan ma'rifatchilar emas, balki oldingi maktab o‘qituvchilari edi. Gap shundaki, bu davrdagi yangi ta'lim harakati har bir shahar va viloyat mакtablarida ishlab chiqilgan tabiiy ta'lim islohoti harakati bo‘lib, uning o‘zagi o‘qitish usullarini o‘zgartirish edi. Shuning uchun, bir vaqtlar, an'anaviy ma’ruza usulidan qochib, individual o‘rganish va muhokama usuli, savol-javob usuli, muammoli usul va shakllantirish usuli kabi bo‘lingan o‘rganish sinfda o‘rganishda keng tarqalgan edi. Keyinchalik, 1970-yillarda to‘liq o‘rganish nazariyasi kiritildi va bir muncha vaqt muvaffaqiyatga erishdi, shuningdek, dasturni o‘rganish va jamoa o‘qitish ham tadqiq qilindi, ishlab chiqildi va tarqatildi, ammo katta muvaffaqiyatlarga erisha olmadi. Bugungi kunda maktablarda o‘qitish va o‘qitish usullariga kelsak, boshlang‘ich ta'limda tajribaga asoslangan bolaga yo‘naltirilgan o‘qitish usullari ma’lum darajada o‘rnatildi, ammo bilim ta’limiga qaratilgan o‘qitish va o‘qitish usullari hali o‘rta ta'lim va oliv ta'limdan ajralib chiqqani yo‘q. Va bu o‘qitish usullari asosan yuqori bosqich mакtablariga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rish yoki tanlov testlari va ishga joylashish testlarini yengish uchun ishlatiladi.

### XULOSA

Ta'lim maqsadi va ta'lim mazmunining xususiyatlariga qarab turli xil o‘qitish usullaridan foydalanish mumkin. Ular orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan usullarga ma’ruza usuli, savol usuli, muhokama usuli, muammo usuli va loyihalash usuli, shuningdek, dastur usuli, jamoaviy o‘qitish usuli, audio-vizual usul va boshqalar kiradi. Ushbu turli xil o‘qitish usullari orasida ma’ruza usuli va so‘roq usuli eng uzoq vaqtdan beri qo‘llanilgan an'anaviy o‘qitish usullaridir. Muhokama usuli, muammoli metod va loyihalash metodi so‘nggi yillarda qo‘llanila boshlangan progressiv usullar bo‘lsa, dastur metodi, jamoaviy metod va o‘qitish metodi hali tadqiqot va ishlanmalar jarayonida, audiovizual metod esa – bu turli xil o‘qitish usullarida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan usul.

Bugungi kundagi o‘qitish usullarini takomillashtirishda asosiy e’tiborni tizimli o‘qitish, muammoli o‘qitish, audio-vizual usullar va kompyuterlardan foydalanish usullariga qaratish lozim.

Bizga kirib kelgan axborot asriga mos ta'lim yo‘nalishini belgilash va ta'limimizni o‘zgartirish uchun, avvalo, ta'lim va ta'lim sohasida axborot asriga mos shakl va usullarni tadqiq etishimiz, ishlab chiqishimiz va targ‘ib qilishimiz kerak. 21-asr axborot jamiyatida talab qilinadigan o‘qitish va o‘qitish sohasidagi yutuqlarga erishish uchun biz o‘quv muhitini, shu jumladan har bir darajadagi maktablarning o‘quv muhitini va ta'lim boshqaruvini axborotlashtirishni faol ravishda qo‘llab-quvvatlashimiz kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Koreys ta'limining o'n yili" (Koreys ta'limining o'n yili nashriyoti, Toyo Bunsha, 1960)
2. "Koreys ta'lim tarixi" (Xan Gi Yon, Boyingsha, 1963)
3. "Ta'lim va ta'lim to'g'risida" (Li Xongyu bundan mustasno, Ta'lim fanlari jamiyati, 1981 yil)
4. "Qayta ko'rib chiqilgan o'quv qo'llanma 1 nazariya gim 1 amaliyat" (Ham Jong-gyu, Wenyinshe, 1983)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049753>

## GYOTE VA VOHIDOV

**Shahrizoda Botirova Iqboljon qizi**

O‘zMU 3-bosqich talabasi

[b88461900@gmail.com](mailto:b88461900@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Erkin Vohidovning tarjimonlik faoliyati to‘g‘risida ayrim tahlillar berildi. Gyote va Vohidovdek ikki ijodkorning badiiy mahorati taqqoslandi. Erkin Vohidovning falsafiy qarashlari, qomusiy bilimlari “Faust” asari tarjimasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Faust” asari shoirning “Ruhlar isyonii” dostonining yaralishiga sabab bo‘lganligi alohida ko‘rsatildi.

**Kalit so‘zlar:** tarjima, Doktor Faust, Iblis, badiiy niyat, faylasuf, konsepsiya

**Abstract:** This article delves into the analysis of Erkin Vahidov’s translation of Goethe’s “Faust”, examining the interplay between the artistic prowess of both writers. Vahidov’s philosophical depth and vast knowledge are evident in his translation, showcasing his ability to capture the essence of Goethe’s masterpiece. The article further posits that Vahidov’s engagement with “Faust” served as a catalyst for the creation of his own epic poem, “Rebellion of Souls”.

**Key words:** translation, Doctor Faustus, Devil, artistic intent, philosopher, concept

### KIRISH

I.V.Gyote Yevropa uyg‘onish davrining so‘nggi yirik siymosi va ma’rifatchilik davrining atoqli namoyondalaridan hisoblanadi. U nafaqat 143 jildlik adabiy meros egasi, balki faylasuf, qomusiy bilimlar sohibi, buyuk davlat arbobi hamdir. “Faust” I.V.Gyotening falsafiy qarashlari jamlangan asari bo‘lib, asar qahramoni Faust – yetuk aql-idrok egasi bo‘lib, u olam mohiyatiga yetishga, cheksiz hurlikka intiladi. O‘zbek xalqi ana shunday mumtoz asarni sevimli shoir E.Vohidov tarjimasida o‘qishga muvaffaq bo‘ldi. Shoir uzoq yillar davomida asar tarjimasi ustida ter to‘kdi. Avvalo, bir fikrni ta’kidlash joizki, “Faust” kabi asarni tarjima qilish uchun ijodkor ruhiy dunyosi va tafakkuri shu asar darajasida bo‘lmog‘i lozim.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

E.Vohidov ta'kidlaganidek, “Gyotening “Faust”ini butun falsafasi, teran ma’no tovlanishlari bilan tushunish uchun nemis bo‘lib tug‘ilish ham kamlik qiladi”<sup>1</sup>. Shoir bu tarjimaga dab-durustdan qo‘l urgani yo‘q. Gyotegacha Aleksandr Blok, **Lesya** Ukrainka, Mixail Svetlov, Sergey Yesenin, Rasul Hamzatov ijodidan tarjimalar qildi. Bular shoir uchun o‘ziga maktab vazifasini o‘tadi desak, xato bo‘lmaydi. “Faust” dunyosi bilan tanishishdan avvalroq Gyote shoir yuragiga “G‘arb-u Sharq devoni” bilan kirib kelgan edi<sup>2</sup>.

Adabiyot ahliga yaxshi ma'lumki, qalban Sharq falsafasi, islom dini, tasavvuf ta’limotiga yaqin bo‘lgan Gyote Hofiz, Rumiyl asarlarini o‘qib, ular ta’sirida “G‘arb-u Sharq devoni”ni yaratgan. Sharq tafakkuri va ruhiyatiga yaqinlik “Faust”da ham ko‘zga tashlanadi. Shoir “Erkin Vohidov ana shunday buyuk asarni barcha jozibasi, xilma-xil ohangi-yu, biroz arxaiklashgan til uslubini ham ona tilimizda qayta yaratdi”<sup>3</sup>. Shoir tarjima uchun asos qilib, Boris Pasternak variantini oladi. Lekin bu bilan chekhanib qolmay, o‘nlab tarjimalarni o‘rganib, kerakli o‘rinlarda nemischa original variantdan foydalanadi va asarni muvaffaqiyat bilan o‘zbek tiliga o‘giradi. Germanianing Veymar kutubxonasi javonidan o‘n ikki ming birinchi bo‘lib nashr etilgan “Faust” ham joy oldi. “Faust” tarjimasiga Gyote xayotlik chog‘laridayoq qo‘l urila boshlangan bo‘lib, ular orasida Gyotega eng manzur bo‘lgani fransuz tiliga qilingan tarjima bo‘lgan ekan.

## NATIJALAR

Mutaxassislar fikricha, agar Gyote “Faust”ni o‘zbek tilida Erkin Vohidov tarjimasida o‘qiganida, shubhasiz, bu ham unga ma’qul kelgan bo‘lar edi.

Oy o‘rtanar ko‘zlarida yosh  
Bag‘ri dog‘-u yuragi qiyma.

## Der, ey falak, men edim quyosh

Nega meni qilding tarjima.

Bu satrlar ham shoir dilida “Faust” tarjimasi chog‘ida tug‘ilgan. Chunki “Faust”dek genial asarni o‘zbek tilida qayta yaratish oson ish emas. Bu haqida shoir hayajon bilan shunday deydi: “Faustdek qasr ustunlaridan o‘zbek zaminida tiklanadigan inshoot sodda va jo‘n bo‘lib qolmaydimi degan andishani qildim. Faust yaratilgan zamon va makon ruhini bera olarmikanman degan xayol bo‘ldi. Gyotening

<sup>1</sup> Vohidov E. Gyote yurgan yo‘llardan/ /Iztirob. –Toshkent: O‘zbekiston, 1990 yil. –133-bet

<sup>2</sup> Vohidov E. Shoir-u she‘r-u shuur. –Toshkent, 1987 yil. –159-bet.

<sup>3</sup> Komilov N. “Badiiy mo‘jiza”//So‘z sehri. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. –25-bet.

Sharq falsafasiga yaqinligi mening yo‘limni yoritib turdi, ruhimga madad bo‘ldi. Nemis tilini mukammal bilmasam-da, rus tiliga qilingan ko‘plab tarjimalar, tadqiqotlardan bahramand bo‘ldim. Ulug‘ shoir fikri va ruhiga chuqurroq kirishga urindim. Uning vatanida bo‘lib, Veymar ko‘chalarida kezib yurdim. Necha ulug‘ shoir va sozandalarini bergen bu shahar menga G‘arbning Hiroti bo‘lib tuyuldi”<sup>1</sup>.

## MUHOKAMA

Shoir asar mahobatini, aql va idrok bilangina emas, balki yurak bilan his etgan. U Gyotening falsafasini teran anglagan. Asarning tayanch nuqtasini topa olgan. Xayolotning yuksakligi, tafakkurning cheksizligi, inson atalmish mo‘jizaning murakkab dunyosini aks ettiruvchi asarning ruhiga kira olgan. Bunga albatta shoirning Gyotega bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati sabab. “Gyote she’riyati meni yoshligimdanoq maftun etgan. Aslida men uchun Sharq bilan G‘arbning shoyon farqi yo‘q. Chunki bu tuyg‘u g‘arbniki, bu tuyg‘u sharqni deb ajratib bo‘lmaydi. Menimcha, har ikkovida ham inson haqidagi jahoniy falsafa mujassam. Qachonki asar inson qalbiga yo‘naltirilgan, inson sha’ni uchun kurashadigan, insonga mehr bilan sug‘orilgan bo‘lsa, Sharqqa yoki G‘arba mansubligidan qat’iy nazar, ulug‘ asar bo‘ladi va mangu yashab qoladi. Xullas, Gyotening menga yaqinligi uning Sharqqa yaqinligi, insonga yaqinligi bo‘lgan”<sup>2</sup>.

Bu tarjima Erkin Vohidovning ijodida tub burilish yasadi va eng quvonarlisi “Ruhlar isyon” kabi dostonning yaralishiga turtki berdi. Buni o‘z vaqtida shoirning muxlislari ham payqab, shunday savol bilan murojaat qilishadi: “Siz dastlab choynak piyola, ko‘z yosh, po‘lat to‘g‘risida she’rlar yozgansiz, keyin “Yoshlik devoni”, “Dostonlar” kitobingiz chiqdi. Yesenin she’rlarini, Gyotening “Faust”ini tarjima qildingiz. Bizni Nazrul Islom qismati haqidagi dostoningiz qiziqtirib qoldi. Bularning har biri alohida olamga o‘xshaydi. Ular bilan “Ruhlar isyon”ni bir ijodkor yaratganiga ishonish qiyin”<sup>3</sup>.

To‘g‘ri, ijodkorlarda bunga o‘xshash holat kuzatilishi mumkin. Badiiy tafakkuridagi, ijodidagi bu keskin evrilishni shoirning o‘zi ham e’tirof etib, “Gyote maktabini ko‘rmaganimda, “Faust” bahona jahon adabiyotiga chuqurroq kirmaganimda “Ruhlar isyon” dostoni paydo bo‘larmidi, yo‘qmi? Axir, g‘azal yozgan shoir qayoqda-yu, “Ruhlar isyon”ni yozgan shoir qayoqda.O‘zim o‘zimni

<sup>4</sup> E. Vohidov.Faust olami // Gyote Faust. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985. –5-bet

<sup>5</sup> E. Vohidov bilan suhbat. Bu obod kunlarga yetdik sog‘-omon. //Tafakkur. 2011 yil. 8-son.

<sup>3</sup> Vohidov E. Shoир-u she’r-u shuur. Toshkent, 1987 yil. –158-b.

<sup>7</sup> E. Vohidov bilan suhbat. Bu obod kunlarga yetdik sog‘-omon. //Tafakkur. 2011 yil. 3-son, –8-bet

tanimayman hozir”,<sup>1</sup> deydi. O‘zi ta’kidlagani kabi Gyote olami bilan tanishuv shoir ijodida tub burilish yasovchi “Ruhlar isyon”dek dostonning yaralishiga zamin hozirladi. Har ikki asar bilan tanishganimizda ularda mushtarak jihatlar borligiga amin bo‘lamiz. Birgina folklor motivlaridan foydalanish har ikki asar uchun ham xosdir.

## XULOSA

Gyote o‘z asari qahramoni etib, nemis folklorida mavjud obraz – Doktor Faustni tanlaydi. U o‘z vijdonini Iblisga sotgan donishmand sifatida mashhur edi. Gyote asarda o‘zining badiiy g‘oyalarini poetik obrazlar vositasida gavdalantirgan. Sharq she’riyatiga xos majoziylik, ramziy ifodalar uni o‘ziga maftun etgan bo‘lib, shu sababli u Hofizni sevib mutolaa qilar edi. Asarda u mana shu ramz, simvolikadan unumli foydalangan. Korneliya, Yan Gus, Glosser, Lens, Gennings, Muzaget kabi real shaxslar bilan birgalikda asarda Fetida, Yelena, Odissey, Yason, Seymos, Forkiada kabi mashhur mifologik obrazlar ham uchraydi. Bu holat “Ruhlar isyon”da rivoyatlar, naqlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Asarda Shoh Jahon, Avrangzeb, Bobur Mirzo, Bedil, Navoiy kabi tarixiy siymolar ham uchraydi. Asar bosh qahramoni Nazrul Islom ham tarixiy shaxsdir. Folklor namunalaridan foydalanish har ikki asarda ham ijodkorlar badiiy niyatini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ijodkorlar badiiy niyati asarda afsona va rivoyatlardan foydalanishni taqozo etgan. Aynan shu rivoyatlar qahramonlar xarakteri, ruhiy dunyosini ochishga xizmat qilgan.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCE)

1. Vohidov E. Gyote yurgan yo‘llardan//Iztirob. –Toshkent: O‘zbekiston, 1990 yil. –133-bet.
2. Vohidov E. Shoiru she’ru shuur. –Toshkent, 1987 yil –159-bet.
3. Komilov N. “Badiiy mo‘jiza”//So‘z sehri. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. –25-bet.
4. Vohidov E. Faust olami // Gyote Faust. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1985 yil. –5-bet
5. E. Vohidov bilan suhbat. Bu obod kunlarga yetdik sog‘-omon. //Tafakkur, 2011-yil. 8-son.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049861>

## ELEKTRON TIJORATDAGI TENDENSIYALAR VA INNOVATSIYALAR

Akramov Xurshidbek Bahrom o‘g‘li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada elektron tijorat sohasidagi so‘nggi tendentsiyalar va innovatsiyalar o‘rganiladi. Raqamli tizim tez sur’atlar bilan rivojlanishda davom etar ekan, elektron tijorat platformalari onlayn xarid qilish tajribasini yaxshilash uchun ilg‘or texnologiyalar va iste’molchiga yo‘naltirilgan strategiyalardan foydalanmoqda. Maqola onlayn chakana savdo kelajagini shakllantiruvchi transformatsion ishlanmalarni ko‘rsatib o‘tadi va korxonalar ushbu dinamik muhitga qanday moslashishi va rivojlanishi mumkinligi haqida tushuncha beradi.

*Kalit so‘zlar:* Elektron tijorat, tendentsiyalar, innovatsiyalar, sun’iy intellekt, ekologik toza mahsulotlar, mobil hamyonlar.

Raqamli dunyo rivojlanib borar ekan insoniyat o‘zining turli ehityojlarini qondira oladigan yangi zamonaviy texnologiyalarni yaratmoqda, hayotiga turli innovatsiyalarni tadbiq etib ehtijoylarni yengillashtirib bormoqda va Har kuni insoniyat axborot texnologiyalaridan tobora ko‘proq foydalana boshladi. Buning uchun u internet tarmoqlaridan foydalanadi. Internet keng auditoriyaga ega bo‘lgan ochiq tizim bo‘lib, foydalanuvchilar o‘rtasida mutlaqo yangi aloqalarni o‘rnatish imkonini beradi. Va u elektron biznesni yuritish uchun keng qo‘llanila boshlaganida ajablanarli joyi yo‘q. Bu nafaqat bozor va iqtisodiy, balki tashkilotlar va odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarning mutlaqo yangi darajasidir. Hozirgi kundagi trend atalamardan bir bu “Elektron tijorat” deb bemalol aytishimiz mumkin. Elektron tijorat deganda kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan barcha moliyaviy va savdo operatsiyalari va bunday operatsiyalar bilan bog‘liq biznes jarayonlarini o‘z ichiga olgan iqtisodiyot sohasi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining i, 29.09.2022 yildagi O‘RQ-792-sonli “O‘zbekiston respublikasining Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunida unga quyidagicha ta’rif berilgan: **elektron tijorat** — tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot

tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi.

Internetdagi statistik manbalarga qaraydigan bo‘lsak 35 milliondan ortiq aholiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida internet foydalanuvchilari soni 27,2 milliondan oshgan. Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 25,3 million kishini tashkil etadi. Bugungi kunga kelib 95 foiz aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan, 54 foiz uy xo‘jaliklarida yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoniyatilgan. Shu sababli ham global elektron tijorat sanoati tez o‘zgarib bormoqda. Onlayn biznes dolzarb va raqobatbardosh bo‘lish uchun eng so‘nggi elektron tijorat tendentsiyalari va doimiy o‘zgaruvchan iste’molchilar talabiga rioya qilishi kerak va aynan bugungi kunda electron tijoratda quyidagi zamonaviy innovatsiyalar korxonalar hamda aholning turli ijtimoiy qatlarni bog‘lash va ular o‘rtasida yangi, qulay va oson savdo aloqalarini o‘rnatishga xizmat qilmoqda:

- Mobil tijorat:** Mobil tijorat (m-commerce) jadal o‘sishda davom etmoqda, iste’molchilar mahsulotlarni ko‘rib chiqish, xaridlarni amalga oshirish va o‘z hisoblarini boshqarish uchun smartfon va planshetlardan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Korxonalar yo‘lda uzlusiz xarid qilish tajribasini ta’minlash uchun mobil qurilmalar uchun veb-saytlari va ilovalarini optimallashtirishlari kerak. Bir marta bosish orqali hisob-kitob qilish, mobil to‘lovlar va joylashuvga asoslangan xizmatlar kabi mobil qurilmalar uchun qulay xususiyatlar mobil xarid qilish tajribasini yaxshilashi va konversiyalarni oshirishi mumkin.
- Ovozli savdo:** bu yangi zamonaviy innovatsiya hisoblanadi. Amazon Alexa va Google Home kabi ovozli yordamchilar keng tarqalganligi sababli ovozli tijorat tobora ommalashib bormoqda. Endi iste’molchilar ovozli buyruqlar yordamida mahsulotlarni qidirish, xarid qilish savatchalariga narsalarni qo‘sish va xaridlarni yakunlash uchun ovozli buyruqlardan foydalanishlari mumkin. Korxonalar ushbu o‘sib borayotgan bozor ulushini egallash uchun o‘z veb-saytlari va mahsulotlarini ovozli qidiruv uchun optimallashtirishlari kerak.
- Sun’iy intellekt (AI)** - vazifalarni avtomatlashtirish, shaxsiy tavsiyalar berish va narx strategiyasini optimallashtirish orqali elektron tijorat operatsiyalarini o‘zgartiradi. Sun’iy intellektga asoslangan chatbotlar mijozlarga 24/7 yordam ko‘rsatishi mumkin, bashoratli tahlillar esa korxonalarga talabni bashorat qilish, inventar darajasini optimallashtirish va sotish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. AIdan foydalanish orqali korxonalar samaradorlikni oshirishi, xarajatlarni kamaytirishi va mijozlar tajribasini yaxshilashi mumkin.
- Bir kunlik yetkazib berish va tezkor tijorat:** bu xizmatl tobora ommalashib bormoqda, chunki iste’molchilar tezroq va qulayroq yetkazib berish imkoniyatlarini talab qilmoqdalar. Korxonalar uchinchi tomon yetkazib berish

provayderlari bilan hamkorlik qilishlari yoki o‘zlarining yetkazib berish infratuzilmasiga sarmoya kiritishlari mumkin, bu o‘sha kuni yoki hatto tezroq yetkazib berish vaqtlarini taklif qiladi. Mijozlarning tezlikka bo‘lgan talabini qondirish qoniqishni oshirishi, aravadan voz kechishni kamaytirishi va takroriy xaridlarni kuchaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, elektron tijorat landshafti rivojlanishda davom etar ekan, korxonalar uchun so‘nggi tendentsiyalar va innovatsiyalar haqida xabardor bo‘lish, o‘zgaruvchan iste’molchilarning xatti-harakatlariga moslashish va ehtiyojlarga javob beradigan innovatsion va shaxsiylashtirilgan xarid qilish tajribasini yaratish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash juda muhimdir. bugungi raqamli iste’molchilarning umidlari. Innovatsiyalar, barqarorlik va mijozlarga yo‘naltirilganlikka e’tibor qaratgan holda, elektron tijorat korxonalari raqobatbardosh va doimiy o‘zgarib turadigan elektron tijorat landshaftida muvaffaqiyat qozonishlari va rivojlanishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Климченя С.Л Основы электронного бизнеса, Пер. С англ. М.:МИР, 2019
2. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrda qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. <https://uz.havethebestelectronics.com/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049946>

## BANK PLASTIK KARTALARI ORQALI TO‘LOVLARNING RIVOJLANISHI HAMDA AHAMIYATI

**Akramov Xurshidbek Bahrom o‘g‘li**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada plastik to‘lov kartalari vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganligi va nima uchun ular hozir juda muhim ekanligi ko‘rib chiqiladi. Unda ular qanday rivojlanganligi, odamlar ulardan qanday foydalanishi va nima uchun iqtisodiyot uchun muhimligi haqida gapiriladi. Ulardan foydalanish qulayligi, xavfsizligi va biznesga qanday yordam berishi kabi jihatlarni ko‘rib chiqsak, ushbu maqola plastik kartochkalar bugungi dunyoda nima uchun muhimligini tushunishga yordam beradi.*

*Kalit so‘zlar: Plastik kartochkalar orqali to‘lovlar, naqd pulsiz hisob-kitob, Evolyutsiya, xavfsizlik, biznes, qulaylik.*

So‘ngi bir necha yil ichida biz iste’molchilar o‘z pullarini sarflashida, ya’ni tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarini amalga oshirishida keng ko‘lamli yangilashinlarga guvoh bo‘lyapmiz. To‘lov tizimlari kundalik hayotimizning asosiy qismi bo‘lib, moliyaviy operatsiyalarni samarali va xavfsiz amalga oshirishga imkon beradi. An’anaviy naqd pul operatsiyalaridan tortib, zamonaviy raqamli to‘lov tizimlariga qadar, to‘lov usullari vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada rivojlanib, biznes yuritish va bir-birimiz bilan o‘zaro munosabatlarimizni inqilob qildi. To‘lovlarini qayta ishlash vaqt o‘tishi bilan oddiy ayirboshlash va naqd pul operatsiyalaridan tortib bugungi kunda keng tarqalgan raqamli to‘lov usullarigacha sezilarli darajada rivojlandi. Ilgari to‘lovlar odatda jismoniy valyuta bilan amalga oshirilardi, xavfsizlik xatarlari va jismoniy almashinuv zarurati kabi cheklovlari bilan. Texnologiyaning paydo bo‘lishi bilan kredit va debet kartalari, onlayn to‘lov shlyuzlari va mobil to‘lov ilovalari kabi elektron to‘lov usullarining rivojlanishi bilan to‘lovlarini qayta ishlash yanada samarali va xavfsiz bo‘ldi. Ushbu yangi to‘lov usullari korxonalar va iste’molchilarning tranzaksiyalarni amalga oshirish usullarini sezilarli darajada kengaytirib, to‘lovlarini amalga oshirish va qabul qilishni oson, tezroq va xavfsizroq qilish imkonini berdi.

Xozirgi raqamli davrda iste'molchilar o'rtasida eng keng va tez tarqalgan to'lov usuli bu bank plastik kartalari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblardir. Bank kartasi- maxsulotlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz shaklda xaq to'lash, pulni saqlash va olib yurish, hamda zarur hollarda esa naqd pul yechish uchun zamonaviy qulay to'lov vositasidir. Bank kartasi orqali do'konda xaridlar, hattoki internetda har qanday maxsulotlar, samalyot yoki poezd chiptalari uchun to'lovlarni amalga oshirish mukin. Shuningdek, bank kartasi - plastik, metall yoki virtual bo'lib, tovar va xizmatlar uchun naqd pulsiz to'lovlardan, naqd pul yechib olish, pul mablag'larini kartadan kartaga yoki hisob raqamiga o'tkazish va boshqa operatsiyalar uchun foydalaniladigan maxsus bank mahsulotidir. To'lovnинг bu usuli juda qulay va qiziqarli tarixga ham ega. Biz bilgan plastic kartalarning ilk ko'rinishi karton qog'oz shaklida bo'lган. Bu karton kartalar 1949 yilda "Diner's Club" ni yaratgan Frenk MakNamara va uning biznes sherigi Ralf Shnayder ismli odamga tegishli. Keyinchalik Amerika banki BankAmericardni chiqardi va bu biz bugungi kunda bilgan VISAga aylandi, keyinchalik American Express birinchi plastik kredit kartasini 1959-yilda ishlab chiqardi. Bu kartalar quyidagi avzalliliklarga egadir:

1. Qulaylik- qog'ozni pullarni olib yurishning hojati yo'q - naqd pul yoki cheklar kerak emas, hatto katta miqdordagi pul ham hamyonimizga osongina joylashadi. Va nihoyat, kartangizdan istalgan joyda xarid qilish uchun foydalanishingiz mumkin.
2. Karta mukofotlari va bonuslar- Mukofotlar kompaniyalar uchun mijozlarni o'z kartalaridan foydalanishga jalb qilishning mashhur usulidir.
3. Kredit liniyasini qurish- Kredit kartalari sizga kredit liniyasini yaratish imkoniyatini beradi. Bu juda muhim, chunki u banklarga kartangizdagi to'lovlar va kartadan foydalanish asosidagi faol kredit tarixini ko'rish imkonini beradi. Banklar va moliya institutlari ko'pincha kredit kartasidan foydalanishni potentsial kredit da'vogarning kreditga layoqatliligini o'lchash usuli sifatida izlaydilar, bu sizning kredit kartangizni kelajakdagagi kreditlar yoki ijara arizalari uchun muhim qiladi.

Plastik kartochkalar uzoq vaqt dan beri naqd pulsiz operatsiyalarning asosi bo'lib, iste'molchilar va biznes uchun qulaylik, xavfsizlik va ko'p qirralilikni taklif etadi. Biroq, texnologiya rivojlanishda davom etar ekan va iste'molchilarning xohish-istiklari o'zgarib borar ekan, plastik kartalarning kelajagi doimiy o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Plastik kartochkalar kelajagini o'rganishda biz ushbu keng tarqalgan to'lov vositasining traektoriyasini shakllantirayotgan rivojlanayotgan tendentsiyalar, texnologik innovatsiyalar va rivojlanayotgan iste'molchilar xatti-harakatlarini ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi. Lekin, shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli dunyoga qaraydigan bo'lsak, Mobil hamyonlar, kontaktsiz to'lovlar,

kriptovalyutalar va Markaziy bank raqamli valyutalarining o'sishi an'anaviy jismoniy kartalarni tezda siqib chiqarish tomon ketmoqda. Shunga qaramay, Raqamli hamyonlar va mobil to'lovlar qulayligiga qaramay, jismoniy kredit va debet kartalari saqlanib qoladi. Naqd pul hech qachon to'liq almashtirilmagani kabi, ko'pchilik uni hanuzgacha o'z yonida olib yuradi, jismoniy kartalar ishonchli texnologiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmanalar yoki xavfsizlik va xarajatlarni nazorat qilishni afzal ko'radiganlar uchun afzallikkarni taqdim etadi. Favqulodda vaziyatlarda yoki texnologiya ishlamay qolganda, kartalar muhim zaxiraga aylanadi. Bundan tashqari, jismoniy kartalar moliyaviy inklyuzivlikni rag'batlantirish, raqamli to'lov echimlariga ishonchi yo'q bo'lgan aholini qamrab olish uchun o'ziga xos ahamiyatga ega.

Xulosa qilganda, Debet va kredit plastik kartalarining kelajagi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Biroq, ularning pasayishi hech qachon mutlaq bo'lmaydi. Debet va kredit plastik kartalari o'z maqsadini saqlab qoladi, ayniqsa foydalanuvchilar guruhlari orasida yangi texnologiyalarni o'zlashtirish sekinroq va raqamli to'lov infratuzilmasi kamroq tarqalgan joylarda. Karta sanoatida davom etayotgan innovatsiyalar tufayli jismoniy karta plastiklari plastik bo'lman to'lovlar bilan bir qatorda saqlanib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ozbekiston Respublikasida to'lov tizimlarining rivojlanish tarixi.  
[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
2. "Instant payments definition". [www.ecb.europa.eu](http://www.ecb.europa.eu). European Central Bank. 2017
3. <https://aab.uz/uz/private/plastic-cards/list/>
4. [https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/bank-card/?phrase\\_id=201977](https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/bank-card/?phrase_id=201977)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050083>

## MOTOR MOYLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR VA AVTOMOBIL DVIGATELLARINI ISHLASH SHAROITIDA QO‘LLANILISHI

Zaynidinov Behzodjon Suxrob o‘g‘li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 2-bosqich magistri

Eshdavlatov Eshpo‘lat Uzoqovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada moylash materiallarini qanday tartibda qo‘llanilishi ularning xususiyatlari hamda avtovositalarida qo‘llaniladigan motor moylari, ularning turlari, xorijda ishlab chiqariladigan moylarning markalanishi va ularga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** motor moylari, Neft mahsulotlari, moylar tasnifi, ichki yonuv dvigatellari, quyuqlashish harorati.

**Abstract:** This article provides information on the procedure for applying lubricants in their characteristics and motor oils used in vehicles, their types, marking of oils produced abroad and the requirements for them.

**Key words:** motor oils, petroleum products, classification of oils, internal combustion engines, condensation temperature.

**Kirish:** Ichki yonuv dvigatellarini moylash uchun ishlatiladigan moylar -motor moylari deb ataladi. Ularing asosiy vazifalari dvigatel detallari orasidagi ishqalanishni va bu detallar yeyilishini kamaytirishdir. Lekin motor moylari belgilangan resurs mobaynida dvigatellar ishchanlik qobiliyati uchun ahamiyatli bo‘lgan yana bir qancha vazifalar bajarilishini ta’minlashi kerak.

**Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli.** Hozirgi zamona viy motor moylari, asosiy bazaviy moylardan va ularning xossalari yaxshilovchi prisadkalardan tarkib topadi. Motor moylarini mavsumga qarab yozgi, qishki va barcha mavsumliga ajratishadi. Bazaviy moylar sifatida qovushqoqligi har xil bo‘lgan distillyat komponentlardan, qoldiq va distellyat komponentlar aralashmasidan hamda sintetik mahsulotlar (polialfaolefinlar, alkinbenzollar, efirlar)dan foydalanishadi. Hamma

mavsumbop moylaming ko‘p turlarini kam qovushqoqli asosni makropolimer prisadkalar bilan quyuqlashtirish yo‘li bilan olishadi. Moylarning ishlash sharoitiga qarab ularga maxsus funksional prisadkalar qo‘shiladi va qovushqoqligini, oquvchanligini, hamda quyuqlashish haroratlarini me’yorida qilib olinadi.

**Motor moylariga qo‘yiladigan talablar.** Moylash materiallariga qo‘yiladigan asosiy talab – ularning davlat standartlariga, avtomobil dvigatellari konstruksiyasi va iqlim sharoitlariga, hamda avtomobil ekspluatatsiyasining tartibotlariga mos kelishidir. Turli sharoitlarda ishlaydigan mashina va mexanizmlar uchun qaysi turdag'i motor moylarini ishlatmaylik, ularga quyidagi asosiy talablar qo‘yiladi:

- har qanday moy ishqalanuvchi sirtlarning turli rejimlarida ishonchli ishlashini ta’minlovchi qovushqoqlikka xamda ishqalanuvchi qismlarning yeyilishini sekinlatish uchun yaxshi moylash xossalari ega bo‘lishi lozim;

- barcha moylash materiallari sirtlarni korrozion yemirilish va zanglashda saqlashlari kerak;

- moylar oksidlanmasligi, yuqori haroratli qirindilar xosil bo‘lishiga to‘sinqilik qilishi zarur;

- qishda manfiy haroratda dvigatelning oson yurgizib yuborilishini va ishqalanuvchi sirtlarga moy tez yetib borishini ta’minlashi zarur;

- yuqori haroratda puxta moy pardasini xosil bo‘lishini ta’minlash lozim;

**Motor moylarining SAE bo‘yicha tasnifi.** «SAE» – bu qayishqoqlik bo‘yicha motor moyi sinflanishini ishlab chiqqan avtomobil muhandislarining amerika assotsiatsiyasi abbreviaturasi. Motor moyi etiketkasida yoki xarakteristikasida SAE abbreviaturasidan keyin bir nechta raqamlar keladi. Ular orasida W harfi turadi. U motor moyining barcha sezonaliga mos kelishini beldiradi.

Barcha sezonalik motor moyi – harorat o‘zgarganda qayishqoqligini o‘zgartirmaydi. Belgisi: SAE 5W-30, SAE 10W-40, SAE 15W-40, SAE 20W-50. Belgidagi birini raqam past haroratli qayishqoqlikni belgilaydi. Bu raqamdan 40 ni olib tashlash kerak va siz ushbu moyning minimal haroratini olasiz. Masalan, SAE 5W-30 moyi bilan dvigatel -35°C ( $5 - 40 = -35$ ) dan past haroratda muammosiz yurgiziladi. W harfidan so‘ng keluvchi ikkinchi son teskarisi yuqori haroratli qayishqoqlikni anglatadi. Mustaqil bu sonni aniqlash mumkin emas. Bir narsa ma’lumki: bu son qanchalik katta bo‘lsa yuqori harorat sharoitida moyning qayishqoqligi yuqori bo‘ladi. Sizning avtobilingiz uchun yuqori harorat qayishqoqligi ko‘rsatkichi to‘g‘ri kelishini faqatgina avtobilingizni ishlab chiqaruvchi biladi. Sizning motoringiz uchun barcha zaruriy ko‘rsatkichlar sotib olish vaqtida avtobilingizga ilova qilinuvchi ekspluatatsiya bo‘yicha kitobda yozib ko‘rsatilgan.

Yozgi motor moyi – qishgidan quyuqroq. Yuqori haroratlarda yaxshi moylaydi, past haroratlarda esa – quyilib qoladi va moylashdan to‘htaydi. Belgisi: SAE 30, SAE 40, SAE 50.

Qishki motor moyi – kam quyuq, qayishqoq emas. Issiqlikdan suyuq bo‘lib qoladi, moylashga qodir emas. Belgisi: SAE 5W, SAE 10W, SAE 15W, SAE 20W

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** Bugungi kunda transport vositalarida asosan ichki yonuv dvigatellaridan keng foydalanilmoqda. Bizga ma’lumki ichki yonuv dvigatellari juda og‘ir muhitda ishlaydi va transport vositalariga qo‘yiladigan xavfsizlik, energetik, iqtisodiy hamda ekologik talablarning me’yoriy qiymatlarda bo‘lishi uning ishonchli ishlashiga bog‘liq. Bu jarayonda motor moylarining o‘rni muhim hisoblanadi. Motor moylarining asosiy vazifalari dvigatel detallari orasidagi ishqalanishni va bu detallarning yeyilishini kamaytirishdir. Yana motor moylari dvigatel detallarini qisman sovitadi, detallarni korroziyadan saqlaydi, shovqin miqdorini kamaytiradi hamda detallar yuzasida ishqalanish natijasida hosil bo‘ladigan zarrachalarni yuvib turadi. Bu jarayonlar normada bajarilsa dvigatel quvvati oshadi va yonilg‘i sarfi kamayadi.

**Xulosa.** Bugungi kunda moylash materiallariga turli xildagi prisadkalar qo‘shish orqali ularning sifatini oshirish va bu orqali atomobilning ishlash qobiliyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi ko‘pchilik avtomobil dvigatellarida kelib chiqayotgan nuqsonlarning ko‘pgina qismi yemirilish va dvigatellarni ortiqcha qizib ketishi tufayli yuzaga kelayotgani hammaga ma’lum. Bu kabi muammolarni oldini olish uchun avtomobil egalari motor moylarini tanlashda mutaxasis takliflaridan kelib chiqqan holda moylash materiallarini to‘g‘ri va sifatlisini tanlashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Moylash materiallarini to‘g‘ri tanlash va yuqoridagi tavsiyalarga amal qilish orqali avtomobilingiz umrini yanada uzaytirishga sababchi bo‘lishingiz mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati: (References)

1. Q.M. Sidiqnazarov va boshqalar. “Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi” darslik/Toshkent, “Go Print”, 2020.- 520 b.
2. Qodirjon Maxamat o‘g‘li Dehqononov, Omonjon Meliqo‘zi o‘g‘li Akbarov, Omonjon Raxmonjonovich Axmedov. “MOTOR MOYLARI VA ULARNING AVTOMOBIL DVIGATELLARINI ISHLASH SHAROITLARIDA QO‘LLANILISH AHAMIYATI”
3. S Turobjonov M. SHoyusupova B.Abidov “Moylar va maxsus suyuqliklar texnologiyasi”
4. <http://auto.ustabor.uz>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050139>

## ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БАСНИ ЖАНА ДЕ ЛАФОНТЕНА ВОЛК И ЯГНЕНОК

И. И. Назарова

магистрант факультета лингвистики (французский язык),  
Ферганский государственный университет  
[nazarovaikbol@mail.ru](mailto:nazarovaikbol@mail.ru)

*Мой выбор пал на басню волк и ягненок, потому что тема в басне Жана де Ляфонтена Волк и ягнёнок , является доносом на власть и правосудие. « У сильного всегда бессильный виноват », начинается перевод басни у Крылова, отображающая смысл и мораль басни. Поэтому я предлагаю вам обратить внимание на исследование басни посредством следующего лингвопоэтического анализа.*

**Ключевые слова:** Ляфонтен, басня, мораль, животные, лингвопоэтический анализ, Волк и ягнёнок, Людовик XIV.

Волк и ягнёнок это десятая басня из книги Жана де Ляфонтена, опубликованная впервые в 1668 г. Эта басня вдохновлена баснями Эзопа из Федра. В этой басне жестокий и тианический волк застает врасплох ягнёнка, пьющего воду. Голодный хищник ищет повод съесть преступника, наивный и невинный ягнёнок, пытается защитить себя.

### Le Loup et l'Agneau

La raison du plus fort est toujours la meilleure :

Nous l'allons montrer tout à l'heure.

Un Agneau se désaltérait

Dans le courant d'une onde pure.

Un Loup survient à jeun qui cherchait aventure,  
Et que la faim en ces lieux attirait.

"Qui te rend si hardi de troubler mon breuvage ?

Dit cet animal plein de rage :

Tu seras châtié de ta témérité.

— Sire, répond l'Agneau, que votre Majesté

Ne se mette pas en colère ;  
Mais plutôt qu'elle considère  
Que je me vas désaltérant  
Dans le courant,  
Plus de vingt pas au-dessous d'Elle,  
Et que par conséquent, en aucune façon,  
Je ne puis troubler sa boisson.

— Tu la troubles, reprit cette bête cruelle,  
Et je sais que de moi tu médis l'an passé.

— Comment l'aurais-je fait si je n'étais pas né ?

Reprit l'Agneau, je tette encore ma mère.

— Si ce n'est toi, c'est donc ton frère.

— Je n'en ai point.

— C'est donc quelqu'un des tiens :

Car vous ne m'épargnez guère,

Vous, vos bergers, et vos chiens.

On me l'a dit : il faut que je me venge."

Là-dessus, au fond des forêts

Le Loup l'emporte, et puis le mange,

Sans autre forme de procès.<sup>1</sup>

В басне олицетворяется эпоха середины 17 века, во времена правления Людовика XIV. Басня относится к более широкому классу басен Лафонтена, изображающих власть великих в обществе. Это басня из двадцати девяти строк, в которой чередуются самые разнообразные стихотворные размеры (четырёхсложные, восьмисложные, десятисложные, александрийские) и виды рифм (смежные, кольцевые, перекрёстные).

Действительно, басни о животных позволяют обойти цензуру и косвенно критиковать установленный порядок. Прежде всего, мораль находится в начале басни «разум сильнейшего всегда лучший». Таким образом, Лафонтен объявляет исход басни. Эта мораль иронична, Лафонтен не согласен с законом сильнейшего! Ла Фонтенон использует животных для создания живых и образцовых персонажей и подчеркивает предвзятое рассуждение волка и честное, логичное, но наивное рассуждение ягненка. Наконец, Лафонтен хотел использовать животных для иллюстрации универсального масштаба морали.

Мораль хищника лучше всего понимать в контексте абсолютной монархии.

---

<sup>1</sup> Полный текст [https://fr.wikipedia.org/wiki/Le\\_Loup\\_et\\_l'Agneau](https://fr.wikipedia.org/wiki/Le_Loup_et_l'Agneau)

Пасторальная идиллия в начале («onde pure se désaltérait») резко прерывается приходом волка: «Le loup survient à jeun». Этот отрывок написан в настоящем времени, подчеркивая жестокость облика волка.

Контраст между двумя персонажами: В отличие от дикости волка, невинность и доброта ягнёнка.

Между двумя животными существует баланс сил.

Это соотношение сил иллюстрируется положением животного в басне («plus de vingt pas en dessous d'elle»).

*Le loup est plus grand qu'elle.*

*Le loup n'est pas convaincant!*

Он предполагает, что ягненок размешивает воду, пока течет ручей.

Он прибегает к теориям заговора (bergers, chiens, frère). Логических доказательств волк не приводит (« c'est donc ton frère »).

Он опирается на неопределенное местоимение («dit»), которое скрывает отсутствие убедительной силы этих аргументов.

*L'agneau est plus sage.*

Союзник слабых, язык становится единственным оружием.

Он использует несколько стратегий, включая лесть, вежливость (« Votre Majesté ») и местоимение «vous».

Столь веский аргумент: он не может потревожить воду из-за направления течения, у него нет брата.

Мораль “La raison du plus fort est toujours la meilleure”

Аллегористы осуждают справедливость: не что иное, как лицемерное название насилия.

Аллитерация буквы «t» в речи волка:— резкий звук, указывающий на жестокость и насилие волков.

"Qui te rend si hardi de troubler mon breuvage ?

Dit cet animal plein de rage :

Tu seras châtié de ta témérité”

Более того, животную сущность каждого из двух главных героев напоминает несколько важных характеристик, волк — «жестокое» животное, движимое «голодом», а ягнёнок «сосёт» свою мать, живущую в окружении «собак» и «пастухов».

Только заглавная буква их имени характеризует и отличает их, придает им особый статус среди своего вида, дает им «имя», а значит, олицетворяет их.

И в заключении, эта басня рассказывает историю, финал которой был известен с самого начала.

Логические и честные рассуждения Ягненка разрушаются злыми намерениями Волка, и изначальная мораль обретает полный смысл. Самая сильная причина — это не логика лучших, а высшая мотивация тех, кто находится у власти, которые не являются буквально самыми сильными, но побеждают всех.

## БИБЛИОГРАФИЯ

1. Les Fables de La Fontaine - Assistance scolaire personnalisée et gratuite – ASP3.
2. Marius Guinat La Morale des Fables de La Fontaine 1886 ( succession des saisons avec le rythme des récoltes)
3. В. Задорнова, Ю. Флягина. Лингвопоэтика: старые цели, новые идеи. // Новые достижения в современной англистике.
4. Назарова И. И. Analyse lingopoétique de la fable de Jean de La Fontaine Le Loup et l'Agneau. IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI.-2024.№37
5. Ахророва Р.Ю. ИЗУЧЕНИЕ ЮМОРА В БАСНЯХ ЛА ФОНТЭНА //УЧЕНЫЙ. – 2023. – Т. 1. – №.32. – С. 9-13.
6. Ахророва Рузихон Усмоновна. «ИЗУЧАЙ ЮМОР ПО БАСНЯМ ЛА ФОНТЭНА».УЧЕНЫЙ,1.32 (2023): 9–13.
7. Ахророва, РУ (2023). ИЗУЧАЙТЕ ЮМОР В БАСНЯХ ЛА ФОНТЭНА.УЧЕНЫЙ,1(32), 9-13.
8. Назарова И. И. ЖАН ДЕ ЛАФОНТЕН. ОТОБРАЖЕНИЯ «МОРАЛИ» В БАСНЯХ ЖАНА ДЕ ЛАФОНТЕНА //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 32. – С. 12-15.
9. Ахмадиев Н. М., Назарова И. И. ЖАН ДЕ ЛАФОНТЕН. ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ НОРМ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ЛИЧНОСТИ //Европейский журнал междисциплинарных исследований и разработок. – 2023. – Т. 15. – С. 449-452.
- 10.<https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/bpt6k29830p/f73.item>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050267>

## O‘SMIRLARDA BILISHGA BO‘LGAN QIZIQISHLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xalimova Nargiza Narzilloyevna

Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada o‘smirlarda bilishga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirishning nazariy asoslari bir nechta muhim omillarga bog‘liqligi, bu nazariy asoslar, o‘smirlarda bilishga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida yoritilgan.*

*Shuningdek, qiziqishlar, o‘smirlarning o‘zini, o‘zligini anglash va bilim olish uchun kerakli motivatsiyasini oshirishga doir ma’lumotlar aks etirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** qiziqish, kognitiv qiziqish, o‘smirlilik davri, ijtimoiylashuv, erkinlik, mustaqil ta’lim.

## THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF INTEREST IN LEARNING IN TEENAGERS

### ABSTRACT

*In this article, the theoretical foundations of the formation of interest in knowledge in teenagers depend on several important factors, and the fact that these theoretical foundations are important in the formation of interest in knowledge in teenagers is highlighted based on the analysis of local and foreign scientific studies.*

*Also, information on increasing the necessary motivation of teenagers to gain knowledge and self-awareness is shown.*

**Keywords:** interest, cognitive interest, adolescence, socialization, freedom, independent education.

### KIRISH

Kognitiv qiziqish – o‘rganish va shaxsni rivojlantirishning muhim omilidir. Qiziqish ta’siri ostida bilim shaxsiy ma’noga ega bo‘ladi. Shakllangan kognitiv qiziqish tufayli o‘quvchining faoliyati samarali bo‘ladi. Kognitiv qiziqish

o‘quvchining ma’naviy salohiyatini faollashtiradi, faollikni yuqori darajaga ko‘taradi va uni atrofdagi voqelik qadriyatlariga yaqinlashtiradi. Qadriyat yo‘nalishlari kognitiv qiziqish tufayli yoshlarning jamiyat hayotiga faol kirishini ta’minlaydi.

Qiziqish hammadan ko‘ra ko‘proq kishining kasbiy, ixtisosi bo‘yicha qiladigan mehnati, o‘qishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Insonda shaxsiy qiziqishlar bilan birga, u ijtimoiy ozod bo‘lgani tufayli, unga yana ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy qiziqishlar ham xosdir [1].

Qiziqish – insonning ijobiy emotsional hayajonlari bilan predmetlar va atrofdagi hayotiy hodisalarini idrok etish yo‘nalishidir [7].

Qiziqish shaxsni faoliyat turlari maqsadlarini anglab yetishga yo‘naltiruvchi va shu bilan yangi holatlarni tushunish va tanishishga, borliqni yanada to‘la va chuqur ifoda etishga yordam beruvchi idrok etish ehtiyojini namoyon etish shaklidir [8].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA, MUHOKAMA**

O‘smirlarda bilishga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirishning nazariy asoslari bir nechta muhim omillarga bog‘liqdir:

- Ta’limning asosiy tamoyillari, o‘smirlarning bilimlarni o‘rganish va tushunish jarayonlarini tushuntirishda muhimdir. Bu tamoyillar ta’lim jarayonlarining eng muhim omili hisoblanadi;

“Ta’lim tamoyillari” ta’lim nazariyasida muhim bir konseptual asosga egadir. Ushbu termin bilimlarning ta’lim jarayonlariga va o‘rganishga qanday ta’sir qilishi, shuningdek, o‘quvchilar tomonidan qanday qilib qabul qilinishi, o‘zgarishlar va o‘zgarishlarni takomillashtirish jarayonlarida qanday muhim rol o‘ynashiga oid barcha g‘oyalarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim tamoyillarining maqsadi o‘quvchilarning bilim olish va rivojlanishini ta’minlashga yordam berishdir. Ta’lim tamoyillari o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim usullarini birlashtirish uchun yaxshi tarzda amal qilish va ta’limning eng yaxshi natijalarini ko‘rish uchun keng ko‘lamda yo‘l yo‘riq ko‘rsatadi.

- O‘smirlar bilimlarni o‘zlashtirish va mustaqil fikrlashda doimiy qiziqishlar manbaiga ehtiyoj sezadi. Shu jihatdan o‘smirlar o‘z qiziqishlaridan motivatsiya oladi.

Qiziqishlar, o‘smirlarning o‘zini, o‘zligini anglash va bilim olish uchun kerakli motivatsiyani oshiradi. Agar shaxsda biror narsaga qiziqish paydo bo‘lsa, undagi qiziqish shu mavzuni o‘rganishga va uning ustida ishlashga, shu jarayonga ko‘proq vaqt ajratishga yordam beradi.

- O‘smirlar uchun bilimning amaliyoti va qanday hisobda ishlatilishi muhimdir. O‘smirlar bilimni amaliyotda qanday qilib qo‘llashlari mumkinligini ko‘rsatish orqali bilimga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

- O'smirlar bilimda muvaffaqiyatga erishish orqali ularning qiziqishlarini oshirishga ko'mak ko'rsatilishi muhimdir. O'smirlarning o'zgaruvchan yaxshi natijalarga erishishlari qiziqishlarini ko'taradi.

- O'smirlar o'zlarini qanday his etishlari, nimaga qiziqishi, va ularning shaxsiy tarbiyasi haqida qiziqishlarini tushunish asosiy masaladir. Shaxsiy muvofiqligi ko'zdan kechirish uchun bu ko'rsatishlarning o'ziga xos usullari mavjud.

Bu nazariy asoslar, o'smirlar bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi va ularning ta'lim jarayonida va mustaqil o'rganishda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

## NATIJALAR

O'smirlarda bilishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirishga oid ko'plab olimlar va tadqiqotchilarining ishlari mavjud. Bu olimlar o'quvchilarining qiziqishlarini aniqlash, ularni qo'llash va ularga qiziqishlarni oshirish uchun turli metodlarni ishlab chiqilgan. Quyidagi olimlar bu sohada yirik ahamiyatga ega bo'lgan:

Amerikalik olim John Dewey, ta'lim jarayonlarida o'smirlarning faoliyatlarini o'rganish, ularning qiziqishlarini qo'llash va ularni o'zlashtirish uchun demokratik va amaliy usullar ishlab chiqdi [5].

Fransuz olim Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, o'smirlarning o'zini anglash va bilim olish jarayonlarida qanday o'rganishlar muhimligini ko'rsatadi [4].

Rus olim Lev Vygotskyning ijtimoiy-tarbiyaviy rivojlanish teoriyasи, o'smirlarning ta'lim va bilim olish jarayonlarida o'zini anglashda ijtimoiy muloqotlar va ko'rinishlar yordamida qanday yordam bera olishlarini tushuntiradi [6].

Amerikalik olim Howard Gardnerning multipleksi intelligentsiya konsepsiysi, o'smirlarning turli sohalarda qiziqishlarini oshirish va ularning bilim olish usullarini oshirish uchun kerakli ko'nikmalarni taqdim etadi [3].

Albert Bandura, o'smirlarning o'zini anglash va bilim olishda qanday o'zgarishlarga erishishlarini ta'minlash uchun ijtimoiy kognitiv o'zlashtirish nazariyasini rivojlantirdi [2].

## XULOSA

Bu olimlar va ularning ishlari o'smirlarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va ularni o'zlashtirish uchun muhim ko'nikmalarni taqdim etishda ahamiyatga ega. Ularning tadqiqot ishlari ta'lim sohasida asosiy qoidalarni aniqlashda va o'quvchilarining faoliyatlarini samara tashkil etishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmatov M.S. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sport- sog‘lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. Monografiya. T., O‘zDJTI nashriyoti. 2005.
2. Bandura, A. (1977b). Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change. *Psychological Review*, 84(2), 191–215.
3. Gardner, H. (2013). Frequently asked questions - Multiple intelligences and related educational topics. Retrieved from [https://howardgardner01.files.wordpress.com/2012/06/faq\\_march2013.pdf](https://howardgardner01.files.wordpress.com/2012/06/faq_march2013.pdf)
4. Jean Piaget // Psihologija inteligentei // (2008) Retrieved from <https://carturesti.md/carte/psihologija-inteligentei-67109>
5. John Dewey and our educational prospect: a critical engagement with Dewey’s Democracy and education / edited by David T. Hansen 2006 State University of New York
6. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. — М: Изд-во Смысл, Изд-во Эксмо, 2004. — 512с. (Серия «Библиотека всемирной психологии»).
7. Вяткин Л.А., Сидорчук Е.В., Немытов Д.Н. Туризм и спортивное ориентирование.: Учеб. пособие. М.: Академий. 2008. С. 208.
8. Селуянов В.Н., Федякин А.А. Биологические основы оздоровительного туризма. М.: Спорт Академ Пресс. 2000. С. 123.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050314>

## PSIXIK RIVOJLANISH VA UNING XUSUSIYATLARI

**Dumarova Gulfira Kazimbekovna**

Andijon davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

**Bozorova Dilafruz Bahodirjon qizi**

Andijon davlat chet tillar instituti talabasi

*Annotatsiya ushbu maqolada yoshlarning psixik rivojlanishi, uning atrof-muhitda namoyon bo‘lishi haqida so‘z boradi. Yosh avlodning rivojlanish turlari va mohiyati haqida bir qancha ma’lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** psixika, biogegetik konsepsiya, sotsiogenetik konsepsiya, rivojlanish, biologik tizim.

Inson - biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tugma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko‘rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv to‘zilishining o‘ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatining ongli sub’ekti va ijtimoyy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning muammosi o‘z mohiyati jihatidan g‘oyaviy xarakterga ega, Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli oqimlar, yo‘nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogegetik kontseptsiya, nazariya bulsa, ikkinchi oqim sotsiogenetik kontseptsiyadir.

Rivojlanish deganda, odatda hodisalarining har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir: 1) miyaning biologik, organiketilishi, uning anatomik-fiziologik tuzilishi jihatidan yetilishi; 2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma’lum o‘sish darajalari sifatidagi, o‘ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlanishi, o‘z-o‘zidan ma’lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yechilishi bilan bog‘liqdir va bu xususiyat ta’lim-tarbiya ishlarida, albatta, hisobga olinishi lozim, chunki ta’lim miyaning organikjihatdan etilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya buzilishining organik jihatdan yetilishini muhitga, ta’lim-tarbiyaga mutlaqo bog‘lanmagan holda o‘zining qatiy biologik qonunlari asosida sodir bo‘ladi,

deb bo‘lmaydi. Muhit, ta’lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi.

Bolaning psixik rivojlanishini harakatlar keltiruvchi kuchlar murakkab va turlitumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar ko‘rashidan, ichki ziddiyatlar bolaning, psixik rivojlanishini bevosita harakatta keltiruvchi kuchlar, ta’lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yuzaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o‘sib borayotgan jismoniy va rujni imkoniyatlari bilan esa, tarkib topgan o‘zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o‘rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o‘rtasidagi ziddiyatlar kiradi.

Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo‘nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo‘ladi va bu sharoitlarning ba’zilari vaqtinchalik, o‘tkinchi xarakterda bo‘ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo‘lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leont’ev). Bunday senzitivaik davrining mavjudligiga miyaning organikjihatdan etilgan qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo‘ladi.

Odamning psixik xususiyatlari uning hayoti davomida, ya’ni ontogenetik tarzda yuzaga keladi; bu xususiyatlarni tarkib topishi va rivojlanishida odamning ijtimoiy tajribasi tashabbusi uning xayot iva faoliyati sharoitlari, ta’lim va tarbiya yetakchi, xal qiluvchi rol o‘ynaydi, - deb o‘rgatadi.

Muxit (keng ma’noda olganda), ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim va tarbiya azaldan berilgan, genetik jixatdan kattiy bulgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoyitgina bulib kolmay, balki inson psixik xsusiyatlarini tarkib toptiradi. Shuni aloxida kayd qilib o‘tishimiz lozimki, «jamiyat talablariga javob beradigan muayyan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida katta avlodning yosh avlodga ongli, maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatish protsessii» sifatida ta’lim va tarbiya xal qiluvchi axamiyatga egadir.

Psixik rivojlanishning biologik asoslari tug‘ma tabiiy kurtaklar masalaga yakun yasar ekanmiz maktab raxbarlari va o‘qituvchilarining dikkatini asosiy xulosaga karatish lozim garchi tabiiy kurtaklar maktab o‘quvchisining psixik rivojlanishi ma’lum axamiyatga ega bulsa (shu sababli, masalan ta’lim jarayonida ayrim o‘quvchilarda boshka o‘quvchilarda nisbatanko‘prok zo‘r berish talab qilinadi, ayrimo‘quvchiga o‘qituvchi boshka o‘quvchiga nisbatan ko‘prok kuch sarflaydi etibor beradi va ko‘prok vaqt ajratadi. Ma’lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o‘quvchilarining ta’lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish,

ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. qiziqishlar orqali o‘quvchilarda ta’limga aktiv munosabat namoyon bo‘ladi. Qiziqishlar o‘quvchilar hayotida katta rol o‘ynaydi. Ular o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turkilar - motivlaridir. O‘quvchilarning muayyan maqsadni ko‘zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni enga olishida, ishdan chalg‘itadigan narsalar bilan shug‘ullanishdan o‘zini tiya olishida, unda o‘qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo‘ladigan iroda ta’lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixik rivojlanish va bu o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan kuchlar o‘rtasidagi munosabat qonunlarini o‘rganish yosh davrlari psixologiyasi fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o‘quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta’sir ko‘rsatishning zarur shartidir.

Ta’lim jarayoni avvalo o‘quvchilar diqqatini yo‘lga solishni talab etadi. Darslarda ko‘rgazmali qurollardan, texnik va EXM vositalaridan foydalanish ta’lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim beruvchining vazifasi darsda ishlash xolatini yuzaga keltirishgina emas, balki o‘quvchilarning darsda o‘tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini ko‘zatish hamdir. Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan beriladigan ko‘rsatmalarga ham bog‘liq. O‘qituvchining roli shundan iboratki, u o‘quvchilarga tegishli ustakovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi keraqligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so‘zma-so‘z esda olib qolishni, nimaning ma’nosini o‘z so‘zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko‘rsatib o‘tishi lozim. Ko‘zatishlar ko‘rsatadiki, bunday ko‘rsatmalar berilmaganda, o‘quvchilarda ko‘pincha noto‘g‘ri tasavvurlar vujudga keladi.

D.B.Elkonin esa o‘quv faoliyatining xususiyatlarini ko‘rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o‘zini namoyon bo‘lish shaqliga ko‘ra ijtimoiyligini ta’kidlaydi. O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o‘quvchida o‘zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida, qurilgan bo‘lishi darkor. Bu motivlar bevosita o‘quvchi shaxsining o‘sishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. O‘quv faoliyati ta’lim, o‘qish va o‘rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog‘liqdir.

Dialektik nuqtai nazardan qaraganda, rivojlanish faqat sof miqdor o‘zgarishlari jarayonidan, ya’ni qandaydir psixik hodisalarning, psixik xususiyatlar va sifatlarning ko‘payishi yoki kamayishidan iborat emas. Psixik rivojlanishni faqat, yosh oshgan sari diqqat xajmining, psixik jarayonlar ixtiyoriyligining, ma’no jixatdan esda olib qolish va shuning kabilarning ortishi, bola fantaziyasining kamayishi, xatti-xarakatlarning

impulsivligi, idrokining utkirligi, yangiligi va xokozolardan iborat deb bo‘lmaydi. Psixikaning rivojlanishi ma’lum yosh davrlarida sifat jixatdan Yangi xsusiyatlarning, ya’ni « yangidan xosil qilingan sifatlarnin» (o’smirlarda katta bulib kolganlik xissining yoki ilk o’spirinlikda mexnat qilib mmustaqlayot kechirish extiyojining) paydo bo‘lishi bilan bog‘likdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G’oziev E. Psixologiya. T.1994.
2. Krutestkiy V.A. Psixologiya obucheniya i vospitaniya shkolnikov.M.1976
3. Kazakov V. G. Psixologiya. M.1989
4. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.19

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050360>

## OTA ONA BILAN YOSH DAVRLARIDA BO‘LADIGAN MUAMMOLAR

Dumarova Gulfira Kazimbekovna

Andijon davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Nurmuhamedova Havoxon O‘tkirbek qizi

Andijon davlat chet tillar instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ota-onsa va farzand o‘rtasidagi yoshga doir muammolar yoritilgan. Farzand tarbiya qilishda yoshning o‘ziga xos xususiyatlari alohida e’tiborga olinishi lozim. Muloqot qilish farzandning yaxshi tarbiyalanishida katta ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** yosh davrlari, muloqot, aktiv, passiv, o‘smirlilik, balog ‘at.

Oilada bola tug‘ilishi bilan oila a’zolari u bilan muloqotga kirishishga harakat qiladilar. Lekin chaqaloq muloqotga darhol tayyor bo‘lmasdan, u uxlaydi, yig‘laydi va emadi. CHaqaloq o‘zining hayotini shartsiz refleks, ya’ni qichqiriq bilan boshlaydi. Birinchi qichqiriq nutqning birinchi belgisidir. Ayrim olimlar birinchi qichqiriqni salbiy emotsiya deb ataydilar. Haqiqatdan ham chaqaloq o‘zining qichqirig‘i bilan uyquga, ovqatga, issiqlikka bo‘lgan ehtiyojini bildiradi.

Insonning tabiat shundayki, u atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lmasdan yashay olmaydi. Bola tug‘ilganda uning onasi o‘zining mehrini muloqot orqali beradi. SHuningdek, oilaning boshqa kattalari ham chaqaloq bilan muloqotda bo‘lmasdan turolmaydi. Kattalar tomonidan bo‘ladigan to‘g‘ri muloqot chaqaloqda muloqotga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradi. CHaqaloqda birinchi u bir oylik bo‘lganda “ga”, “da”, “ua” kabi nutq belgilari paydo bo‘ladi. Bolaning muloqoti reaktiv (passiv) yoki aktiv (faol) shaklda bo‘ladi. Bolaning kattalar bilan qiladigan muloqoti dastlab kattalarning labi va ko‘zlariga qarashdan boshlanadi .

Kattalar go‘daklar bilan doimo ijobiy emotsiyon munosabatda bo‘lishlari zarur. 4-5 yoshli go‘dakning munosabati o‘ziga xos harakterga ega. U o‘z oila a’zolarini begona kishilardan ajratadi. Kattalar doimo go‘dak atrofida parvona bo‘lavsalalar, u o‘yinchoqlar bilan o‘ynamaydi, balki go‘dak onasidan ajrasa injiq bo‘lib qoladi. 7-9 yoshli bola kattalarning nutqini va harakatini diqqat bilan kuzatadi. So‘ngra u

kattalarning og‘zidan chiqqan so‘zlarni takrorlashga harakat qiladi. Bu davrdagi bolalar kattalarning harakatlarini taqlid qilish orqali egallaydi. Masalan, stolni ustini artishga, idish-tovoqlarni ko‘tarishga harakat qiladi. Kattalar bolaning ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, predmetlar bilan harakat qilishga ham o‘rgatadilar, ya’ni hatti-harakatlarini boshqaradilar. Bir yoshgacha bola kattalarning nutqini tinglaydi.

3 yoshdan so‘ng bolalardagi krizis(inqiroz) davri sekinlashib qoladi. Bolaning kattalar bilan bo‘ladigan muloqotlari normallashadi. Bola bu yoshda ota-onaning diqqat markazida bo‘lmaydi, chunki uning kichik ukasi bo‘lishi mumkin. Hozirgacha u kattalarning diqqat-e’tiborida bo‘lgani uchun endi uning fikricha ota-onasi faqat bir-biri bilan munosabatda bo‘lib, unga e’tibor bermay qo‘yishyapti. Unga tushunarli bo‘lmagan narsalar haqida gaplashadilar. Bu unga yoqmaydi, natijada injiq bo‘lib qoladi. Haqiqatda esa bola ancha mustaqil bo‘lib qolgani uchun onasi undan ko‘ngli to‘lib, kamroq e’tibor beradi, bu esa bolaga yoqmaydi. SHuning uchun ota-onasi bu davrdagi bolalarga e’tiborliroq bo‘lishlari lozim. SHunday vaziyat ham bo‘ladiki, oilada bola yo onasi bilan qoladi, yoki otasi bilan yashaydi. Ko‘pincha bola balog‘atga etmaganligi uchun onasi bilan yashaydi. Bunday oila noto‘liq oila deyiladi. Bunday oilada o‘sayotgan bola avval otasi yo‘qligini his qilmaydi, lekin birdaniga his qilib, u qo‘zg‘aluvchan, hissiyotga beriluvchan bo‘lib qoladi. Bu paytda onasi qaysidir qarindoshidan iltimos qilib, otasi o‘rniga bola bilan muloqotda bo‘lishlari so‘rashi zarur. Ota-onalar farzandi uchun mas’uliyatlilikni his qilishlari lozim. CHunki bola ota-onasining munosabatlarda aybdor emas. Agar bola sog‘lom o‘sса, uni bolalar bog‘chasiga beriladi. U erda bola yangi kishilar bilan, yangi tengdoshlari bilan yangicha munosabatlarga kirishadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar endi o‘zları mustaqil harakat qila oladilar. O‘zları yuvinadilar, qiyinadilar. Lekin baribir ular ota-onalarining erkalashlariga, diqqat-e’tiborida bo‘lishga harakat qiladilar. Ota-onalar bola tarbiyasida quyidagi usullardan foydalanadilar:

1. Avtoritar uslub - boshqarish qattiqqo‘llik asosida olib boriladi. Boladagi tashabbus ota-onalar tomonidan ta’qilanganadi. Har bir hatti-harakati albatta jazolanadi. Bu usul orqali tarbiyalangan bolalar qo‘rqaq, jur’atsiz bo‘lib qoladilar, o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydilar. CHunki ota-onasi unga sharoit yaratib bermaydi.

2. Liberal uslub - bu usulda ota-onasi farzandiga befarq bo‘ladi, u nimaga qiziqadi, nimaga layoqati borligiga qiziqmaydi. Bola nima yomon, nima yaxshilagini bila olmaydi. Natijada bolalar mustaqil va faol harakat qila olmaydilar.

3. Demokratik uslub - tarbiyaning mahsuldor usuli bo‘lib, unda ota-onasi farzandiga bor mehrini berib, uning qiziqishlari, imkoniyatlari bilan hisoblashadi. Bolaning erkin fikrlashini istaydi. Bu usul bolani to‘g‘ri tarbiyalash imkonini beradi.

Ayrim oilalarda bola yolg'iz farzand bo'lgani uchun ota-onan unga barcha mehrlarini berib, uni erkalatib, xudbin qilib qo'yishlari mumkin. YOki bola ukalari tug'ilganda ham o'zini yomon his qiladi. CHunki ota-onan endi kichik farzandiga ko'proq e'tibor beradi. Bunday holatlarda kattalar bolaga u endi mustaqil ish qila olishi, aqliligini tushuntirsalar, shunda u kichik ukalariga nisbatan mehrli bo'ladi.

### Foydalanimanadabiyotlar ro'yxati

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T.: ToshDPU.2002.(o'quv qo'llanma).
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat. T.: 1999.
3. Karimova V. Akramova F. Psixologiya. T.: 2000.
4. Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma).T.: 2002.
5. Kan-Kalik. Uchitelyu o pedagogicheskem obhenii. M. "Prosvehenie". 1987.  
(o'quv qo'llanma).
6. Panasyuk A.YU. Psixologicheskaya nauka na slujbe u rukovoditelya. M. 1990.  
(o'quv qo'llanma).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050392>

## QOBILIYATLARNING TUZILISHI, QOBILIYAT TURLARI

**Dumarova Gulfira Kazimbekovna**

Andijon davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

**Abdusattorova Nilufar Islombek qizi**

Andijon davlat chet tillar instituti talabasi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada qobiliyat va uning turlari, shaxsning qobiliyati paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida so‘z boradi.*

*Kalit so‘zlar: Umumiy qobiliyat va uning ko‘rinishlari: intellekt, kreativlik (ijodiy qobiliyat), psixomotor qobiliyatlar, sensor qobiliyatlar va h.k. Pedagogik qobiliyatlar strukturası.*

Qobiliyatlar odamning shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko‘nikma va malakalarni orttirishning samaradorligi, tezligi shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi, lekin bu xususiyatlarning o‘zi bilim, ko‘nikma va malakalarga taalluqli bo‘lmaydi. Aks holda, imtihonda qo‘yilgan baho, doskada qaytarilgan javob, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bajarilgan yozma ishiga qarab odamning qobiliyatları haqida qat’iy xulosa chiqarish mumkin bo‘lar edi. Ammo psixologik tadqiqotlar va pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, ba’zan dastavval boshda nimalarnidir qila olmaydigan va buning natijasida atrofdagi boshqa odamlardan ajralib qolgan odam ta’lim olish jarayonida tez orada boshqalarni quvlab o‘tib ketadi va ish ishining katta ustasi bo‘lib etishadi. Unda boshqalarga qaraganda ko‘proq qobiliyatlar nomoyon bo‘ladi. Qobiliyatlar bilim, ko‘nikma va malakalarni egallahda nomoyon bo‘lsa ham, ular bilim, ko‘nikma va malakalarga taalluqli bo‘lmaydilar.

Qobiliyatlar va bilim, ko‘nikma va malakalar biri-biri bilan aynan bir narsalar emas. Bilim, ko‘nikma va malakalarga nisbatan odamning qobiliyatları qandaydiimkoniyat tarzida nomoyon bo‘ladi. Yerga tashlangan urug‘ ana shu urug‘dan o‘sib chiqishi mumkin bo‘lgan boshoqqa nisbatan faqat imkoniyat bo‘lgani kabi odamning qobiliyatları bilim, ko‘nikma va malakalarni egallah uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim, ko‘nikma va malakalar egallanadimi yoki egallanmaydimi, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo‘qmi - bularning hammasi juda ko‘p

sharoitlarga bog‘liqdir. Bolada nomoyon bo‘lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo‘lishiga hech bir kafolat bermaydi. Bola musiqachi bo‘lishi uchun unga maxsus ta’lim berilishi, qat’iylik, salomatligining yaxshi bo‘lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko‘p sharoitlar bo‘lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmayoq so‘nishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda nomoyon bo‘ladi, shunda ham faqat ana shu qobiliatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan faoliyatlardagina nomoyon bo‘ladi. Agar odamni hali rasm solishga o‘rgatmagan bo‘lsa, agar u tasviriylar faoliyat uchun zarur bo‘lgan hech qanday malakalarni egallamagan bo‘lsa, uning rasm solishga nisbatan qobiliyatlar haqida hech qanday gap bo‘lishi mumkin emas. Rasm chizishga, tasviriylar san’atga maxsus o‘rgatish jarayonida o‘quvchining qobiliyati bor yoki yo‘qligi nomoyon bo‘lishi mumkin.

Qobiliyat va bilim, ko‘nikma va malakalarning birligi nimada ifodalanadi? Qobiliyat bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zida ko‘rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida nomoyon bo‘ladi, ya’ni, boshqacha qilib aytganda, mazkur faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, engil va mustahkam amalga oshirilishida nomoyon bo‘ladi. Xuddi mana shu erda yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar bizga haqida gapirish imkonini beradi.

Shunday qilib, qobiliyatlar shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda nomoyon bo‘ladigan individual-psixologik xususiyatidir.

## QOBILIYATLARNING TURLARI

Qobiliyatlar umumiy va maxsus bo‘ladi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo‘lganda kishi faoliyatning turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana oladi. Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanish imkoniyatini beradi. Masalan, matematik, texnikaviy, adabiy, musiqiy, tasviriylar va boshqa qobiliyatlar bo‘ladi.

Umumiy qobiliyatlarga ko‘p hollarda intellekt, tafakkurning kreativligi va shaxsning psixomotor qobiliyatları kiradi deb hisoblaydilar.

**INTELLEKT.** Yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek odamning aqliy rivojlanish darajasini o‘rganishga intilish "intellekt" tushunchasini va nazariyasininng yaratilishiga olib keldi. Ko‘rsatib o‘tganimizdek intellektini o‘lchash va baholash uchun turli testlar qo‘llaniladi. Ularning barchasi intellekt testlari degan umumiy nom bilan ataladilar. Biz yuqorida intellektini baholashda ko‘p qo‘llaniladigan testning mohiyatiga qisqa to‘xtalib o‘tgan edik. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, ulardagi formulalar bolalar intellektini o‘lchashda qo‘llaniladi.

Katta yoshli kishilar intellektini baholash uchun boshqa mezon, individual natijani biror meyor (ko‘pchilikni o‘rganish natijasida tajriba yo‘li bilan topilgan) bilan taqqoslanadi. Quyida biz shunday jadvallardan birini keltiramiz.

Intellekt koeffitsienti	Aqliy rivojlanish <u>darajasi</u>	% hisobida taqsimlanganlik ko‘rsatgichi
<b>IQ</b>		
130 va yuqori	Juda yuqori	2,2
120 - 129	Yuqori	6,7
110 - 119	Yaxshi	16,1
90 - 109	O‘rta	50,0
80 - 89	Past	16,1
70 - 79	Chegara ko‘rsatgichi	6,7
69 va past	Aqliy zaiflik	2,1

### Intellektni baholash jadvali.

Ko‘rinib turibdiki, (jadvalga qarang) yuqori intellektga egalar va aqliy zaiflar 2% ni tashkil qilar ekan. Aqliy rivojlanish darajasini o‘lhash ko‘proq aqliy zaiflikni, ijtimoiy qarovsizlikni yoki kasbga tanlash maqsadida qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtida psixologik tadqiqotlar intellektning o‘zgarmasligini inkor qiluvchi, uning juda ko‘plab omillarga bog‘liq (ijtimoiy muhit, oila, irsiyat, motivatsiya) ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli intellekt koeffitsienti kishining taqdirini belgilovchi birdan-bir ko‘rsatgich sifatida qo‘llanilishi mumkin emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Davletshin M.G. YOsh davrlar va pedagogik psixologiya asoslari. -Toshkent: TDPU, 2006. – 43 b.
2. Davletshin M.G. Техническая одарённость и ее выявление О‘zbekistonning iste’dodli bolalari Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. –Termiz, 1992. - B. 53- 55.
3. Исмоиловна А. З., Нарзуллаевна К. Г. (2022). В процессе формирования личности, преодоления эмоционального состояния в семейном окружении. Евразийский журнал гуманитарных и социальных наук, 6, 31-33.
4. Ismoilovna, A. Z. (2021). Methodology of organizational capacity development in gifted children. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1957- 1961.
5. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 308-311.
6. Ismoilovna, A. Z. (2023, February). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLLARDA BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 2, pp. 204-210).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050518>

## ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDA INTELEKTUAL VA EMOTSIONAL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

**Abduqayumova Feruzabonu Mirzoxid qizi**

Andijon davlat chet tillar instituti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ilk o‘spirinlik davrida yoshlarning rivojlanishi, duch keladigan muammolari haqida so‘z boradi. Hozirgi kunda yoshlarning aqliy va ruhiy rivojlanishi ularning kelajakda yetuk kadr bo‘lishlarida juda muhim. Shu sababdan ularning emotsiyal va intelektual rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** O‘spirinlik, rivojlanish, emotsiya, rivojlanish davrlari, aql-idrok.

Ilk o‘spirinlik eng muhim psixologik xususiyati – o‘z ichki dunyosini kashf etadilar. Ular o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini qiyosiy baholay oladilar. Ularning yana bir xususiyati murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch vijdon hissi, o‘z qadr-qimmatini sezish kabi xislatlardir. Umuman, o‘z-o‘zini anglash - quvonchli, hayajonli hodisadir. Ayni vaqtida bu his dramatik xavotirli kechinmalarga ham sabab bo‘lishi mumkin. O‘spirin kechinmalarida asosiy o‘rinni kelajak haqidagi o‘ylar egallaydi.

O‘spirinlar uchun yana bir muhim kechinma o‘zining tashqi ko‘rinishi haqidagi o‘ylardir. Juda ko‘pchilik o‘spirinlar o‘z tashqi ko‘rinishini o‘zgartirishni xohlagan bo‘ladilar. Tashqi ko‘rinishlaridagi ozgina kamchilik ular uchun “fojia” darajasiga ko‘tariladi.

Umuman, refleksiyaning o‘sishi, o‘z “men”iga qiziqishning ortishi barcha o‘spirinlarga xos xususiyat. Lekin bu kechinmalar shaxs rivojlanishining qiyinchiliklari bo‘lib, o‘tkinchi xarakterga ega, umuman olganda o‘spirinlik juda baxtli davr sifatida esda qoladi. O‘spirinlarda refleksiyaning kechishi ko‘pgina ijtimoiy, individual-tipologik, biografik omillarga bog‘liqdir.

**O‘spirinlar aql-idrokining xususiyatlari.** Bu yoshda o‘quvchilarda bilish jarayonlari kichik yoshdagilar kabi intensiv o‘smasa-da, lekin mustahkamlanib, stabillashib boradi. O‘spirinlarda barcha faoliyat turlarida mustaqil fikr yurita olmaslik ularning jiddiy kamchiligidir. Fan o‘qituvchilari har bir predmetdan o‘spirinlarni

original fikr yuritishga o‘rgatishlari zarur. Tafakkur bilan birga o‘quvchining nutq faoliyati ham o‘sadi.

O‘spirinlik qobiliyati va layoqatlari o‘qish faoliyati davomida namoyon bo‘la boshlaydi. O‘spirinlarda maxsus qobiliyatlar ko‘zga tashlanadi.

**Kasb tanlash muammosi.** Albatta, kasb tanlash muammosi o‘spirin hal qilishi kerak bo‘lgan eng muhim muammolardan biridir. Maktabni bitirguncha hamma o‘quvchilar ham bo‘lajak kasbni aniq tanlaydi deb bo‘lmaydi. O‘spirinlarning ba’zilari kasblari haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar, rejalarini oldindan tuzadilar. Ba’zilari esa kasblarni ota-onaya yoki boshqa kattalarning ta’risida tanlaydilar. Ba’zi o‘spirinlar esa bo‘lajak kasblarini tasodifiy sabablarga ko‘ra tanlaydilar. (o‘quv yurti uyiga yaqin bo‘lgani uchun, o‘rtog‘i shu o‘qishga kirgani uchun va h.k.) Bu esa keyinchalik tanlagan kasbidan ko‘ngli sovishi, o‘z kasbidan norozi bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

**O‘spirinlarning o‘zaro munosabatlari.** O‘spirinlar do‘stlik tuyg‘usini insoniy munosabatlarning eng muhimi deb hisoblaydilar. Ular do‘stlikka juda katta talablar qo‘yadilar. O‘spirinlar do‘stlikning eng muhim funkciyalaridan biri uning o‘ziga xos “psixoteropiya” rolini o‘ynashidir. O‘spirin o‘z “men”ining hurmat qilinishi, qo‘llab-quvvatlanishini do‘stidan kutadi. O‘spirinlar odatda o‘z jinsidan, tengdoshlaridan do‘st tanlaydi. Qizlarning va yigitlarning do‘stligi orasidagi tafovutlar hali to‘liq o‘rganilmagan. Bu yoshda yigit va qizlar o‘rtasida ilk romantik munosabatlar paydo bo‘ladi. Shunisi qiziqarlikki, bu munosabatlar “epidemiya” xarakteriga ega. Ba’zi guruhlarda hamma shu “kasallik” bilan og‘risa, ba’zilarida umuman bunday munosabatlar bo‘lmaydi.

Odatda biologik, jismoniy rivojlanish barcha ilk o‘spirinlarda bioquvvatning oshib borishidan dalolat beradi. Ularda mehnat faoliyatining murakkablashuvi yangi mehnat ko‘nikmalari va malakalarining vujudga kelishiga olib keladi, lekin bunday rivojlanish ilk o‘spirinlarning psixikasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi, albatta. Mazkur yoshdagagi qizlarda esa o‘zlarining tashqi ko‘rinishlariga, qiyofalariga nisbatan shaxsiy munosabatlari, e’tiborlari, qiziqishlari, mayllari tobora kuchayib boradi. Ularda, aksariyat hollarda o‘zlarining tashqi ko‘rinishlari yoki qiyofalarini anglagan yoki unshalik anglamagan holda o‘zlarini yuqori baholashga intiladilar. Ilk o‘spirinlik davrida o‘g‘il-qizlardagi o‘zini o‘zi yuqori baholash, noadekvatlik keyinshalik (yosh davrlari ning keyingi bosqichida) hayoti va faoliyati davomida saqlanib qolishi, dinamik stereotip tus olish ehtimoli mavjud bo‘ladi. Mazkur tendensiyaning saqlanib qolish xususiyatini franso‘z olimlari eksperimental tarzda o‘rganish orqali ularda o‘zini o‘zi baholash darajasini aniqlaganlar. Tadqiqotchilar oradan 30 yil o‘tgach, xuddi shu sinaluvchilarni yig‘ib, ular bilan o‘zini o‘zi baholash yuzasidan tajriba ishlarini o‘tkazganlar. Olingan natijalarni psixologik tahlil qilgan olimlarning fikrlarisha, ilk

o'spirinlik davrida dominantlik xususiyati yaqqol ko'zga tashlanmagan sinaluvchilarda oradan 30 yil o'tgandan keyin ham mazkur stereotip tubdan yo'qolmagan. Psixologik ma'lumotlarning tahliliga karaganda, kuchsiz, zaif, past bo'yli yoki ko'rimsiz, notekislik fenomeni mavjud ilk o'spirinlar o'smirlardan farqli o'laroq injiqlik, qaysarlik qilmaydilar, tevarak-atrofdagi odamlar bilan shaxslararo munosabatlarda faqat nizoli holatlarga kirmaydilar. Vaholanki, bunday toifadagi ilk o'spirinlar o'zlarining asosiy diqqatlarini o'z-o'zini tarbiyalashga, kamol toptirishga, zaruriy shaxs xususiyatlarini shakllantirishga qaratadilar. Bu mayl ta'sirida jismoniy jihatdan kuchsiz, zaif his etgan ilk o'spirinlar fizkultura va sport bilan jiddiy, maqsadga muvofiq tarzda, maxsus shug'ullana boshlaydilar, qolaversa o'zlarining aqliy rivojlanishlariga, mustaqil fikr yuritishlariga alohida e'tibor beradilar. Mazkur davrda ham asosiy faoliyat o'qish, kasb-hunar tanlash bo'lib qolaveradi, lekin ularga nisbatan qiziqish biroz pasayadi, tanlab munosabatga kirishish kuchayadi, ya'ni dif-ferensiatsiya dominantlik xususiyat kasb etadi. Bu ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik voqelikning ham o'ziga xos muayyan omillari, sabablari mavjud. Agar o'smirlikda asosiy faoliyat muomala, shaxslararo munosabat bo'lib hisoblansa, ilk o'spirinlik davriga kelib, undan oldingi ontogenetik bosqichdan farqli o'laroq o'qishga nisbatan qiziqish jonlana boradi, chunki bu davrda ta'lim subyektlari oldida akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarini bitirishdek mas'uliyat yotganligi harakatlantiruvchi kuch funksiyasini bajaradi. Bilish va kognitiv jarayonlarning barqarorligi, o'sganligi, takomillashganligi, kasbiy malakalar shakllanganligi o'quv jarayonining sifat va miqdor jihatdan o'zgarganligidan dalolat beradi. O'zgarishlarning miqdoriy jihatdan ko'rinishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Yaqqol (konkret) va mavhum (abstrakt) ilmiy tushunshalar o'rtasidagi munosabatlar.

2. Kognitiv faoliyatning jarayonlari, operatsiyalari rivojlanganligi: taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, tasniflash va hokazo.3. Esda olib qolishning ratsional usullarining mavjudligi (so'z-mantiq xotirasiga asoslangan holda).

4. Muammoli vaziyatlar va ularning eshimini topish imkoniyatlari

5. Ijodiylik (kreatsiya) usullari vujudga kelayotganligi.

O'zini o'zi baholash va nazorat qilish uquvi shakllanayotganligi.

Odatda sifat o'zgarishlarining tarkibiga o'quv faoliyatining motivatsion va mohiyat jihatidan o'zgarishning variantlari kiradi. Motivatsion o'zgarish to'g'risida shuni ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati ilk o'spirin uchun shaxslararo munosabatlarda o'z o'rnini topish, jamda (sinf, kurs) ishida o'zini tasdiqlash, tan oldirish, mustaqil turmushga, hayotga kirishga tayyorgarlik ko'rishning motivlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu motivlarning barchasi ilk o'spirin uchun shaxsiy ma'no kasb etadi. Shaxsning motivatsiya tuzilishida yuksak ijtimoiy motivlardan jamiyatning to'laqonli,

teng huquqli a'zosi bo'lish, xalqqa va Vatanga xizmat qilish, foyda yoki naf keltirish katta o'rinni egallaydi. Kognitiv faoliyatda o'quv jarayoniga va bevosita unda berilayotgan materiallarning (aksariyat fan asoslari) mohiyatiga nisbatan qiziqish ilk o'spirinlarda o'ziga xos xususiyatga ega (rasmiy yoki norasmiy nuqtai nazaridan yondashish). Yuqorida fikr, mulohaza va mushohadalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, bu davrga kelib o'quv faoliyatining barcha motivlari (hatto ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchilari ham) jipslashib, barqaror tus egallaydi. Ushbu motivlarning eng ahamiyatli, o'ziga xos tomonlari – bu ularning ixtiyoriyligidir. Boshqasha so'z bilan aytganda, ilk o'spirin (akademik litsey va kasb-hunar kolleji subyektlari) bugun faoliyatini o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishga qaratishidir. O'quv faoliyatining bu motivatsiya sohasida differensial (individual) o'zini o'zi baholash xamda nazorat qilish alohida o'rinni tutadi. O'zini o'zi bunday yo'sinda baholash (orttirib, pasaytirib, xolisona, haqqoniy) ilk o'spirinning qaysi soxa kuchli va keysida kuchsiz ekanligini to'g'ri (adekvat) baholashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida o'zini o'zi rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ro'yobga shiqrish, o'zini o'zi namoyon etish, o'ziga o'zi buyruq berish kabilarni takomillashtiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E.G'oziev. «*Psixologiya*. Toshkent. «O'qituvchi». 1994.
2. E.G'oziev. «*Pedagogik psixologiya asoslari*». Toshkent. 1997.
3. Kon I.S. *Psixologiya yunosheskogo vozrasta*. M.: 1979
4. Mudrik A.V. *O vospitanii starsheklassnikov*. M.: 1981
5. Klimov E.A. *Put' v professiyu*. Leningrad: 1980
6. Zaxarova A.V. *Psixologiya obucheniya starsheklassnikov*. Riga: 1980

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>Valikulova, A. V. qizi . (2024). TIJORAT BANKLARINING KREDIT OPERATSIYALARI VA KREDIT PORTFELI TAHLILI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 4–7. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.11047566">https://doi.org/10.5281/zenodo.11047566</a></b>
2	<b>Karamatova, P. S. qizi ., &amp; Ismoilova, S. B. qizi . (2024). ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI LEKSIKASI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 8–10. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.11047590">https://doi.org/10.5281/zenodo.11047590</a></b>
3	<b>Sharifxo'jaev, S. A., &amp; Kamilova, Z. A. (2024). OSIYO-TINCH OKEANI MAMLAKATLARI IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIIA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 11–19. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.11047636">https://doi.org/10.5281/zenodo.11047636</a></b>
4	<b>Sharifboyeva, F. O. qizi . (2024). ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM DININING AHAMIYATI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 20–25. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.11047658">https://doi.org/10.5281/zenodo.11047658</a></b>
5	<b>Kholmonov, S. K., &amp; Nurmukhamedova, T. U. (2024). ON USING REMOTE LABS FOR ENGINEERING EDUCATION. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 26–30. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.11047743">https://doi.org/10.5281/zenodo.11047743</a></b>
6	<b>O'razov, S. S. (2024). KURSANTLARNI JISMONIY SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA GIMNASTIKANING ROLI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 31–34. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.11047756">https://doi.org/10.5281/zenodo.11047756</a></b>

7

Панжиева, К. Т., & Тиллаева, М. Е. (2024). РОЛЬ ЛЕКСИКОЛОГИИ В ГРАММАТИКЕ РУССКОГО ЯЗЫКА. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(6), 35–39.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11047823>

8

Azizov, O. E. (2024). TA'LIM VA TARBIYA BERISH JARAYONIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASHDA MOTIVATSİYASINING O'RNI. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(6), 40–43. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047886>

9

Қамбарова, Н. (2024). ТАСВИРИЙ САНЬАТ ДАРСЛАРИДА КҮРГАЗМАЛИЛИК ВА УЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(6), 44–48. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047937>

10

Қамбарова, Н. (2024). 1-4-СИНФЛАРДА ТАСВИРИЙ САНЬАТ МАШФУЛОТЛАРИ ВА УЛАРНИ ЎҚИТИШ. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(6), 49–52. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11047997>

11

Нумонова, М. Л., & Тиллаева, М. Е. (2024). МОРФОЛОГИЯ В СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(6), 53–56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11048489>

12

Холпулатова, С., & Тиллаева, М. Е. (2024). СЛОВООБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(6), 57–60. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11048541>

13

Жабборова, Б. Х., & Тиллаева, М. Е. (2024). ФРАЗЕОЛОГИЗМ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(6), 61–66. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11048645>

14

**Parmankulova, D. R., & Safarova, F. I. (2024). EFFICIENT WAYS AND METHODS OF USING CRITICAL THINKING TECHNOLOGY IN LEARNING ENGLISH LANGUAGE. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 67–76.**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11048808>

15

**Usanov, S. (2024). O'QUVCHILAR BILIM EGALLASHNING ASOSIY BOSQICHLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 77–82.**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11048988>

16

**Худойбергенова, П. Т., & Махмудалиев, С. С. ўғли . (2024). ХАЛК МАЪРИФАТИ УЧУН КУРАШГАН ЖАДИДЧИЛАР. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 83–86. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049033>**

17

**Худойбергенова, П. Т., & Махмудалиев, С. С. ўғли . (2024). ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР БИЛАН СИЁСИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИ. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 87–91. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049126>**

18

**Турсунова, М. (2024). СКЛОНЕНИЕ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В НАРОДНОЙ ЛАТЫНИ И В ПЕРВЫЙ ПЕРИОД СТАРОФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА (ДО 1100 Г.). INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 92–95. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049450>**

19

**Shamsudinova, I., Fozilova, G., & Abdullayeva, S. (2024). BOBUR ASARLARIDAGI SOF TURKIY SO'ZLARNING LEKSIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 96–102. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049579>**

20

**Sultonova, M. S. qizi . (2024). KOREYA TA'LIM USULINING RIVOJLANISHI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 103–108.**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11049641>

21

**Shahrizoda, B. I. qizi . (2024). GYOTE VA VOHIDOV. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 109–112.** <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049753>

22

**Akramov, X. B. o'g'li . (2024). ELEKTRON TIJORATDAGI TENDENSIYALAR VA INNOVATSIYALAR. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 113–115.** <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049861>

23

**Akramov, X. B. o'g'li . (2024). BANK PLASTIK KARTALARI ORQALI TO'LOVLARNING RIVOJLANISHI HAMDA AHAMIYATI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 116–118.** <https://doi.org/10.5281/zenodo.11049946>

24

**Zaynidinov, B. S. o'g'li ., & Eshdavlatov, E. U. (2024). MOTOR MOYLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA AVTOMOBIL DVIGATELLARINI ISHLASH SHAROITIDA QO'LLANILISHI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 119–121.** <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050083>

25

**Назарова, И. И. (2024). ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БАСНИ ЖАНА ДЕ ЛАФОНТЕНА ВОЛК И ЯГНЕНОК. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 122–125.** <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050139>

26

**Xalimova, N. N. (2024). O'SMIRLARDA BILISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 126–129.** <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050267>

27

**Dumarova, G. K., & Bozorova, D. B. qizi . (2024). PSIXIK RIVOJLANISH VA UNING XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 130–133.** <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050314>

28

Dumarova, G. K., & Nurmuhammedova, H. O. qizi . (2024). OTA ONA BILAN YOSH DAVRLARIDA BO'LADIGAN MUAMMOLAR. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 134–136. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050360>

29

Dumarova, G. K., & Abdusattorova, N. I. qizi . (2024). QOBILIYATLARNING TUZILISHI, QOBILIYAT TURLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 137–140. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050392>

30

Abduqayumova, F. M. qizi . (2024). ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA INTELEKTUAL VA EMOTSIONAL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(6), 141–144. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11050518>